O‘ZBEKISTON TARIXI

(IV asrdan – XIII asr boshlarigacha)

7-sinf o‘quvchilari uchun darslik

Birinchi nashr

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TOSHKENT
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI
2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O‘)ya72
O‘ 17

Ismatova, N.
O‘zbekiston tarixi : umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik / A. Zamonov, N. Ismatova va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. - 192 b.

ISBN 978-9943-8352-7-6

UO‘K 94(575.1)(075.3)
KBK 63.3(5O‘)ya72

MUALLIFLAR:

A. T. Zamonov, N. K. Ismatova, D. A. Rahimjonov,
D. R. Normurodov, Z. T. Zamonov, S. A. Po‘latova

Mas’ul muharrir
Dilshod Mutalibovich Kenjayev

TAQRIZCHILAR:

O‘. Mavlonov – tarix fanlari doktori, O‘zMU professori
N. Mustafoyeva – O‘zFA bo‘lim mudiri, tarix fanlari doktori, professor
M. Alimova – tarix fanlari nomzodi, O‘zXIA dotsenti
A. Tagayev – tarix fanlari nomzodi
O. Bazarov – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
U. Xolmo‘minov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi
M. Karimova – Yunusobod tumanidagi 98-umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi
N. Qudratova – «Ziyo-zukko» umumta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8352-7-6

© A. T. Zamonov, N. K. Ismatova va boshqalar, 2022
© Respublika ta’lim markazi, 2022.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

1-mavzu:

AJDODLARIMIZNING MA'NAVIY QADRIYATLARI – JAHON SIVILIZATSIYASI ASOSLARIDAN BIRI

Tariximizni o'rganar ekanmiz, qalbimizni faxr va iftixor tuyg'usi chulg'ab olaveradi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosi bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo olimlarining ham diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Qadimgi Turon hududlarida azaldan o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq va turkmanlarning ajdodlari yashab kelishgan. Shu boisdan, o'zbek xalqining o'tmishi etnik jihatdan yaqin bo'lgan qardosh xalqlarning tarixi bilan chambarchas bog'lanib, uyg'unlashib ketgan.

Siz ushbu darslikda IV asrdan XIII asr boshlarigacha bo'lgan Vatanimizning o'rta asrlar tarixi bilan tanishasiz. Bunda «o'zbiy» va «o'zbek» atamalari bilan ulug'langan o'zbek xalqi shakllanganligi haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Darslikdan d unyo tamaddunigа o'zining benazir hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, vatanparvarlik namunasi bo'lgan bahodirlar jasoratlari bilan bir qatorda, xalqimizning boy madaniy merosi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

«O'rta asrlar» tushunchasi tarix faniga italyan tarixchilari tomonidan olib kirilgan. Bu tushuncha xususiy mulkchilik shakli o'zgarishi davrlari bilan bevosita bog'liq. Sharq mamlakatlarida yer-mulk munosabatlari azaldan jamoaviy asoslarda rivojlanib kelgan. Shu sababli «o'rta asrlar» tushunchasi tariximizda shartli ravishda ishlatib kelinadi.


I asr
III asr
VI asr
VII asr
IX asr
X asr
O'rta asrlar
Milodiy

Miloddan avval

I asr | IV asr | V asr | VI asr

Qadimgi davr

1. Quyi sinflarda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, berilgan rasmlarni nomlang.
2. Rasmlarda aks etgan tarixiy voqealarni gapirib bering. Ular qayerda va qachon sodir bo'lganligini davr chizig'i bilan tushuntiring.
3. Voqealar davr chizig'ining qaysi joyida to'xtadi?
4. To'marisning Kurush ustidan g'alaba qozonganiga qancha yil bo'ldi? Hisoblab ko'ring.



XI asr | XII asr | XIV asr | XV asr



Aslida o‘rta asrlarning Yevropa uchun amal qiluvchi davriy chegaralari Sharq, xususan, Turon tarixidagi davr bilan farqlanadi. Chunki Yevropada o‘rta asrlarning boshlanishi Rim imperiyasining qulashi (476-y.), V asr oxirlari voqealariga to‘g‘ri keladi.

Bizning tariximizda esa, «o‘rta asrlar» deb atalayotgan davr IV asr oxirlari hamda V asr o‘rtalaridan siyosiy maydonda *kidariylar, xioniylar, eftaliylar* kabi etnik atamalar ostida tushuniladigan qabila uyushmalari paydo bo‘lgan davrdan boshlangan. O‘rta asrlar, o‘z navbatida, ilk, rivojlangan va so‘nggi o‘rta asrlarga bo‘linadi.

Mazkur davrda *Xorazm, xioniylar, kidariylar, eftaliylar, Turk xoqonligi, keyinchalik somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar* hukmronlik qilgan yirik davlatlar mavjud bo‘lgan. Bu davlatlar aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayoti o‘z davriga xos ravishda rivojlanib borgan.

Qadimdan «Turon» deb atalib kelingan yurtimiz va unga tutash hududlar arablar davridan «Movarounnahr» va «Xuroson» deb, XVIII–XIX asr g‘arb olimlari va sayyohlari tomonidan «O‘rta Osiyo» yoki «Markaziy Osiyo» deb nomlangan.

Ilk o‘rta asrlarda «qishloq hokimlari» deb atalgan katta yer egalari – *dehqonlar* va ularning ekinzorlarida ishlovchi yersiz *kadivarlar* shakllandi. Yerda ishlash tartiblarining tubdan o‘zgarishi aholi o‘rtasida tabaqalanishni yanada keskinlashtirgan.

VIII asr boshlariga kelib mamlakatimiz hududida arab xalifaligi hukmronligi o‘rnatildi hamda o‘lkamiz madaniyatiga islom dinining ta’siri kuchaydi. Xalifalik hukmronligidan keyingi asrlarda ilm-ma’rifatning rivoji uchun sharoit yuzaga keldi. Yurtimizdan jahon ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shgan Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi.

IX–XII asrlarda zaminimizda tug‘ilib, voyaga yetgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro singari mashhur ulamolarning islom dini va ta’limotiga oid asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Darslikda berilgan voqealar bilan tanishib borar ekansiz, ajdodlarimiz doimo bunyodkorlikka, ilm va ma’rifatga intilib yashaganini bilib olasiz. Ularning boy ma’naviy merosi Vatanimiz haqida ma’lumot beradi. Ilm va ma’rifatga intilish, uni egallash orqaligina komillikka erishish mumkinligini tushunasiz.

Bugungi tezlik va shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda yakka-yu yagona najotimiz ilm ekanligini bilib olasiz.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Eslab ko‘ring, qadimgi davrda O‘zbekiston hududida qanday davlatlar bo‘lgan? Ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling.
2. IV–XIII asr boshlarida Vatanimiz tarixining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat bo‘lgan?
3. IX–XII asrlarda yurtimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va mashhur ulamolarning qaysi asarlarini bilasiz?

2-mavzu:

IV–VII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ XALQLARINING TURMUSH TARZI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Qadimgi davrda O‘zbekiston hududida qanday davlatlar bo‘lgan? Ularning hududini xaritadan ko‘rsating.
2. Mamlakatimizning eng qadimgi davriga oid madaniy merosiga misollar keltiring.
3. Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Ularning nomini bilasizmi? Agar u ixtiro qilinmaganida... Fikrni davom ettiring.

Mulohaza uchun

Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan hudud tarixi va o‘z mehnati bilan uni obod etgan xalqlarning o‘tmishi g‘oyat qiziqarli hamda ibratlidir. Suv tegirmoni, chig‘ir va charxpalak kabi suv inshootlari kashf etilishi qishloq xo‘jalik ishlarining rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi.

Ijodiy faoliyat

1. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va qishloq xo'jalik ishlarining rivojlanishi insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Ekin maydonlarining kengayishi qanday ehtiyojlarga sabab bo'lishi mumkin? Quyidagi so'zlardan foydalanib fikringizni bayon qiling. *Ziroatkor – hosil yetishtiruvchi, qo'shchi; mirob; yerga ishlov berishga mo'ljallangan mehnat qurollari va b.*
3. Siz insonlar hayotining farovonligi uchun nima ixtiro qilgan bo'lardingiz? Fikringizni asoslang.

Dehqon (qishloq hokimi) – ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa.
Kashovarz – ziroatchi oddiy qo'shchilar.
Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram aholisi.
Chokar – dehqon mulkini qo'riqlovchi, harbiy posbon.

VI asrda unumdor yerlar hamda suv taqsimoti qabila boshliqlari va ishboshilarning nazoratiga o'tdi. Bu esa, ularning qishloq aholisiga o'z ta'sirlarini o'tkazish, ziroatchi aholiga hukmronlik qilish imkoniyatini berdi. Ular qishloq hokimi — *dehqonlar* deb atalgan. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi *kashovarzlar,* o'z yerlaridan va erklaridan ayrilib qolib, dehqonlarning yerlarida ishlovchi *kadivarlar* paydo bo'ldi. Dehqonlarning xo'jaligini tashqi hujumlardan himoya qilish, ichkarida esa tartib-intizomni saqlashga yordam beradigan maxsus askariy guruhi – *chokarlari* bo'lgan.



Dehqonlarning shaharda hunarmandchilik rastalari, uylari bo'lgan. Ularning xo'jaligida ko'plab odamlar mehnat qilganlar. Turon hududida ham katta yer egaligi vujudga keldi.

So'nggi antik davr (milodiy II-IV asrlar)dan boshlangan tub o'zgarishlar shu qadar tez kechdiki, oqibatda, bir tomondan, O'rta Osiyoning dehqonchilik viloyatlarida (Sug'diyona, Marg'iyona, Toxariston, Xorazm, Choch, Farg'ona va boshqalar) o'nlab mahalliy hokimliklar tashkil topib, ikkinchi tomondan, ularning yiriklashish jarayoni ham jadal kechdi.

Ahmadali Asqarov, «O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi»

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Qanday omillar sabab dehqon xo'jaliklari paydo bo'ldi?
2. Agar suv tegirmoni va chig'ir ixtiro qilinmaganida odamlarning turli tabaqalarga bo'linishi yuz berarmidi? Fikringizni asoslang.
3. O'ylab ko'ring-chi, nega ziroatkor vohalardagi sug'orma yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarining qaramog'ida bo'lgan?
4. Insonlar hayotidagi bu o'zgarishlar yana qanday kasblarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan, deb o'ylaysiz? Fikr bildirishdan avval chokarlar, kadivarlar uchun zarur bo'lgan buyumlarni ko'z oldingizga keltiring.

3-4-mavzular: IV–VII ASRLARDA XORAZM

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Qadimgi davrlarda Xorazm bilan bog‘liq qanday tarixiy jarayonlarni bilasiz?
2. Olim Istaxriyning: «Xorazm Jayhunning butun foydasini ola bilgan mamlakatdir», – degan so‘zlari sizga Gerodotning Nil haqida aytgan qaysi fikrini eslatdi? Nima deb o‘ylaysiz, olim bu fikri bilan nima demoqchi?

Mulohaza uchun

Amudaryo Hindiqushning Shimoliy yonbag‘irlaridagi muzliklardan boshlanadi. Daryo baland qoyali tog‘lar orasidan oqib o‘tadi va har kilometrda bir necha metrga pasayib boradi. Shu sababli u juda tez va hayqirib oqib, o‘zi bilan juda ko‘p miqdorda minerallarni loyqa holda oqizib keladi. Amudaryoga Surxon kelib qo‘shilgan joyning quyidan boshlab, u hech qanday irmoqlarsiz jazirama sahrolar ichidan oqa boshlaydi va shu yerdan uning hayotbaxsh faoliyati boshlanib, Xorazm diyorini suv bilan ta’minlaydi.

Xorazm vohasiga Qoraqum sahrosi tutashib ketgan. Xiva meridianidan sal sharqroqda qum tepaliklar chegarasi shimoliy-g‘arb tomonga buriladi va shu yo‘nalishda deyarli Qorako‘l ko‘ligacha borib yetadi. Xorazmliklar qadim zamonlardan boshlab bu qumliklardan yo‘llar o‘tkazganlar.

Ijodiy faoliyat

1. Tabiiy shart-sharoitlarni inobatga olib, bu hududda qanday kasblar rivojlangan? Fikringizni asoslang.
2. Xorazm tarixida qanday shaharlar bor edi?

Mulohaza uchun

Bu davrda xorazmliklar Xuroson va Eron bilan madaniy-savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishgan. Xorazm diyorida sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san’at, xususan, haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. Aholi chorvachilik va baliq ovlash bilan shug‘ullangan. Ularning xo‘jalik turmushida, asosan, baliq, qovun, qovoq, yovvoyi jiyda va tut alohida o‘rin tutgan.

Xorazm hunarmandlari tomonidan juda chiroyli qilib yasalgan sopol idishlar saroylarni bezab turgan.

Ijodiy faoliyat

1. Sizningcha, berilgan rasmlarda tasvirlangan qaysi soha Xorazmda davlatchilik taraqqiyotini tezlashtirgan?
2. Xorazm haqidagi bilimlaringizga tayanib, mazkur hududda yashagan insonlar qanday nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lganligini ayting va javobingizni izohlang.
3. Buyuk ipak yo‘li orqali Xorazm qo‘shni davlatlarga qanday mahsulotlarni yetkazib bergan? Fikr bildirishdan avval sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq va haykaltaroshlik sohalarining rivoji natijasida qanday qo‘shimcha sohalarga ehtiyoj sezilishini o‘ylab ko‘ring.

Bilasizmi?

Mudofaa jihatidan poytaxt (Tuproqqal'a) nihoyatda mustahkam qilib qurilgan bo'lib, shahar devorining o'rtasida darvozaxona bo'lgan. Darvoza qarshisida shahar markazidan kesib o'tkazilgan ko'chaning har ikki tomonlari bo'ylab shaharliklarning turar joylari joylashgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi joylashgan bo'lib, uning burchak qismida esa balandligi 25 metr bo'lgan ko'p minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Qasr imoratlari — ikki qavatli shoh saroyi va koshona turar joylarining devor tokchalari turli mazmundagi rangdor tasvirlar, bo'rtma ganchkor naqshlar hamda haykallar bilan bezatilgan.

Xorazm poytaxti hisoblangan shaharning umumiy maydoni 25 gektarni tashkil etgan. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlar, istehkomli qishloqlar juda ko'p bo'lgan.

Zaiflashib borayotgan Qang' davlati tarkibidan dastlab Xorazm ajralib chiqdi. Uni mahalliy Afrig'iylar sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qilishgan.

Milodiy 305-yilda xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahriga ko'chirdi. Kat qayta tiklanib, uning yonida joylashgan Alfir qasri ichida shoh o'ziga yangi saroy qurdirdi. Xuddi shu paytdan boshlab Xorazmning Afrig'iy podshohlari oldi tomoniga shoh, orqa tomoniga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib olganlar.

Abu Rayhon Beruniy

Xorazm davlatining poytaxti dastlab Qoraqalpog'istonning hozirgi Ellikqal'a tumanida joylashgan qadimgi Tuproqqal'a shahar xarobasining o'rnida bo'lgan.

Afrig'iy podshohi Shovshafar tangasi

Afrig'iylar – Xorazmda III-X asrlarda hukmronlik qilgan xorazmshohlar sulolasi. Sulola asoschisi – Afrig'. **Burgut va lochin** Xorazmning hukmronlik ramzlari bo'lgan.

Xorazmda VIII asrgacha zardushtiylik dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Zardushtiylik ibodatxonalarida ruhoniylar – mobadlar (diniy marosimlarni bajaruvchilar) diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olganlar.

Bu ham o'ziga xos ta'lim-tarbiya jarayoni edi. Mobadlar tarbiyalanuvchilarga zardushtiylikning o'git-pandlari, ma'rifati hamda tarbiyasi hayotning eng muhim tayanchi ekanligini uqtirishgan. Ta'lim maskanlarida bolalarga, asosan, o'qish, yozish va jang san'atidan saboq berilgan. Shuningdek, ularga faqat rost so'zlashlari zarurligi uqtirilgan. Yolg'on gapirish katta jinoyat hisoblangan.

Ijodiy faoliyat

6-sinfda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering:

1. Zardushtiylik qachon paydo bo'lgan? Zardushtiylik bilan bog'liq qaysi an'analar yodingizda qolgan?
2. Fikrni davom ettiring: *Bolalarga ... fikr, ezgu ..., ... amal tamoyillari o'rgatilgan.*

Mulohaza uchun

Xubbi haqida afsona

Xorazmda Amudaryo bilan bog‘liq ko‘plab afsonalar uchraydi. Ulardan biri suv ilohi Xubbi haqida. Afsonaga ko‘ra, Xubbi baliqni bir qo‘li bilan tutib quyoshga uzatar va uni quyosh shulasida qovurib yer ekan. Xubbi suvga cho‘kkanlarni qutqargan. So‘yilgan ho‘kizlarga jon bag‘ishlagan.

Jamshid ismli hukmdor taxtga o‘tirgan vaqtda Xubbi dom-daraksiz g‘oyib bo‘ladi. Uni dengiz malikasi o‘g‘irlab ketgan. Xubbining onasi esa o‘g‘lini Amudaryodan yig‘lab qidirgan. Xubbining onasi o‘z xalqini daryoda urishishga o‘rgatadi. Shundan buyon Xorazmda qayiqlarning burnida shu ayolning haykali o‘rnatilgan.

Xorazm diniy qarashlarida suv muqaddas hisoblangan, Xubbi esa suvning saqlovchisi sifatida qadrlangan. Bu an’ana Xorazmda islom dini kirib kelgunga qadar amalda bo‘lgan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. «IV–VII asrlarda Xorazm» mavzusidagi bilimlaringizni infografika holatiga keltiring.
2. Nima uchun IV–VII asrlarda Xorazm o‘zining siyosiy mustaqilligini saqlab qolishga erishdi?
3. Shu davrda bolalarga berilgan ta’lim va tarbiyaning bugungi kundagi fanlarga o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlang.
4. Qadimgi dunyo xalqlari afsonalaridagi Xubbi obrazi singari suv bilan bog‘liq afsonaviy qahramonlarni bilasizmi? Ularning davlati va nomini jadval ko‘rinishiga keltiring.
5. Nima uchun poytaxt mudofaa jihatidan nihoyatda mustahkam qilib qurilishiga zarurat yuzaga kelgan?

5-mavzu:

IV–V ASRLARDA XIONIYLAR VA KIDARIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Qadimgi dunyo tarixida siz massagetlar, sug'dlar, saklar hamda Ahamoniy, Yunon-Baqtriya, Kushonlar tarixini o'rganganingiz. Bu davlatlarni xronologik ketma-ketlikda eslang.
2. Mamlakatimiz hududidagi qadimiy xalqlarning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan? Ular asosan qaysi hududlarda yashaganlar?

Xioniylar otliq askari

Mulohaza uchun

IV asrda turkiy qabilalardan *xioniylar* dastlab Zarafshon vohasini egallashgan, janub tomonga yurib, Kushon podsholigi hududida hukmronlik qilishgan. Ular markazi Toxariston bo'lgan Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Xurosonning bir qismini ham o'z ichiga olgan katta davlat tuzishgan. Tarixda xioniylar nomi bilan mashhur bo'lgan qabilalarning asli vatanini ayrim tadqiqotchilar Orol dengizi bo'yida deb hisoblaydilar. G'arb tarixchilari esa, xioniylarni xunnlarga qarindosh hisoblab, ularni *«oq xunnlar»* deb atay-dilar. Ular bu hududda 120 yildan ortiq hukmronlik qilishgan.

V asrning 20-yillarida sharqdan Sirdaryo va Orol bo‘ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko‘chmanchi chorvador aholi – *toxarlar* kirib kelgan. Toxariylar kushonlarning avlodlari bo‘lgan. Ularga *Kidar* ismli hukmdor boshchilik qilganligi uchun ularni *kidariylar* deb ham atashadi. Tez orada kidariylar Xioniylar davlatining janubiy qismida o‘z hukmronligini o‘rnatganlar. Balx shahri bu yangi davlatning poytaxtiga aylantirilgan.

Manbalarda aytilishicha, kidariylar dastlab Sharqiy Turkiston hududida yashaganlar. Yuechjilar (kushonlar) hukmdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o‘z qarorgohini Bolo (Balx)ga ko‘chirgan. Kidar esa, Shimoliy Hindistonga yurish qilib, Gandhardan shimoldagi 5 ta davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan.

Kidariylar Hindistonda Gupta davlatini egallab, bu yerda 75 yil hukmronlik qilgan va Xitoyga elchilar yuborgan.

Kidariylar askari

Tarixchi K. Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o‘zining kuchaygan pallasiga kiradi. Turonda kidariylar va eftaliylar hukmronligi o‘rnatilgach, xioniylarning siyosiy ahvoli o‘zgaradi va ular eftaliylarga tobe bo‘lib qoladi.

Afsuski, xioniylar va kidariylarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Kidariylarning janubdagi Eron sosoniylari bilan munosabati yomonlashib borgan. 456-yilda kidariylar va sosoniylar o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lib o‘tadi. Bu to‘qnashuvda kidariylar sosoniylardan yengiladi.

Keyinchalik kidariylar ham ko‘chmanchi chorvador aholi – *eftaliylar* bilan to‘qnashadilar. Natijada, ular Shimoliy Hindistonga chekinadilar.

Kidariylarning tangalari braxmiy yozuvida zarb etilgan. Ularga tegishli «Kidara Kushon sha» degan yozuv bitilgan tangalar ham topilgan. Bunday tangalar ikkita hokim tomonidan bir vaqtning o‘zida zarb etilgan.

Kidariylar tangalari

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Agar siz III-IV asrlarga tushib qolsangiz, qal‘ani qurish va uni dushmanlardan himoya qilish uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz? Davr sharoitidan kelib chiqib javob bering.
2. Xioniylar va Kidariylar davlatlari hududini xaritadan ko‘rsating.

6-7-mavzular:

EFTALIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. IV–V asrlarda Turon hududida qaysi xalqlar yashagan?
2. Ularning umumiy va farqli jihatlarini sanashga harakat qiling.

Mulohaza uchun

V–VI asrlarda *Eftalon sulolasi*ga mansub qabila Turon hududida hukmronlik qilgan. Manbalarda *eftaliylar, eftallar, eftalitlar, xaytallar* kabi turli nomlar bilan atalgan *eftaliylar* qabilalari ittifoqiga asos solgan. Bu nom aslida «Eftalon» degan shoh ismidan olingan. Uni *Vaxshunvar* deb ham ataganlar.

Shu davrda Xorazm, Sug‘diyona, Choch va Baqtriya viloyatlarida hashamatli binolari bo‘lgan alohida-alohida qo‘rg‘onlar yuzaga kelgan.

Eftaliylar davlatiga birlashgan aholining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Iqtisodiy-savdo munosabatlarining izchil yo‘lga qo‘yilishi mamlakatda dehqonchilik, sun’iy sug‘orish, chorvachilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik kabilarning ravnaq topishiga asos bo‘lgan.

Ijodiy faoliyat

Eftaliylar hukmronligi davrida nimaning hisobiga dehqonchilik, sun’iy sug‘orish, chorvachilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik ravnaq topdi?

Eftaliylar hukmdori tasvirlangan koshin (freska) parchasi

Ijodiy faoliyat

1. Mustaqil davlatni idora qilish uchun yana qanday omillar zarur bo'ladi?
2. «Eftaliylar davlat boshqaruvida ma'lum qonun-qoidalar mavjud bo'lgan. Davlat harbiy kuchga tayangan», – degan mulohazani tushuntiring. Harbiy boshqaruvni ta'minlash uchun qanday tartiblar joriy etiladi?

V asrda sosoniylar va eftaliylar o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarda eftaliylar qo'shinining ustun kelishi ular harbiy mahoratining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Vaxshunvor va Peruz davri voqealari ham o'z aksini topgan. Eftaliylarning podshosi Katulf «Shohnoma»da ko'rsatilgan shu xalqning Gatfar ismli podshohiga o'xshatilgan.

Mulohaza uchun

Eftaliylar V asr boshlarida mamlakatimiz hududiga Sharqdan kirib kelganlar. Eftaliylar davlatining dastlabki poytaxti Buxoro yaqinidagi *Poykent* va *Varaxsha* shaharlari bo'lgan. Bu davlatga O'rta Osiyodan tashqari, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va hozirgi Pokiston hududlari ham kirgan.

Eftaliylar davrida saltanat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan. Taxt avloddan avlodga o'tmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Nomzodni aniqlab, taqdim etadigan kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo'tabar kishilari hamda saltanatning obro'li a'yonlaridan tarkib topgan. Viloyatlarda boshqaruv mahalliy xonadonlar (sulolalar) tomonidan olib borilgan. Mazkur mulklar hukmdor – Sho (shoh)ga tobe sulolalar tomonidan boshqarilgan. Hatto ularning har biri o'zining kumush yoki mis tangalarini zarb etgan.

Eftaliylar davlat boshqaruvida ma'lum qonun-qoidalar mavjud bo'lgan. Davlat harbiy kuchga tayangan. Eftaliylarning tobora kuchayib borayotganidan xavfsiragan Erondagi sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Sosoniylar shohi Pero'zning 484- yilda eftaliylarga qarshi urushi uning halokati bilan tugaydi.

Mulohaza uchun

Tashqi savdo bojidan manfaatdor bo‘lgan eftaliylar Ipak yo‘lini o‘z nazoratlari ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan xalqaro savdoda faol qatnashgan. Ipak yo‘li savdosida sosoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan sug‘diylar vositachi rolini o‘ynardi. Ichki va tashqi savdo munosabatlarida eftaliylar dastavval sosoniy hukmdorlarining kumush tangalaridan keng foydalanadilar. Bundan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar tomonidan chiqarilgan chaqa tangalar mamlakatning ichki savdosida keng muomalada bo‘lgan.

Bu davrda Turonda shishasozlik rivojlangan. Shishalar rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o‘z saroylarini bezashda Turondan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar.

Ijodiy faoliyat

1. Nima sababdan eftaliylar hukmronligining dastlabki yillarida sosoniylar tangalaridan foydalanishgan?
2. Xitoy imperatorlari o‘z saroylarini bezashda Turondan keltirilgan rangli shishadan foydalangan. Nima uchun Xitoyda va boshqa o‘lkalarda bunday shishalarga xaridor ko‘p bo‘lgan, deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslang.

Ma’lumot uchun

Turon aholisining bir qismi sug‘d tilida, ikkinchi qismi esa turkiy tilda so‘zlashgan. Bu davrda sug‘d tili xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv, Farg‘ona, Sharqiy Turkiston va Xitoy hududlarida muomalada bo‘lgan.

Eftaliylar alifbosi Baqtriya yozuvi asosida shakllangan. Mazkur alifbo 25 harfdan iborat bo‘lgan.

Eftaliylar davrida ham bolalarga yoshligidan ta’lim va tarbiya berilgan. Ayniqsa, harbiy soha bilan faqat o‘smir o‘g‘il bolalargina shug‘ullanmagan. Qizlar ham otda yurishga, kamondan o‘q otish kabi jismoniy mashqlarga jalb qilingan.



Ma'lumot uchun

Eftaliylar, asosan, zardushtiylikka e'tiqod qilishgan. Shuningdek, davlatda tangrichilik, buddaviylik, moniylik, mazdakiylik e'tiqodlari ham tarqalgan. Shaharlarda nestorianlar va yahudiylar jamoalari ham bo'lgan.

Turon aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib, IV–V asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylangan.

Eftaliylar ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach, obod dehqonchilik vohalari, rivojlangan shahar va qishloqlarni bog'lab turuvchi savdo yo'llariga ega bo'ldilar.

Vaqt o'tishi bilan eftaliylar mahalliy aholi bilan aralashib ketadilar. Eftaliylar davlatida shaharlar juda ko'p bo'lgan. Shu boisdan 568-569-yillarda Vizantiya imperatori huzurida bo'lgan turk elchisi imperatorning: «Eftaliylar shaharlarda yashaydilarmi yoki qishloqlardami?» – degan savoliga: «Ular shaharlik sulolalar, oliy hazratlari», – deb javob bergan.

V asrda **Panjikentda** nisbatan qadimiyroq bo'lgan qishloq o'rniga umumiy maydoni 18 gektar bo'lgan yangi shahar barpo etiladi. Bu shahar keyinchalik mustahkam mudofaa istehkomlariga, ibodatxona, saroy va turli ijtimoiy qatlam vakillariga tegishli bo'lgan turar joylarga ega edi.

Sug'd shaharlaridan yana biri **Poykand** edi. Qadimgi davrda asos solingan ushbu ko'hna shahar o'rta asrlar davriga kelib kengayib boradi va uch qismli yirik markazga aylanadi. Poykand qazishmalarida o'rta asrlarga oid ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topilgan.

Poykand bu davrda arab manbalarida ta'riflanganidek, «Madina at-tujjor» – «Savdogarlar shahri» bo'lgan.

Ijodiy faoliyat

Eftaliylar davrida mavjud bo'lgan diniy e'tiqodlarning bugungi kunda qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga ta'siri seziladimi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

Eftaliylar davridagi amaldorlar muhri

Eftaliylar otliq askari

Ma'lumot uchun

IV–V asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik markazlardan (ehtimol, poytaxt shaharlardan) biri Buxoro edi. To'g'ri to'rtburchak shakldagi ushbu shaharning asosi 21 gektar bo'lib, bu yerda mustahkam himoya inshootlari, hukmdor saroyi, mafkuraviy inshootlar, turar joylar qad rostlagan.

Buxoro IV asrdan boshlab Turonning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo'lgan. Shuningdek, bu davrda shaharning yettita darvozasi bo'lib, mazkur holat uning muhim savdo-tranzit yo'li ustida joylashganligidan dalolat beradi.

Bu davrda **Termiz** va uning atroflarida ham shaharsozlik madaniyatining jadallik bilan rivojlanganligini kuzatish mumkin. Termiz atrofidagi Zartepa shahri ana shunday shaharlardan biridir. Qadimgi davrda kichik manzilgoh sifatida paydo bo'lgan Zartepa IV–V asrlarga kelib maydoni 17 gektar bo'lgan yirik shaharga aylandi.

Qal'a, qo'rg'on va istehkomlar ilk o'rta asrlar davrining o'ziga xos me'morchilik namunalaridan bo'lib, Naxshab vohasidagi Zahoki Maron, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal'asi shular jumlasidandir.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda Yevropa davlatlarining rivojlanishi qay darajada edi?
2. Nima deb o'ylaysiz, suv inshootlarining qurilishi davlatning rivojlanishi uchun qay darajada muhim?
3. Jamoalarga bo'linib, Zog'ariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallarining bugungi ko'rinishi va holati bo'yicha internet manbalaridan ma'lumotlar to'plang va taqdimot tayyorlang.



Mulohaza uchun

Buxoro Sug‘dida o‘ng tomonida hukmdor tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan. Samarqand Sug‘dida V-VI asrlarda orqa tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar chiqarilgan. Naxshab (Qarshi) vohasida o‘ng tomonida podsho bosh qismi tasviri tushirilgan mahalliy kumush va mis tangalar muomalada bo‘lgan. Xorazmda esa, old tomonida hukmdor boshi, orqa tomonida otliq chavandoz tasviri tushirilgan kumush va mis tangalar zarb etilgan.

Hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog‘iston yerlarining bir qismini suv bilan ta’minlab turgan Zog‘ariq (Zovariq) va Bo‘zsuv, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbayi Darg‘om kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sug‘orish tarmoqlaridan hisoblanadi.

Eftaliylar tangasi

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

Vizantiyalik tarixchi Prokopiy Kesariyskiy shunday yozadi: «Eftaliylar podshosi rimliklar va boshqa podsholardan qolishmaydigan holda aholiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, o‘zlari va qo‘shnilari bilan bo‘lgan munosabatlarda adolat mezonlariga amal qiladi». Yuqoridagi matn va qadimgi Rim tarixi mavzusidan olgan bilimlaringizga tayanib, eftaliy hukmdorlarning boshqaruviga baho bering.

8-9-mavzular:

TURK XOQONLIGI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. VI asrgacha hududimizda qanday xalqlar va davlatlar mavjud edi?
2. Turk xoqonligi haqida nimalarni bilasiz?
3. «Turk» so'zining mazmunini bilasizmi?

Bumin xoqon

Mulohaza uchun

VI asr o'rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga *Turk xoqonligi* nomi bilan kirgan. Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'ysundirilib, *Oltoy* xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Uning asoschisi *Bumin* edi. Unga *«Yabg'u xoqon»* degan unvon beriladi.

Bu davrda Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lka Turk xoqonligining hududlari bo'lgan. Xoqonlikning eftaliylar qo'l ostidagi hududlarga harbiy tahdidi kuchaydi. Eftaliylar davlatning shimoliy hududlarini mudofaa qilish bilan band bo'lgan bir paytda sosoniylar janubiy o'lkalar – Toxariston va Chag'oniyonni ulardan tortib oladilar.

Janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan zarbaga uchragan Eftaliylar davlati parchalanib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning o'ng sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Ijodiy faoliyat

Eftaliylarning tarix sahnasidan chiqib ketishi hamda bu hududda Turk xoqonligining qaror topishiga qanday omillar sabab bo'lgan, deb o'ylaysiz?

Turk, turkiylar – eng qadimiy va yirik etnoslardan birining nomi. *Turk* so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi.

Mulohaza uchun

Katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqi markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka intilgan. Turk xoqonligi tasarrufida bo‘lgan hududlardagi hokimlar mustaqil bo‘lishni istar edilar. Bu omillar xoqonlikning mustahkam markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermagan.

Bo‘ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi xoqonlikni tobora zaiflashtirgan. Buning ustiga, Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat xoqonlik ahvolini yanada og‘irlashtirgan. Oqibatda, Turk xoqonligi VI asrning 80-yillari oxirlarida ikkiga: Sharqiy turk xoqonligi va G‘arbiy turk xoqonligiga bo‘linib ketadi.

Xoqonlik o‘z davlat mafkurasiga ko‘ra, «el» deb atalib, qadimgi tarixda u bilan bog‘liq «mangu el», «Tangri (ilohiy) el», «turk eli» kabi iboralar shakllangan. El va xoqon hokimiyatining Tangri tomonidan Ashina xonadoniga «Turk budun (xalqi)»ga in’om qilinganiga ishonilgan. Qadimgi turk jamiyati xoqon Bumin mansub bo‘lgan Ashina xonadoni vakillariga hukmdor sifatida qaraganlar. Chunki turkiylar orasida bunday siyosiy iqtidor (ne’mat) Tangri tomonidan faqat Ashina xonadoniga in’om etilgan, degan tasavvur hukmron edi. Shu bois, Ashina xonadoni hokimiyati ilohiylashtirilgan. Agar Tangri bergan siyosiy hokimiyat ishonchni oqlamasa, ya’ni o‘z iqtidorini ko‘rsata olmasa, unday hukmdor hokimiyatdan uzoqlashtirilib, «Tangri bergan siyosiy hokimiyat yana Tangri tomonidan qaytarib olinadi», deb tushunilgan.

Turk xoqonligi sosoniylar hukmdori Xusrav I Anushervon bilan eftaliylarga qarshi o‘zaro harbiy ittifoq tuzdi. Bu ittifoq Eron shohining Turk xoqoni Istamiga kuyov bo‘lishi orqali mustahkamlandi.

Oltoy xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Turklarning g‘arbga tomon yurishlariga Istami boshchilik qiladi. Unga «Yabg‘u xoqon» degan unvon beriladi.

Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo havzalari hamda ularga tutashgan hudud – G‘arbiy xoqonlik, Janubiy Sibir, Urxun havzasi (Mo‘g‘uliston), Shimoliy Xitoy Sharqiy xoqonlik tasarrufida bo‘lgan.

Turk xoqonligi xaritasi





Turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar ittifoqi xoqonlik asosini tashkil etar edi. Bu ittifoqni xoqon boshqargan.

O'n ming suvoriyga ega bo'lgan tuman boshi «shod» deb yuritilgan. O'n o'q el sardori bir tuman (ya'ni, o'n ming) suvoriyga ega bo'lgan.

Ko'chmanchi chorvador aholi «budun» yoki «qora budun» nomlari bilan yuritilgan.

Hokimiyat urug'-aymoqchilik udum-lariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan.
Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qon-qarindosh bo'l-ganlargina ko'tarilgan.
TURK XOQONLIGI
TIBET
SUY IMPERIYASI
Xoqonlik eng kuchaygan davrda Oxota dengizidan Qrim yarimoroligacha, Sibirdan Hin-distongacha hududni egallagan.
O'n o'q budun yoki elning hokimi «yabg'u» yoki «jabg'u» nomi bilan atalardi.

Ijodiy faoliyat

1. Bu ko'rinishdagi boshqaruvning bugungi kundagi boshqaruvga o'xshash tomonlari bormi?
2. Qanday sabablarga ko'ra hukmdor hokimiyatdan uzoqlashtirilgan?

Mulohaza uchun

Turk xoqonligida davlat faqat urf-odatlar bilan emas, balki yozma qonunchilik hujjatlari bilan ham boshqarilgan. Shu davrda Samarqandda «Turk qonunnomasi» amalda bo'lib, u ibodatxonada saqlangan. Jazo berish vaqtida qonunnomadan foydalanilgan. Qadimgi Sug'dda ham oldi-sotdi, nikohni qayd etishga oid shartnomalar guvohlar o'rtasida yozma shaklda tuzilib, muhr bilan tasdiqlangan.

Ijodiy faoliyat

1. Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizdan foydalanib ayting-chi, bu davrda Yevropa va Sharq davlatlari hamda xalqlarida davlatni boshqarishga oid hujjatlar yoki qonunlar mavjud edimi?
2. Ularning Turk xoqonligi qonunchiligi bilan o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilib bera olasizmi?

Farg'ona vodiysidagi Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan buddaning haykallari topilib, o'rganildi. Ajinatepa buddasi haykalining bo'yi 12 metrga boradi. Hozirgi kunda u Dushanbe shahridagi Milliy arxeologiya muzeyida saqlanadi.

Bu davrga oid Urxun-Yenisey yodgorliklari bitiklarida Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi, yaratuvchi, o'ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi, marhamatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi kabi sifatlar bilan maqtalgan.

Ezgu amal, ezgu fikr, ezgu so'z

Olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi – yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iborat, deb hisoblangan. Ibodat, ro'za, sadaqa moniy dinining arkoni hisoblangan.

Bu din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimgi turklarda «shomon» so'zi bo'lmagani sababli o'z dinini «qam» deb yuritganlar.

Turkiylarda qadimda bo'ri ilohiylashtirilgan va ko'plab nishonlarida bo'ri tasviri mavjud bo'lgan.

Ijodiy faoliyat

1. Ikki jamoaga bo'linib, Turk xoqonligi va eftaliylar davrida aholi e'tiqod qilgan dinlarni solishtiring va ularning umumiy jihatlarini aytib bering.
2. Jamoangiz bilan diniy e'tiqodlarning g'oyasi va mohiyatini ochib berishga harakat qiling.
3. Bugungi kunda xalqimizning turmush tarzi, urf-odat va an'analarida ajdodlarimiz e'tiqod qilib kelgan bu dinlarning ta'siri seziladimi? Fikringizni asoslang.
4. Odamlar orasida bo'ri totemi bilan bog'liq qanday urf-odatlar saqlanib qolgan?

Tangrichilik ta'limotiga ko'ra, Tangri – bu moviy Osmon, buyuk Osmon sohibi. Uning doimiy makoni osmondir. Shu sabab ko'k rang ilohiy buyuklik ramzi hisoblangan.



Tangrichilikda diniy ramz to'rt tomoni teng bo'lgan salb – «adji» hisoblangan. Shundan kelib chiqib, turkiylar uni peshanalariga qizil rangda chizib yurganlar.

Ma'lumot uchun

Turk xoqonligining mafkuraviy asosi shomonlik – ajdodlarga, Osmonga (Tangri) va yer-suvga sig'inish bo'lgan.

Turkiylar mutlaq o'limga ishonmaganlar. Hayot ma'lum doira ichida butun fazo bo'ylab aylanib yuradi, deb e'tiqod qilganlar. Shundan kelib chiqib, ular insonning jismoniy o'limidan qo'rqmaganlar va bu hayotning tabiiy davom etishi, deb qaraganlar. Ular o'limni bir hayotdan ikkinchi hayotga o'tish, deb ishonganliklari uchun jasad kiyim-kechagi va kundalik zarur bo'ladigan ashyolari bilan birgalikda dafn etilgan.

Turkiylar inson tiriklik chog'ida barcha diniy marosimlarni to'la ado etishi lozim, aks holda, ular yovuz ruhlar qatoridan joy oladi, degan ta'limotga qattiq ishonganlar.

Ijodiy faoliyat

Matnni o'qing: qabrdan topilgan buyumlarga asoslanib, «Qovunchi madaniyati»ning (hozirgi Toshkent viloyati Yangiyo'l shahri hududida) xronologik jihatdan qaysi tarixiy davrga tegishliligini aniqlang.

«Qovunchi davri qabristonlari, asosan, tuproq qo'rg'onlar va ustiga tosh uyilgan yer ostidagi maxsus qabr (katakomba)lardan iborat bo'lib, ularning qabr xonalari (kameralari) ham gumbazli, keng va yer sathidan ancha chuqurlikda joylashgan. Har bir katakomba lahadida bir nechta (oilaviy) chalqanchasiga yotqizilgan skeletlar uchraydi. Skeletlar bosh va oyoq tomonida sopol idishlar, erkaklarning qo'l yaqini va bel qismida temirdan ishlangan harbiy va mehnat qurollari, orqa tomonda esa uch parrakli va bigizsimon quyma asosli temir paykonlar mavjud. Ayol skeletlarining oyoq-qo'l suyaklarida, ko'krak qafasi bo'shlig'ida turli xil tosh va metall taqinchoqlar uchraydi.

Qadimiy turkiylar jang maydonida qahramonlik qilgan ajdodlar ruhiga alohida e'tibor qaratganlar. Ajdodlar ruhiga sig'inish, turkiylarda o'zidan oldingi yetti ota-bobosi faoliyatini yaxshi bilish an'anasini shakllantirgan».

Ahmadali Asqarov, «O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi»

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Turk xoqonligi qaysi davlatlar bilan chegaradosh bo‘lgan?
2. Berilgan rasmlarga qarab, turk xoqonligida qaysi kasblar va hunarmandchilik turlari rivojlanganligi haqida ma’lumot bering. Bildirgan fikringizni boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib asoslang.





10–11-mavzular:

G‘ARBIY TURK XOQONLIGI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Turk xoqonligining ikkiga bo‘linib ketishi sabablarini ayting. Sizningcha, bo‘linishning oldini olish mumkin bo‘lganmi?
2. Davlat va jamiyatning bo‘linishi qanday oqibatlarga olib keladi, deb o‘ylaysiz?
3. Yurtimiz hududi qaysi Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan edi?

Mulohaza uchun

G‘arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan Sharqiy xoqonlikdan mutlaqo ajralib turardi. G‘arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o‘troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul edi.

VII asrning birinchi choragiga kelib G‘arbiy xoqonlik taraqqiy etadi. Xoqon To‘n yabg‘u hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. Viloyat hokimlarini xoqonlik ma’muriyati bilan bevosita bog‘lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning «yabg‘u» unvoni beriladi.

Shahar aholisi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan. Kulolchilik, to‘qimachilik, sarrojlik, misgarlik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik taraqqiy etgan. Hunarmandlar yasagan zeb-ziynatlar va qurol-yarog‘lar xilma-xilligi va nihoyatda puxtaligi bilan ajralib turgan.

Xitoy manbalari, garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo‘lmasa ham, lekin ularning har birida ajratib berilgan yer borligi haqida ma’lumot beradi. Aynan mana shunday «ajratib berilgan yer»larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar imkoniyatidan foydalanib, asosan, donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog‘-rog‘larga alohida ahamiyat berganlar. Manba tili bilan aytganda, «(mevali) daraxtlar savlat to‘kib turgan».

Mulohaza uchun

Xoqonlikda qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarish, soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish uchun maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan.

Xoqon o‘z noiblari – tudunlar yordamida mustaqil hokimliklar ustidan nazoratni kuchaytirgan.

Xoqonlik o‘z ehtiyoji va hayotiy zaruratidan kelib chiqib, quyidagi islohotlarni amalga oshirgan:

- «o‘nlik» tizimni yaratish,
- vassal hokimliklar hududida o‘z qarorgohlarini barpo etish;
- davlat boshqaruvini takomillashtirish va boshqalar.

Mulohaza uchun

G‘arbiy Turk xoqonligining Suyab (Oq Bishim), Beshbaliq (Turfan), Ek-tog‘ (Sharqiy Turkiston) kabi shaharlari xoqonlikda qarorgoh vazifasini bajargan.

Davlat boshqaruvida xoqonlikning barcha bog‘inlarida lavozim egalari harbiy unvonga ega bo‘lishi shart hisoblangan.

Xoqonlikning markaziy boshqaruv tizimi asosan davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshqalar bilan mashg‘ul bo‘lib, zabt etilgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma’lum darajada erkinlik bergan. Shuning uchun ham Farg‘ona, Sug‘d, Choch, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Misol uchun, Sug‘d va Farg‘onada oliy hukmdor – «ixshid», Toxaristonda – «malikshoh», Xorazmda – «xorazmshoh», Keshda – «ixrid», Buxoroda – «xudot», Ustrushonada – «afshin», Chochda – «tudun» deb atalgan. Markaziy hokimiyatga faqat boj to‘lab turish bilan ular o‘z mustaqilliklarini ma’lum darajada saqlab qoladilar.

Sug‘d va Farg‘ona	Toxariston	Xorazm	Kesh	Buxoro	Ustru-shona	Choch
ixshid	malikshoh	xorazm-shoh	ixrid	xudot	afshin	tudun

Hukmdorlar qayerda qanday atalgan?

Turk xoqonligi davrida Sug‘d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Sug‘dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtlarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma’lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turganlar. Farg‘ona Sug‘d siyosiy ittifoqiga kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi.

Turk xoqonligi tarkibidagi turli xalqlarning yashash tarzi ham turlicha edi. Ko‘chmanchi chorvador turklarda jamoatchilik an’analari kuchli bo‘lgan. Ko‘chmanchilarning asosiy mashg‘uloti chorvachilik edi. Shahar aholisi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Hatto hunarmandchilik mahsulotlarini yasash uchun Farg‘ona va Sug‘dda oltin, temir, mis, Iloqda qo‘rg‘oshin, kumush va oltin, Shahrisabzda tosh va tuz qazib olinardi. Savdogarlar orasida Sug‘d savdogarlarining mavqeyi baland bo‘lgan. VII asrning birinchi yarmida G‘arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o‘rtasida, ayniqsa, iqtisodiy aloqalar faollashdi. Bu davrda Xitoyga to‘qqiz marotaba savdo elchiligi yuboriladi. Bir yilning o‘zida Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushona (Jizzax va O‘ratepa viloyatlari)dan birlashgan juda katta savdo karvoni Xitoyga yetib boradi.

Ijodiy faoliyat

1. Savdo-sotiq bilan shug‘ullanish uchun qanday bilimlar kerak bo‘ladi?
2. Matnda: «Kulolchilik, to‘qimachilik, sarrojlik, misgarlik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik taraqqiy etgan», – deyilgan. Hunarmandchilikning ushbu sohalari taraqqiy etishi uchun qanday ko‘nikmalar kerak bo‘ladi?
3. Mamlakatimizda bugungi kunda qanday mevalar yetishtiriladi? Qanday donli ekinlarni bilasiz?
4. Berilgan rasmlar asosida xoqonlikda odamlarning mashg‘ulotlari haqida hikoya tuzing. Rasmlardagi har bir detalga e’tibor qarating. Bugungi kunda o‘sha davr odamlari shug‘ullangan qaysi kasblar davom etmoqda va qaysilari yanada takomillashgan?

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma’naviy madaniyatning yangidan yangi betakror namunalari yaratildi. Turli olimlar, mutaxassislar bahsiga sabab bo‘lgan Turk-runiy, Urxun-Yenisey yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatining qadimiyligi va rang-barangligidan guvohlik beradi.

Turon zaminida turkiy yozuv bilan bir qatorda Sug‘d va Xorazm yozuvlari ham keng qo‘llanilgan. Sug‘d yozuvi chapdan o‘ngga qarab yozilgan. Shaharlarda so‘g‘d-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo‘lganligi haqida Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» (XI asr) asarida ham qayd etib o‘tilgan. Bu yozuvlarda ulug‘ ajdodlarimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati bilan birga Navro‘z bayramiga oid ma’lumotlar ham aks etgan.

Bugungi kunda milliy bayramimiz bo‘lgan Navro‘z ham o‘sha davrlarda keng nishonlangan.

Ijodiy faoliyat

Bugungi kunda Navro‘z bayramida biz qanday milliy o‘yinlarni tashkillashtiramiz?

Ma'lumot uchun

Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoda dehqonlar tomonidan yerlarni egallash jarayoni tobora avj olib, zulm kuchayadi. O'z yer mulkidan ajralgan kashovarzlar mulkdor dehqonlar asoratiga tushib, qaram kadivarlarga aylanadi. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlar asoratiga qarshi aholi bosh ko'tarishga majbur bo'ladi. Shunday xalq qo'zg'olonlaridan biri Buxoroda yuz beradi. Qo'zg'olonga xoqon xonadoniga mansub Abruy boshchilik qiladi. Qo'zg'olondan vahimaga tushgan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, Turkiston va Taroz atrofiga borib o'rnashadilar. Ular turk xoqoniga murojaat qilib, qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so'raganlar. Turk xoqoni Qoracho'rin o'g'li Sheri Kishvar (El Arslon) boshliq qo'shin yuboradi. Abruy o'ldirilib, qo'zg'olon bostiriladi. Kadivar va xizmatkorlar o'z xo'jayinlari – dehqonlarga qaytariladi.

Manbalarda

Dehqonlar va boylar bu viloyatdan qochdilar hamda Turkiston va Taroz (yaqinida) bir shahar bino qiladilar, chunki Buxorodan qochib ketgan toifaning raisi bo'lmish bir katta dehqonning nomi Hamuk edi. «Hamuk» deb, Buxoro tilida gavharga aytiladi, «ket» esa – shahar, ya'ni Hamuket «Hamuk – gavharning shahari» demakdir. Buxoro tilida katta odamni «hamuk», ya'ni falonchi gavhar deydilar.

So'ngra Buxoroda qolgan kishilar o'zlarining (qochib ketgan) sarkardalariga odam yuborib, Abruyning jabr-zulmidan qutqarishni so'radilar. Shunda sarkardalar va dehqonlar turklar podshohining oldiga bordilar – u podshohning nomi Qarojurin turk bo'lib, ulug'ligi sababli unga Biyog'u deb laqab bergan edilar – va Biyog'udan arz-dodlariga yetishni iltimos qildilar. Biyog'u Sheri kishvar ismli o'z o'g'lini ko'p lashkar bilan yubordi. Sheri kishvar Buxoroga kelgach, Baykandda Abruyni tutib bandi qildi...

Sheri kishvarga bu viloyat yoqib qolib, otasiga xat yubordi va undan bu viloyatni talab qilib, Buxoroda turishi uchun ruxsat berishini iltimos qildi. Biyog'udan: «U viloyatni senga bag'ishladim», – degan javob kelgach, Sheri kishvar Hamuketga odam yuborib, Buxorodan qochib ketgan kishilarni xotin va bola-chaqalari bilan Buxoroga oldirib keldi... Sheri kishvar Buxoro shahristonini qurdi. U yigirma yil podshoh bo'lib turdi. Undan keyin bo'lgan boshqa podshoh Iskajkat, Sharg' va Romtin qishloqlarini bino qildi, so'ngra Faraxshiy (Varaxsha) qishlog'iga asos soldi.

Abu Bakr Narshaxiyning
«Buxoro tarixi» kitobidan

Abruy qo'zg'oloni, rassom V. S. Kaydalov

Mulohaza uchun

Yana shu narsa diqqatga sazovorki, o‘sha davrlarda ajdodlarimiz o‘z avlodlari to‘g‘risida ham muttasil qayg‘urganlar. Shu boisdan bola 5 yoshga to‘lishi bilan uni bilim olishga yo‘llab, dastavval, xat-savod va hisob-kitobni o‘rganishga jalb etganlar. Bolalar balog‘at yoshiga yetgach esa ularni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o‘rganish uchun maxsus vakillar homiyligida boshqa davlatlarga yuborganlar.

Ijodiy faoliyat

1. Turonga qo‘shni hududlar va Yevropa xalqlarida ta’lim olish jarayoni qanday shakllangan edi?
2. Sug‘dlarda bolalar kaftiga tanga qo‘yib, tiliga asal surtish odati bo‘lgan. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Ma’lumot uchun

Turk xoqonligida ishlab chiqilgan jinoyatchilikka qarshi qonun hujjatlariga amal qilingan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatl etish, odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohaq yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan. O‘g‘rilik yoki buzuqlik qilgan shaxsning qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar uchun yetkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun mol-mulki bilan tovon to‘lashga majbur etilgan.

Ijodiy faoliyat

Qadimgi va o‘rta asrlarda siz bilgan yana qaysi davlatlarda jinoyat va jazo tizimiga oid qonun hujjatlari mavjud edi? Ularning umumiy va farqli jihatlari bormi?

Mulohaza uchun

Shunday qilib, G‘arbiy Turk xoqonligi o‘z davrida keng hududlarga yoyilgan eng yirik davlatlardan biri bo‘lgan. Uning hukmdorlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan munosabatlarda uzoq yillar o‘z ta’sirini o‘tkazganlar. Shu bilan birgalikda, xoqonlik davri moddiy va ma’naviy madaniyati, uning nodir namunalari Turon zamini xalqlarining to‘laqonli turmush tarzini o‘ziga xos yo‘sinda aks ettirib qolmasdan, bobokalonlarimizning yuksak ijodkorligi, izlanuvchanligidan ham dalolat beradi.

G‘arbiy Turk xoqonligi tangasi

Mulohaza uchun

XX asr 60-yillarida Samarqandda avtomobil yo‘li qurilishi jarayonida buldozer yer tekislash ishlarini olib borayotganida yer ostidan bir necha katta rangli devor bo‘laklarini surib chiqaradi.

Ularning nimaligini aniqlash uchun mutaxassislar taklif qilinadi. Mutaxassislar bu topilmalarni ko‘rgan-kechirganlaridan so‘ng qurilish ishlari to‘xtatilib, arxeologik qazishmalar boshlanadi.

Natijada Afrosiyob (Qadimgi Samarqand) shahri xarobalari joyi aniqlandi.

Bir necha xonalar xarobalaridan ba’zilarining devorlarida rangli bo‘yoqlar – tempera (tuxum sarig‘iga rangdor mineral upasi aralashtirib tayyorlanadi) bilan ishlangan devoriy rasmlar topildi.

Bularning ichida, ayniqsa, bir xonadan topilgani ancha yaxshi saqlanib qolgan. Devorlar, supa xom g‘isht va paxsadan bunyod etilgan. Xona to‘rida taxtga o‘xshash o‘rindiq joylashgan bo‘lsa kerak, supaning o‘sha qismi bo‘rtib turganligi aniqlangan.

Xona devorlaridagi rasmlarda shoh a’yonlari, Chag‘oniyon, Toxariston, Sharqiy Turkiston, Choch, Chinu Mochin, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan elchilar, olib kelingan ot-ulov, sovg‘alar va ov sahnasi ifodalangan. Suratlar nihoyatda nafis ishlanib, yuqori did bilan bo‘yalgan.

Ijodiy faoliyat

1. Bugungi kunda Afrosiyob nomi bilan ataladigan qanday joylarni va ma’lumotlarni bilasiz?
2. Samarqand hududi Qadimgi Yunon va Rim manbalarida qanday nomlangan edi?

«Bu ko‘hna shahar dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgani uchun YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan va unda: «Samarqand – madaniyatlar uchrashadigan makon», – degan so‘zlar yozib qo‘yilgan».

Xubert Gizen, YUNESKO bosh direktori o‘rinbosari, 2016-yil.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Turk xoqonligining mavqeyi jahondagi qaysi davlatlarning mavqeyi bilan barobar edi?
2. Bu davrdagi dunyoning boshqa mintaqalaridagi davlatlarning yashash tarzi va davlatchilik tuzumi qanday edi? Guruhingiz bilan **Jahon tarixi** darsidan olgan bilimlaringiz va qo‘shimcha ma’lumotlar asosida taqdimot tayyorlashga harakat qiling. O‘zingizga yoqqan davlat haqida ko‘proq ma’lumot bering.

12-13-mavzular:

MAHALLIY HOKIMLIKLARNING TASHKIL TOPISHI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Turk xoqonligi davrida qaysi hududlar o‘z mustaqilligini saqlab qoldi?
2. Farg‘ona, Sug‘d, Choch, Toxariston, Xorazm hududlarini zamonaviy xaritadan ko‘rsating. Nima sababdan ular o‘z mustaqilliklarini saqlab qolgan?

Mulohaza uchun

V–VII asrlarda Turk xoqonligi bir qancha hokimliklarga bo‘linib, 15 dan ortiq mustaqil hokimliklar tashkil topdi.

Turk xoqonligi dastlabki boshqaruv yillarida mahalliy boshqaruv tizimiga tub o‘zgarishlar kiritmaganini yerli boshqaruvda ko‘plab mahalliy turkiylarning faoliyati bilan ham izohlash mumkin. Biroq Turk xoqonligi ikkiga bo‘lingach, G‘arbiy Turk xoqonligi bu masalaga jiddiy e’tibor berdi.

Bu davrda ma’muriy islohotlar aynan xoqonlik va mahalliy boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratildi. Qolaversa, xoqonlik turkiylarining o‘troq hayoti va o‘ziga xos davlatchilik an’analari eftaliylar davridagidan farqlangan.

Turk xoqonligining mahalliy sulolalar boshqaruvini saqlab qolishdan maqsadi o‘troq o‘lkalarda siyosiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy taraqqiyot rivojini to‘xtatmaslik va harbiy jihatdan ularga ko‘maklashuv bo‘lgan.

Bundan tashqari, mahalliy hukmdorlarning aksariyati Turk xoqonligi hukmdorlari bilan yaqinlashib, qardoshlik aloqalarini o‘rnatgani xoqonlik diplomatiyasining mahoratini oshirgan.

Mulohaza uchun

Toxaristonda 27 ta tog‘ va tog‘oldi viloyatlaridan iborat mustaqil hokimliklar bo‘lgan. Uning poytaxti Balx shahri edi. Hozirgi Janubiy O‘zbekiston va Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘onistonni o‘z ichiga olgan bu tarixiy viloyat shimolda Hisor tog‘lari, janubda Hindikush, g‘arbda Murg‘ob va Xerirud vodiysi, sharqda Pomir bilan chegaralangan.

Toxariston aholisining asosiy qismi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Hunarmandchilikda, ayniqsa, qurolsozlik, shishasozlik, to‘qimachilik yuksalgan. Toxariston Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-madaniy aloqalar o‘rnatgan, o‘z chaqa-tangalari ichki savdo muomalasida yurgan.

Toxaristonga oid qal’a ko‘rinishi

Ijodiy faoliyat

1. Toxariston Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-madaniy aloqalar o‘rnatgan. Hududda qaysi madaniyatlar ta’siri kuchli bo‘lgan, deb o‘ylaysiz?
2. VI–VII asrlarda qaysi viloyat yoki shaharlarda mustaqil hokimliklar boshqalariga nisbatan ko‘p bo‘lgan va buning asosiy sababi nimada?



Qadimgi Varaxsha qasrining zamonaviy rekonstruksiyasi

Mulohaza uchun

Mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi **Sug‘d ixshidlari** – voha hukmdorlari edi. VI–VII asrlarda davlatlar birlashmasi ittifoqida Sug‘d ixshidlari katta siyosiy nufuzga ega bo‘lgan. Zarafshon vodiylarida joylashgan Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo vohasidagi Kesh viloyatining o‘n bitta yirik mulklari birlashgan bo‘lib, ularning har biri o‘z hokimi, harbiy chokarlari va mis puli birligiga ega edi.

Sug‘dda aholi gavjum bo‘lib, sug‘diylar dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishgan. Chorvachilikda Sug‘dning hisori qo‘ylari va tulporlari juda mashhur bo‘lgan. Sug‘d shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylanadi.

Samarqandni poytaxt qilgan Sug‘d Qang‘ davlati tanazzulidan keyin mustaqil davlatga aylangan. Sug‘d Turk xoqonligi va G‘arbiy Turk xoqonligi vassali bo‘lsa-da, o‘zining asriy mahalliy ma’muriy boshqaruvini saqlab, turkiy boshqaruv an’analari bilan boyidi. Turkiy davlat boshqaruvida xoqonning mutlaq hukmronligi Sug‘dda shakllangan azaliy demokratik tamoyillardan farqlanardi. Chjou xonadoni va «o‘n o‘q» sulolasi vakillari Sug‘dda davlatni podsho orqali emas, balki yirik dehqon, sav-

Mulohaza uchun

dogar va shahar amaldorlaridan iborat Oqsoqollar Kengashi oliy organ orqali boshqarganlar. Oqsoqollar Kengashi podsholik — ixshidlik hokimiyatini cheklab qo‘ygan edi. Ixshidlar Oqsoqollar Kengashi oldida hisob berib turgan. Xoqon To‘n yabg‘u (618–630) ma’muriy islohotlari ham an’anaviy mahalliy boshqaruv tamoyillarini deyarli o‘zgartirmadi, aksincha, tudunlar, tarxonlar orqali uni mustahkamladi. Ular o‘z vazifasi doirasida iqtisodiy ahvolni kuzatish, soliqlar yig‘ish, harbiy masalalarni hal etish va xoqonlik bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qildi. Bu siyosiy va iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish garovi bo‘lib qoldi.

Farg‘ona hukmdorlari *ixshid* deb atalgan. Farg‘ona yerlari juda hosildor bo‘lib, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekkan. Koson, Axsikat (Xushkat) va Quva (Qubo) kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, ularning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo‘lgan. Qo‘shni mamlakatlarga bo‘yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Farg‘ona vodiysida o‘troq aholi bilan bir qatorda chorvadorlar ham yashaganlar. Qurama va Qoramozor tog‘lari yonbag‘irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug‘ullanilgan. Bu vodiyda ko‘paytirilgan tulpor otlarning dong‘i jahonga ketgan.

Ijodiy faoliyat

1. Farg‘onaning «samoviy otlari» haqida qo‘shimcha manbalardan ma’lumotlar to‘plab, ularni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
2. Nega «samoviy otlar» deganda doim Farg‘ona otlari yodimizga kelishini guruhlarga bo‘lingan holda asoslab bering. Ularning bugungi kundagi ahamiyatini ochib bering.

Choch (Toshkent vohasi) Chirchiq va Ohangaron havzalaridagi dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvadorlarning hududlari kesishgan mintaqada joylashgan. Choch Ipak yo‘lining shimoli-sharqiy yo‘nalishida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan hudud hisoblangan. Ilgari Chochda o‘troq mahalliy aholining manzilgohlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, VI–VIII asr boshlarida ularning soni nihoyatda oshgan.

Turk xoqonligi davrida esa turkiylar vohada yetakchi kuchga aylandi. Ammo vohaning turkiy hukmdorlari davlat ishlarini olib borishda sug‘diy til va yozuvdan foydalanishgan. VII–VIII asrlarga mansub tangalarini ham sug‘diy yozuv va tilda zarb ettirishgan. Bu fanda *turk-sug‘d namunasidagi tangalar* deb yuritiladi.

Chochda sug‘diy til va yozuv qatorida turkiy til va yozuvning amal qilishi Qanha shahri xarobasidan topilgan sopol idishdagi bitiklarda o‘z aksini topgan. Bu vohaning VI–VIII asrlardagi etnik manzarasini ham aks ettiradi.

Buyuk ipak yo‘li Qang‘ davlati davrida savdo karvonlari orqali ulkan hududdagi mulklar va shaharlarni, jumladan, Sug‘d va Chochni o‘zaro bog‘lagan bo‘lsa, Eftaliylar davrida Chochning Ipak yo‘lidagi muhim strategik ahamiyati kamaymadi. Shu bois, Sosoniylar podshosi Xusrav I ning eftaliylarga qarshi kurashi bayon etilgan manbada Choch Farg‘ona kabi eftaliylarning chegara hududi sifatida keltirilgan. Bu davrda Choch Sug‘d va boshqa mulkliklar kabi o‘z mustaqil ichki va tashqi siyosatini davom ettirgan.

Y. F. Buryakov
«Ilk o‘rta asrlardagi Choch tarixidan»

Chag‘oniyon va Choch elchilari Sug‘d hukmdori Varxuman huzurida. Afrosiyob xarobalaridan topilgan

Chochga sug‘diylarning kirib kelishi mahalliy a’yonlarning o‘troqlashib, zardushtiylikni qabul qilishiga sabab bo‘lgan. Choch ko‘plab diniy konfessiyalar kesishgan mintaqa bo‘lganligi uchun bu yerda mahalliy turklarning tangrichilik, xristianlikning nestorian oqimi, moniylik kabi dinlar ham tarqalgan.

«Choch» arablar tomonidan «Shosh» deb nomlangan. Chunki arab alifbosida «ch» harfi bo‘lmagan.

Mulohaza uchun

VI asr ikkinchi yarmidan Chochda Turk xoqonligi hukmronligi o‘rnatilib, voha aholisi etnik tarkibida turkiylar salmog‘i keskin oshdi. Mahalliy turkiy tilli aholi xoqonlik vakillari kabi *«turk»* deb ataladi. Choch vassal mulk sifatida Istami yabg‘u-xoqon tasarrufida, xoqonlik ikkiga bo‘lingach, G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibida bo‘ldi. Xoqon Chochga hokim etib Tegin Tyanchjini tayinlaydi. Tegin Tyanchji G‘arbiy Turk xoqonligi yaratgan iqtisodiy va siyosiy erkinlikdan foydalanib, Xitoy bilan diplomatik aloqa o‘rnatdi.

Teginlar sulolasi Chochni boshqardi. Choch ma’muriy boshqaruvida tegindan (shahzoda, taxt vorisi) keyin soliq yig‘ish bo‘yicha nozirlar – *tudunlar* (soliq yig‘imlari nozirlari) turgan. G‘arbiy Turk hukmdori To‘n yabg‘u o‘z qarorgohini Choch yaqinidagi Mingbuloq mavzesiga ko‘chirgan.

Ijodiy faoliyat

1. Buyuk ipak yo‘li keng yoyilgan hududlarni xarita tarzida daftaringizda tasvirlang. Har bir o‘quvchi o‘zi chegaralab chizib chiqqan xaritasini dars yakunida sinfdoshlari bilan muhokama qiladi.
2. Buyuk ipak yo‘lining asosiy tovar mahsulotlari ro‘yxatini tuzing va ularning ichidan bugungi kunda ham muhimligini yo‘qotmagan tovarlarning ostiga chizib chiqing.

Choch tangasi,
625-725-yillar

To‘n yabg‘u boshqaruvda islohotlar o‘tkazib, qaram o‘lkalarga o‘z vakillari – *eltabar* (el (davlat) boshqaruvchilar)ni yubordi. Tushadigan soliq nazoratini tudunlar orqali amalga oshirdi.

Bu davrda poytaxtning ko‘chirilishi siyosiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishga imkon berdi va Ipak yo‘lida savdo nazorati hamda tijorat ishining jonlanishini ta’minladi. Vohada dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlanib, ko‘plab manzilgohlar, qal’a va shaharlar qad rostladi. Davlat tashqi savdoda *Lashkarak kumushlarini, Tunkat va To‘qkat metallini, moviy feruzalarini* chetga chiqardi. Ichki bozor uchun ham tangalar zarb etildi. Choch hududida G‘arbiy Turk xoqoni Tardu xoqon nomi chekilgan tangalari, keyinchalik To‘n yabg‘u xoqonning *yabg‘u-xoqon puli* deb nomlanuvchi tangalari muomalada bo‘lgan.

Bu tangalarning o‘ziga xos tomoni sug‘diy yozuvda bitilgani edi. Turkiy hokimlar tomonidan sug‘diy yozuvli tangalarning muomalaga kiritilishi iqtisodning o‘sishi va xalqaro savdoning rivojiga yordam bergan. Xususan, Choch savdogarlari sug‘diy *tujjor* (savdogar)lar bilan chetga mahsulot olib chiqib, xorijdagi manzilgohlarida bir jamoa bo‘lib yashashgan. Bu savdo aloqalari xoqonlik xazinasiga daromad keltirganligi uchun xoqonlik o‘z hududida barcha savdogarlarni himoya qilgan.

V–VII asrlarda Turonda, bir tomondan, yerga egalik qilish munosabatlari o‘rnatildi va mustahkamlanib bordi. Ikkinchi tomondan, ko‘chmanchi chorvadorlarning beto‘xtov shiddat bilan kirib kelishi hamda ularning o‘troqlashuvi kuzatildi. Mazkur omillar shahar va qishloqlarning qiyofasi hamda aholisining turmush tarzi-yu ijtimoiy ahvoliga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.



Ijodiy faoliyat

Nima uchun V–VII asrlarda mavjud bo‘lgan va rivojlangan davlatlarning muhrlarida oldida hukmdor va orqasida o‘z davri uchun muhim bo‘lgan buyum yoki jonzotlarning tasviri tushirilgan? Buning o‘z davri uchun tarixiy ahamiyati qanday bo‘lgan?

Zangtepa qal’asi

Mulohaza uchun

Ziroatkor yerlar kengayib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog'oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda *«ko'shk», «qasr», «qo'rg'on» va «qo'rg'oncha»* nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turar joylar qad ko'tardi.

Istehkomli qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan.

O'rta asrlarda shaharlar uch qismdan iborat bo'lgan. Ular *«ko'handiz», «shahriston», «rabod»* deb yuritilgan. Shaharlarning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o'rab olingan. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor xandaq vazifasini bajargan.

X asrda yashagan arab mualliflari (Ibn Xavqal va Ishtaxriy)ning qayd etishicha, birgina Binkat (Toshkent)ning yigirma ikkita darvozasi bo'lgan.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

Quyidagi jadval asosida Turon hududida yashagan xalqlarning turmush tarzini Yevropa va Sharqning bosha davlatlaridagi hayot bilan solishtiring.

Jamiyatning turli sohalari	Turon hududida	Yevropa xalqlari	Slavyan xalqlari	Sharqiy Osiyo: Xitoy, Koreya, Yaponiya
Davlatchilik shakllarining mavjudligi va rivojlanganligi	Afrig'iylar, kidariylar,.....			
Qonunchilik hujjatlari				
Shaharlari				
Diniy e'tiqodlari				
Iqtisodiy soha				

14-15- mavzular:

TURON XALQLARINING HARBIY SAN'ATI



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Davlatning mavjud bo'lishida harbiylarning o'rni qay darajada muhim deb o'ylaysiz?
2. Harbiy qo'shinsiz davlat mavjud bo'la oladimi?

Mulohaza uchun

Mavzuning asosiy qismiga o'tishdan avval «Turon» atamasi tarixi bilan qisqacha tanishib olamiz. «Turon» atamasi dastlab «Avesto»da tilga olingan. Tarixchilar fikricha, turlar (turklar) oriy xalqlarning tarmog'i hisoblangan. VI asrda O'rta Osiyo hududi Turk xoqonligiga o'tishi bilan bu ikki atama uyg'unlashib, Turon nomi turklarga nisbatan beriladigan bo'ldi.

«Turon» yoki «Turkiston» deyilganda, Amudaryo va Sirdaryodan shimolda, to Sharqdagi Buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan turkiylar mamlakatlari tushuniladi.

> Bu yer (Movarounnahr) ahlining e'tiqodicha, Jayhun orqasidan Sharqqa qarab cho'zilgan yerlar Turon, G'arbga tomon cho'zilgan yerlar esa Eron deb ataladi. Kaykovus va Afrosiyob bu mamalakatlarni o'zaro taqsim qilganlarida Turon Afrosiyobga, Eron esa Kaykabod o'g'li Kaykovusga tekkan.
>
> Ibn Arabshoh

Jahon harbiy san'ati taraqqiyotida turkiy xalqlar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Arab adibi Johiz turkiy xalqlarning xislatlari haqida bitilgan «Manoqib al-atrok» asarida: «Sosoniy-forslar barcha xalqlardan davlatni boshqarish sohasida, xitoyliklar — hunarmandchilikda, yunonlar — ilm-fanda, turklar — harbiy ishda ustundirlar», — deb yozadi.

Ijodiy faoliyat

Birgalikda tahlil qilamiz. To'rt jamoaga bo'linib, arab adibi Johizning fikrlarini tahlil qiling. Nima uchun to'rtta xalq aynan ushbu sohalarda ustun bo'lgan? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

- Sosoniy-forslar – davlatni boshqarish sohasida
- Xitoyliklar – hunarmandchilikda
- Yunonlar – ilm-fanda
- Turklar – harbiy ishda

Ijodiy faoliyat

Eftaliylar va Turk xoqonligi davrida harbiy san'atning rivojlanishiga qanday ehtiyojlar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?

Turkiyalik olim Usmon Turonning «Turkiy xalqlar mafkurasi» nomli kitobida keltirilishicha, turkiylar:

- Birinchi bo'lib otdan jang vositasi sifatida foydalanganlar.
- Egar-jabduq, uzangi va tizgin kabi anjomlarni kashf etganlar.
- Chinliklar turklardan otga minishni, uzun qilichdan foydalanishni va jangovar kiyim yasashni o'rganib olganlar.
- Chodir-hammom va kasalxonalar kashf etib, ularni qo'shin bilan birga otda olib yurishgan.
- Turklar umrlarini ot ustida kechirganlar: ular ot ustida ovqatlanishar, mashvarat o'tkazishar, nihoyat jang-u jadal qilishardi.
- Dovuldek paydo bo'lib, qush kabi bir zumda ko'zdan yo'qoladi, deya tasvirlangan.

Mulohaza uchun



Turli davr va xalqlarning askarlari:
1 – Xuroson og'ir otlig'i (VII asr);
2 – Turon turk lashkari (VIII asr);
3 – arab piyoda askari (VII asr);
4 – Fors otliq kamonchisi (VII asr)

Turon hududi milodiy V asrda eftaliylar tarkibiga kirgan. Eftaliylar mamlakatda kushonlar siyosatini davom ettirib, O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston xalqlarini yagona davlatga birlashtirgan. Eftaliylarning aksariyati otliqlardan iborat kuchli qo'shinga ega bo'lishgan. Eftaliylar jangda asosan gurzilardan foydalanishgan. Shuningdek, kamon va shamshirlar ham qo'llanilgan.

Demak, mamlakatimiz xalqlari harbiy siyosat yuritish, qo'shinning jangovarligini oshirish, qurol-yarog'lar yasash va ulardan foydalanish, mudofaa inshootlarini qurish kabi sohalarni muntazam takomillashtirib borishgan. Turk xoqonligi davrida harbiy san'at yanada rivojlangan. Har bir ibodatxona qoshida tashkil etilgan ta'lim

Bu davrda Sug'diyona, Toxariston, Farg'ona, Xorazm va Choch kabi mustaqil hokimliklar ham o'z harbiy qo'shiniga ega edilar.

dargohlarida yigitlarga otda erkin yura olish, qilichbozlik, kamondan o‘q otish, gurzi ishlatish, kurash tushish, palaxmon otish kabilar o‘rgatilgan.

Bu davrda nafaqat yigitlar, balki qizlarda ham chavandozlik, kamonbozlik kabi ko‘nikmalar shakllantirilgan.

Xoqonlik qo‘shinining asosiy qismi otliq jangchilardan va qisman piyoda askarlardan tashkil topgan. Jangchilar parchinlar qoplangan jang liboslari, sovutlar kiyishgan. Ular qalqon, uzun va ingichka nayza, jangovar bolta hamda kamon bilan qurollanishgan.

Bu davrda chopuvchi qurolning yangi turi – *qilich va dudama,* uzun va og‘ir qilich – *palash* paydo bo‘lgan. Har bir otliq jangchi o‘zi bilan kamida ikki yoki uchta otni olib yurgan. Bu horigan otlarni charchamagan otlarga almashtirish imkoniyatini bergan. Ot ham zirhli abzal bilan himoyalangan. Turk xoqonligi armiyasi turli bo‘linmalar – *o‘nlik, yuzlik, minglik, o‘n minglik – tumanlardan* tashkil topgan.

Mulohaza uchun

Har bir tuman o‘zining tug‘i (nishoni) ga ega bo‘lgan. Mazkur nishon uzun nayzaga bo‘ri yoki boshqa biror hayvonning tilla suvi yuritilgan boshi va otning yoli bilan birga o‘rnatilgan.

Turk jangchilari qat’iy intizomga rioya qilganlar va ular o‘z davri uchun yengilmas kuch hisoblangan. Hujum odatda kutilmaganda boshlangan. Jangdagi aniqlik, abjirlik hamda tezkor harakatlar g‘alabani ta’minlagan. Ular yolg‘ondan chekinish kabi harbiy taktika usulidan keng foydalanishgan. Himoyalanish chog‘ida aylana usulini qo‘llashgan. Jang taktikasida dushmanning asosiy kuchlarini ikki yoki bir necha qismlarga ajratib yakson qilishgan.

Turon harbiy san’atida og‘ir qurollangan suvoriylar – otliq askarlar va ularga xos jang olib borish usullari V–VI asrlarda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Turkiy suvoriylar tomonidan uzangining kashf etilishi otliq askarlarga ot ustida mustahkam o‘tira olish va og‘ir aslahalar bilan qurollanish imkonini bergan. Qo‘shinda og‘ir qurollangan askarlardan tashqari yengil qurollangan otliq va piyoda lashkarlar ham bo‘lgan. Shaharlarda ixtisoslashgan qurol-yarog‘ ustaxonalari faoliyat olib borgan. Jangchilarning qurollari ham takomillashgan. Qurolsozlar yasagan himoyalovchi yarog‘lar jangchini boshidan oyog‘igacha muhofaza qilgan.

Sug‘d jangchilari haqida xitoylik sayyoh tomonidan bitilgan esdaliklarida quyidagicha ma’lumot mavjud: «Samarqand hokimining qabilasidan bo‘lgan ko‘pchilik jangchilar jasur va g‘ayratli bo‘lib, o‘limni nazar-pisand qilmagan. Janglarda hech bir raqib ularga bardosh bera olmagan. Ular jang davomida qurol-aslahaning barcha turlaridan mohirona foydalanishgan».

Ijodiy faoliyat

1. Xitoylik sayyohning e’tirofi sizga qaysi qahramonlarni eslatdi?
2. Sug‘d jangchilarining qurollanishiga oid bo‘lgan matnga asoslanib, bu davrda hunarmandchilikning qaysi yo‘nalishi jiddiy rivojlanganligi haqida fikr bildiring.

Jangchilarning ustunligi ikkiyoqlama o‘tkir tig‘li qilichlarida bo‘lgan. Sovutlari ham uzun bo‘lib, askarlarning oldi va orqasini kesiklari bo‘lgan charm bo‘laklari muhofaza qilgan. Oyoq va qo‘llarini himoyalash maqsadida maxsus metall parchalaridan tayyorlangan sovut kiyishgan. Himoya vositalaridan biri bo‘lgan dubulg‘a temirdan yasalgan. Dubulg‘a yelkada osilgan zirhli yelkapo‘sh bilan bir bo‘lgan.

Bu davrda shaharlar, qal’alar va boshqa binolar mudofaa maqsadlariga mos tarzda barpo etilgan. Turon xalqlari o‘z shahar-qal’alarini tadbirkorlik bilan mudofaa etganlar. Yirik dehqonlarning Xorazm, Sug‘d va Toxaristondan topilgan uy-qo‘rg‘onlari burjli mudofaa devorlari va kamondan o‘q otishga mo‘ljallangan shinaklariga ega bo‘lgan. Qo‘rg‘onga kirish joyining ro‘parasida xabar beruvchi qo‘riqlov minorasi qad rostlagan. Shahar atrofidagi xandaq suv bilan to‘ldirilib, unga ko‘tarma ko‘prik orqaligina o‘tish mumkin bo‘lgan. Qo‘rg‘onlarni nayza bilan qurollangan jangchilar qo‘riqlab turgan. Tahlikali xabar bo‘lganda jangchilar devor va burjlardagi o‘z o‘rinlariga shoshilganlar. Dushmanlar qasrga kirish uchun xandaqni ko‘mishlari, darvozani buzishlari lozim bo‘lgan. Qasr himoyachilari devordan turib ularning boshiga tosh uloqtirganlar, qaynoq suv quyganlar, nayza, yoy o‘qlarini yog‘dirganlar.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Bu davrda Yevropada va boshqa Sharq davlatlarida harbiylarning ko‘rinishi qanday edi?
2. Nima uchun Turon hududidagi harbiy qurol-aslahalar dunyoga mashhur va keng tarqalgan edi?
3. Yuqori sifatli hujumkor va himoya qurollarini ishlab chiqaruvchi maxsus markazlar yaratish uchun qanday bilimlar kerak bo‘lgan?

16-17-mavzular:

VI–VII ASRLARDA TURON XALQLARI MADANIY HAYOTI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

Oldingi darslardan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling:

1. Karvon yo'llari orqali Turk xoqonligiga qaysi davlatlarning madaniyatlari kirib kelgan va ularning ta'siri qanday bo'lgan?
2. Qadimgi tariximizdan so'zlovchi eng qadimgi yozma manba haqida ma'lumot bering. Manba qaysi tilda yozilgan? Mazkur manba mamlakatimiz hududida qadimgi xalqlarning madaniyati darajasini belgilaydimi? Misollar keltiring.
3. Insoniyatning madaniyatini belgilash uchun qanday omillarga e'tibor qaratiladi? Madaniyat darajasi nimalar bilan o'lchanadi? Berilgan rasmlar asosida davr madaniyatiga baho bering.

Mulohaza uchun

Mamlakatimiz tarixida ta'lim tizimining rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, yozuvning paydo bo'lishi bilan bu jarayon yanada jadallashgan. Qadimgi tosh bitiklar, teri, sopol, yog'och (taxta) va keyinchalik qog'ozlarga tushirilgan ma'lumotlar ta'lim tarixidan so'zlovchi manba hisoblanadi. Arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar, Behustun yozuvlari va boshqa yozuvlarning mavjudligi, savdo aloqalari mazkur hududda ta'limning rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi. Tariximizdan darak beruvchi eng qadimgi yozma manba «Avesto»da nafaqat diniy balki, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar hamda ma'naviy-ma'rifiy qarashlar haqidagi ma'lumotlar to'plangan.

Xorazmdagi Jonbosqal'a va Tuproqqal'adan topilgan zardushtiylarning ibodatxonasi diqqatga sazovor inshootlarning o'rtasida qo'sh devorlar bilan qurshalgan va ichkariga aylanma yo'lagi orqali kiriladigan to'g'ri burchakli bino bo'lgan. Xonalardan teriga va yog'ochga yozilgan turli mazmundagi hujjatlar hamda katta-kichik haykalchalar topilgan. Bu esa, ibodatxonaga tutash binolarda ta'lim maskanlari, huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bo'lganidan dalolat beradi.

Xorazmda o'g'il bolalarga o'qish, yozish, hisob-kitob o'rgatilgan. Shuningdek, ularga geografiya, zoologiya, botanika, astronomiya, muhandislik, tibbiyot va me'morchilik kabi turli fanlardan bilimlar berilgan.

Ov manzarasi tasvirlangan mis idish. Eftaliylar davri, V asr. Pokistondan topilgan

Ijodiy faoliyat

Yuqoridagi ov manzarasi tasviriga qarab, kichik esse yozing.

Moniylarning sug'diy tilli diniy kitobati namunasi

Ijodiy faoliyat

1. Biror xorijiy til va yozuvni o'zlashtirish uchun sizga qanday sharoit va jihozlar kerak? Masalan, darslik, xarita, lingofon...
2. Har bir yirik shahar va viloyatlarda ta'lim tarixidan so'zlovchi manbalarga e'tibor qaratganda, avvalo qaysi ma'lumotlarga tayanish kerak bo'ladi?

Zardushtiylik diniga oid Chilpiq qal'a (Amudaryo tumani, Qoraqalpog'iston)

Mulohaza uchun

Mamlakatimiz hududida yashagan xalqlar tangrichilik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod qilishganliklarini yuqoridagi mavzulardan bilib oldingiz. Mazkur dinlarning ibodatxonalarida maxsus maktablar bo'lib, ta'lim oluvchilarga dinning asoslari o'rgatilgan. Xat-savodi chiqarilgan. Xususan, buddaviylik ta'limoti bilan bog'liq an'analar o'rganilganida, har bir ibodatxonada rohiblar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bo'lganligi aniqlangan. Misol uchun buddaviy o'quv maskanlari – viharalarda asosiy fan sifatida Daxarma, ya'ni diniy qonun-qoidalar va Xudoning mohiyati hamda irodasi (xudojo'ylik) haqida ta'lim berilgan.

Yahudiylar Ossuriya quvg'inlaridan Eronga, Samarqand va Buxoroga ko'chib keladilar. Yahudiy jamoalari bilan birga qadimgi Mesopotamiyaning madaniyati ham kirib keladi. Yahudiylar ibodatxonalari qoshida diniy ta'lim o'rgatiladigan maktablar tashkil qilingan. Turon hududidan o'tgan savdo yo'llarida eng qimmatbaho tovar bu yozuv materiallari va kitoblar hisoblangan.

V asrda Samarqand va Buxoroda xristianlik tarqalib, diniy muassasalar tashkil qilingan. Xristian dini ta'lim masalalarida: «Farzandlaringiz Masihiyning tarbiyasini olsin; ular Xudo oldida qanchalik kamtarlik, Xudo oldida kuchli sevgi nimani anglatishini, Xudodan qo'rqish qanchalik go'zal va buyuk ekanini va unda sof aql bilan yurganlarni qutqarishni o'rgansinlar», – degan tamoyiliga amal qilib, mazkur hududlardagi ibodatxonalarda maktablar tashkil etilgan. Sug'ddagi katta nestoriyan jamoalarining hujjatlari sug'd tilida yozilgan.

Marv shahrining xarobalari

To'nyuquq bitiktoshi, VIII asr. Janubiy Mo'g'uliston

Ijodiy faoliyat

1. Guruhlarga bo'lining va yangicha alifbo tuzib ko'ring. Uni taqdimot qiling. Taqdimotingizni tuzgan alifboda yozishga harakat qiling.
2. Qanday muammolar yuzaga keldi?

Guruhda ishlash jarayonida	Matn yozish jarayonida	Taqdimot jarayonida

3. Nima deb o'ylaysiz, yangi alifboni butun jamiyatga joriy etish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi, qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak? Bu alifboni keyingi avlodlar ham bilishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
4. Turkiy hukmdorlar davlat ishlarini olib borishda sug'diy til va yozuvdan foydalanganligining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang.

«Men xoqon To‘nyuquq Chinda dunyoga keldim. Chunki u paytda turk millati Chinga tobe edi... Turk millati parishon bo‘ldi va birlashgan turk yurtida jamoa holidagi xalq qolmagandi... Dastlab Shod (Qutlug‘) yonida to‘qnashadi. Men ham ular bilan birga edim. Tangri menga sezgi berganligi sababli uning xoqon bo‘lishi uchun harakat qildim va o‘zini ham qistadim. U: «To‘nyuquq men bilan birga bo‘lganda men Eltarish (millatni to‘plagan) xoqon bo‘layin», – deydi. Chinliklarning bu toza kuchni yo‘q qilish payiga tushganini bilishim hamon kunduz o‘tirmay, kecha uxlamay xoqonga arz qildim, dushmanlar birlashmasdan ustiga yuraylik, dedim. Tangrining yordami bilan yog‘iyni daf etdik. Xoqon va turk millati O‘tukanga joylashishi bilan Janub va Shimol, Sharq va G‘arbdagi barcha urug‘lar kelib, bizga qo‘shildi».

To‘nyuquq bitigi

Mulohaza uchun

Turk xoqonligida madaniyat va san’at ham rivoj topgan. Xoqonlikda o‘ziga xos yozuv ham mavjud bo‘lgan. Turklarning turkiy run (ko‘kturk) xati biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38–40 ta harfdan iborat edi. U tosh va yog‘ochlarga o‘yib yozishga nihoyatda qulay bo‘lgan. Qadimgi ko‘kturk (Kultegin va Bilga xoqon) bitiklari Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari, Yettisuv, Farg‘ona va Zarafshon vodiylaridan topilgan qabrtoshlari, sopol va metall buyumlar, yog‘och hamda tanga pullarda saqlanib qolgan.



Surxon vohasida Bolaliktepa va Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob, Farg‘ona vodiysida Quva xarobalaridan topilgan yodgorliklar – devoriy suratlar, haykallar va ganchkor naqshlar o‘sha davrning yuksak san’at namunalaridan hisoblanadi. Ular insonlarning hayoti, diniy e’tiqodi va turmush tarzi, bilimlari va qiziqishlari haqida hikoya qiluvchi manbadir.

Haykaltaroshlik rivojiga, ayniqsa, buddaviylik dini kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Ijodiy faoliyat

1. Rasmda sug‘diylar va toxariylar berilgan. Mazkur rasm asosida hikoya tuzing. Ular qanday tadbirni nishonlashmoqda?
2. Rasmdagi liboslarga e‘tibor bering, bugungi kunda ularning qaysilari urfdan qolmagan? Ularning liboslari sizga bugungu kundagi qaysi xalqlarning milliy liboslarini eslatadi?

Mulohaza uchun

Afrosiyob, Varaxsha, Panjikentdagi qazilmalardan topilgan buyumlar Turon aholisi madaniyatidan darak beradi. Saroy va ibodatxona, turar joy binolari, devorlardagi naqshlar, turli suratlar, haykallar, yog‘och o‘ymakorligi buyumlari, Mug‘ tog‘i va Afrosiyobda topilgan sug‘d yozuvlari shular jumlasidandir.

Bu davrda to‘qimachilik yuqori darajaga erishgan. Tog‘li va tog‘oldi hududlarda jun, vodiylarda ipak va ip matolardan foydalanilgan. Kiyimlarda bir yoki ko‘p rangli ipaklar, sidirg‘a yoki naqshli ip-gazmollar, zar qo‘shib to‘qilgan matolar qo‘llanardi.

Mulohaza uchun

Naqshlardagi hayoliy va geometrik shakllar, o‘simlik va hayvonlar suratlari ikki-uch yoki to‘rt rangli bo‘lgan. Asosan qizil, sariq, yashil, oq, qora ranglardan foydalanilgan. Turon gazmol markazlarida «zandanachi» kabi ko‘k rangli ipak va boshqa matolarning ishlab chiqarilishi yopishtirma yassi, g‘ilof kiyimlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Erkaklarining kiyimi otga minib yurishga qulay bo‘lib, kalta kaftan va ko‘ylaklar, keng va baland qo‘njli etiklardan iborat edi.

Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimiga o‘xshash bo‘lib, ko‘ylaklar, kaftanlar, bir tomonlama qaytarmali yopinchiqlar ko‘rinishida edi. Ulardan tashqari shleyfli uzun ko‘ylak, kofta, yubka va po‘stinlar ham kiyishardi. Ustki kiyimlarining (kaftan, yopinchiq va po‘stin) uzunligi tizzagacha bo‘lgan. Kiyimning yoqasi, etagi, oldi, yengining uchi boshqa rangli matodan qilingan hoshiya bilan bezatilardi. Ayollarning kiyim ansamblida nimchalar, koftalar, to‘g‘ri shaklli yubkalar va uzun ko‘ylaklar bo‘lgan.

Turonda tanaga yopishib turishga qulay o‘tkazma yengli kiyimlar paydo bo‘lgan. Kaftan va yopinchiqlarning bezagida kushonlar tunikasimon ko‘ylagi bezaklarining ta’siri sezilardi. Yopinchoqlarda rang-barang matodan qilingan hoshiyali qiyiqlar bo‘lgan.

Erkaklar va ayollar kastumida taqinchoqlar muhim rol o‘ynagan. Ular shaxsning ijtimoiy holatini ko‘rsatardi. Ayol va erkaklar zirak, qo‘l va oyoq bilaguzuklari, marjonlar, kamarlar taqishgan. Toxaristonda faqat erkak va ayol xizmatchilar belbog‘ taqishardi, aslzoda ayollar esa belini bog‘lashmagan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Quyidagi jadval asosida 4 jamoaga bo‘linib Turon xalqlari madaniy hayotining o‘ziga xosliklarini belgilang.

Ta’lim tizimi	Diniy e’tiqodlari	Hunarmandchilik	Kiyinish madaniyati

2. O‘z davrida Turon xalqlari madaniyati jahon madaniyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

Varaxsha, devoriy surat.

18-19-mavzular:

VII–VIII ASR BOSHLARIDA TURONDA SIYOSIY VAZIYAT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

1. VIII asrda dunyoda qanday muhim o‘zgarishlar bo‘ldi? Bu o‘zgarishlarning bugungi kundagi ahamiyati nimalardan iborat?
2. Sosoniylar davlati arablar tomonidan qachon bosib olindi? Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tarix sahnasidagi o‘rnini qanday asoslash mumkin?
3. Arab xalifaligi qo‘shinlari tomonidan sosoniylar Eronining zabt etilishining Turonga ta’siri qanday bo‘lgan?

Sosoniylar askarlari

Mulohaza uchun

Sosoniylarning o‘zaro ichki nizolari, eftaliylar, vizantiyaliklar va turkiylar bilan bo‘lgan tinimsiz to‘qnashuvlari Eron xalqining tinkasini quritgan edi. Mahalliy hukmdorlar ham arablarga qarshi kurashda markazga yordam berishdan bosh tortgan. Natijada Sosoniylar saltanati quladi.

O‘z davrining qudratli davlatlaridan biri sanalgan Sosoniylar Eroni Arab xalifaligi qo‘shinlari tomonidan zabt etilgach, istilochilarga Movarounnahr tomon yo‘l ochildi.

Arab istilochilari katta o‘ljalar ilinjida Amudaryoning narigi tomoni — Movarounnahr tomon shoshildilar. Hatto bu harakatga ilohiy tus ham berildi.

Arablar istilosi Movarounnahr va Xuroson tarixida katta o‘zgarishlar yasadi. Bunga qadar O‘rta Osiyo hududidagi mahalliy hokimliklar G‘arbiy Turk xoqonligi vassali bo‘lsa-da, mustaqil ichki siyosat yurgizish imtiyoziga ega edi. Kuchli markazlashgan hokimiyat yo‘q bo‘lib, o‘lka bir necha mulklardan tashkil topgan konfederatsiyaga birlashib turardi.

Jumladan, Sug‘d va Toxariston mulklarga, Choch va Iloq xoqonlik vassalligidagi yarim mustaqil mulklarga, Farg‘ona hokimliklarga bo‘linib ketgan edi. Ustrushona, Chag‘oniyon, Kabodiyon, Xuttalon, Rasht, Darvoz, Badaxshon kabi o‘lkalar ham yarim mustaqil mulklar sifatida o‘z hokimlari tomonidan boshqarilardi. Mulk hukmdorlari ichki mustaqil bo‘lgani bois, o‘zlarini ko‘p ham markazga tobe, deb hisoblamasdi. Bu arab istilosiga qarshi Movarounnahr xalqlarining birlashishiga to‘siq edi. Faqat G‘arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklarining harbiy ustunligi Turon ahlining arab istilosiga qarshi kurashini uyushtirishi mumkin edi. Qolaversa, bu davrda Balx, Xuttalon, Chag‘oniyon, Choch, Ustrushona va Sug‘d aholisining katta qismini jangovar turkiylar tashkil etardi.

Marv Turon (Xuroson) shaharlari orasida birinchi bo‘lib arab istilochilari tomonidan egallangan shahar edi.

Shundan so‘ng arab qo‘shinlari turkiy sulola boshqarayotgan Toxariston chegaralariga chiqdi. Arablarga qarshi fors, turk va sug‘d qo‘shinlari ittifoqi harakat qilib, Balxni qaytarib oldilar.

U yerdagi xazina qo‘lga kiritilgach, sosoniy amaldorlar turklar bilan birlashish rejasiga qarshi chiqib, turklarni «azaliy raqib» ekani bahonasida arablar bilan kelishishni afzal bildi. Bu esa arablar tomonidan Marvni egallashga sharoit yaratdi. Xalifalikning Xurosondagi vakili va Marv ahli o‘rtasida sulh imzolandi. Turklarning Balxni tashlab chiqishi, istilochilarning Movarounnahrga yurish imkoniyatini oshirdi.

Mintaqada arablarga jiddiy to‘sqinlik qiladigan kuch ham yo‘q edi. Chunki Tan imperiyasining G‘arbiy Turk xoqonligiga hujumlari g‘arbiy turklarni ikki frontda kurash olib borishga majbur qilardi. Turon mulkliklari va G‘arbiy Turk xoqonligidagi siyosiy vaziyatning yomonlashuvi arablarning harbiy yurishlarini tezlashtirdi. O‘z davrining qudratli davlatlaridan biri sanalgan Sosoniylar Eroni Arab xalifaligi qo‘shinlari tomonidan zabt etilgach, istilochilarga Movarounnahr tomon yo‘l ochildi.

Mulohaza uchun

651-yili arablar Marv shahrini, so‘ngra hozirgi Afg‘onistonning shimoliy, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni istilo qiladi. Arablar bu hududlarni Xuroson deb ataganlar. Uning markazi Marv shahri edi. Bu viloyatni boshqarish uchun maxsus noib tayinlanib, uning qarorgohi Marvda edi.

Arablar Xurosonda o‘rnashib olgach, Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni zabt etishga tayyorgarlik ko‘radilar. Bu yerlarni arablar Movarounnahr, ya’ni «daryoning narigi tomoni» deb atadilar.

Arab qo‘mondonlari Vizantiya va Eron bilan bo‘lgan urushlar tajribasi asosida avval Movarounnahrdagi vaziyatni o‘rgandilar va 654-yildagina Amudaryo o‘ng sohiliga bosqinchilik yurishlarini boshladilar. Arablarning yengil va og‘ir yaroqlar bilan qurollangan kuchli otliq qo‘shini asosini arab qabilalari vakillari, piyoda qo‘shinlar tarkibini esa zabt etilgan xalqlar vakillari tashkil etgan.

Movarounnahrga ilk bor hujumlar 654-yilda Maymurg‘ va 667-yilda Chag‘oniyondan boshlanadi. 673-yilning kuzida arab qo‘shinlari Amudaryodan kechib o‘tib, Buxoro hududiga bostirib kiradi. Poykand va Romitanni egallab, Marvga qaytadilar. Yo‘l-yo‘lakay Termiz shahri ham egallanadi.

VIII asr boshlarida arablar Movarounnahr hududini to‘liq bosib olishga kirishadilar.

Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim 705-715-yillar davomida Chag‘oniyon, Poykand, Buxoro, Naxshab, Kesh, Xorazm, Samarqand, Choch va Farg‘onani bosib oladi.

Arab askarlari:
1 – piyoda; 2 – otliq;
3 – tuyakash

Ijodiy faoliyat

1. Berilgan xaritadan foydalanib, arablar bosib olgan hududlarning nomini va yillarini daftaringizga yozing.

Hudud nomi	Bosib olingan yili	Chegarasi	Ijtimoiy tuzumi

2. Xaritadan qizil bilan belgilangan joylardagi shaharlarning nomini toping, ularni zamonaviy nomi bilan solishtiring.

Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishicha, Ubaydulloh ibn Ziyod xalifa Muoviya I tomonidan Xurosonga yuborilib, u Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tib Buxoroga kelgan vaqtida Buxoro podshohi, o'g'li Tag'shoda kichik yoshli bo'lgani tufayli, bir xotin kishi edi. Ubaydulloh ibn Ziyod Poykand va Romitanni olib ko'p kishilarni asir qildi. To'rt ming buxorolik asirni shaxsan o'ziga oldi. U Buxoro shahriga yetgach, askarlarini saf qilib, palahmonlarni shaharga to'g'rilab qo'ydi.

Xotin turklarga odam yuborib, ulardan yordam so'radi hamda Ubaydulloh ibn Ziyodga ham odam yuborib yetti kun muhlat talab qildi va: «Men sening itoatingdaman», – deb, ko'p hadyalar yubordi. Shu yetti kunda turklardan yordam kelmagach, Ubaydulloh ibn Ziyodga qaytadan odam yuborib, yana yetti kun muhlat so'radi. (Nihoyat) turk lashkari yetib keldi va boshqalar ham yig'ilishib lashkar ko'paydi; ko'p urushlar qildilar va yengilib qochdilar, musulmonlar ularning orqalaridan borib ko'plarini o'ldirdilar. Xotin qal'aga kirdi, u (yig'ilib kelgan) lashkarlar o'z viloyatlariga qaytdilar. Musulmonlar qurol, kiyim-kechak, tilla va kumushdan ishlangan narsalar va asirlardan iborat ko'p o'lja qo'lga kiritdilar.

Ular xotinning bir poy etigini ham paypog'i bilan topib oldilar. Etik va paypoq tilla (ishlatilib tikilgan va) qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi, baho qilganlarida ikki yuz ming dirham turdi.

Abu Bakr Narshaxiy «Buxoro tarixi»

Ma'lumot uchun

Arab istilosi turk-sug'd munosabatlarini yana bir sinovdan o'tkazdi. Arablar G'arbiy Turk xoqonligi tasarrufidagi hududlarga hujum qilib, o'lkadagi yirik va mayda mulkliklar o'rtasidagi siyosiy tarqoqlikdan unumli foydalandi. Turk xoqonlari va Sug'd hokimliklar o'rtasiga nifoq solib, o'zaro ishonchsizlik uyg'otdi. Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklari, Sug'd, Choch, Farg'ona ittifoqining barqaror emasligi ham arab istilochilariga qo'l keldi. Ayrim hokimliklarning (Kesh, Nasaf, Xorazm) arab qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashi istilo muvaffaqiyatini ta'minladi.

Qutaybaning siyosiy va harbiy tadbirkorligi o'z samarasini berdi. Istiloning hal qiluvchi ikkinchi bosqichi mahalliy aholining istiloga qarshi turkiy davlatlar (G'arbiy Turk, Sharqiy Turk va Turkash xoqonliklari) boshchiligidagi kurashi va Sug'ddagi qo'zg'olonlar bilan kechsa-da, Movarounnahrni islomlashtirish jarayoni davom ettirildi.

Ijodiy faoliyat

Ikki jamoaga bo'lining.

Birinchi jamoa arablarning Sharqqa, xususan, Movarounnahrga uyushtirgan hujumlari davrida mahalliy aholining harbiy qurollarini yozib chiqadi. Ikkinchi jamoa esa arablarning harbiy qurollarini aniqlaydi, ulardan nima maqsadlarda foydalanganligini asoslaydi.

Ikkala jamoa birgalikda mahalliy aholi va arablarning harbiy salohiyatini tahlil qiladi.

Mulohaza uchun

Bu kurashda Sug'd ixshidlari, Buxoro buxorxudotlari, Kesh va Nasaf hokimlari, Choch tudunlari, Farg'ona hukmdor (ixshid)lari va Toxariston yabg'ulari yagona maqsad yo'lida birlashdilar. Ayniqsa, turk-sug'd ittifoqining kuchayishiga G'arbiy Turk xoqonligi vorisi bo'lgan Turkash xoqonligi hukmdori Suluxonning turonliklarga yordam berishi sabab bo'ldi.

Ma'lumot uchun

Islom dinining Turonga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablarning ko'p asrlik hukmronligi bilan bog'liq. Turonga arab xalifaligi yurishlari VII asrda boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida Turon hududi ikki qismga bo'lindi: 1) Movarounnahr («Daryoning narigi tomoni») va 2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

«Inal xoqonga arab, tuxor hujum qildi. O'shanda ajraladigan choki bor dubulg'a kiygan so'g'doq xalqi hammasi keldi. O'sha kuni hujum qildi. Turk xalqi Temir darvozagacha, Tinsi o'g'li yotadigan toqqa yetdi».

To'nyuquq bitiktoshining 45-47-qatorlari

Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o'z ta'sirini o'tkazdi

Islom dini Turonga kirib kelishidan avval hukmdorlik qilgan (ixshid, buxorxudot va boshqa)lar o'z mavqelarini saqlab turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar foydasiga soliq yig'ish vazifalarini bajardilar.

Umaviy hukmdorlari (arab xalifalari) mamlakat ichki ishlariga bevosita aralashmasdan, mahalliy sulolalardan o'lpon olish bilan cheklanardilar. Ba'zida bu o'lpon mahalliy aholidan yig'ilgan jiz'ya (boshqa din vakillaridan yig'iladigan soliq) sifatida qabul qilinar edi. Bu esa keyinchalik islom dinini qabul qilgan aholidan oddiy soliq yoki jiz'ya (jon solig'i) yig'ish masalasida chigallikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Umaviylar davrida arablarning mahalliy aholi tarafidan islom dinining qabul qilinishiga monelik qilishi kuzatildi. Chunki arablar ilk davrda talay imtiyozlarga ega edilar. Bu davr qoidalariga ko'ra, islom dinini qabul qilgan kishi jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo'lardi.

Ijodiy faoliyat

1. Manbalardan foydalangan holda Umaviylar davri xronologiyasini tuzib chiqing. Bunda aynan qaysi xalifalar O'rta Osiyo ijtimoiy-madaniy hayotida o'ziga xos iz qoldirgan?
2. Arab xalifaligi davrida yig'ilgan soliqlar, yig'imlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini og'irlashtirganligiga oid misollar keltiring.

Mulohaza uchun

Qutayba Ibn Muslim kim bo'lgan?

Qutayba ibn Muslim arab lashkarboshchisi bo'lib, 704- yili uni arab xalifasi Abdurahmon ibn Marvon Xurosonga noib etib yuboradi.

IX asr muarrixi Muhammad Narshaxiyning yozishicha, Qutayba ibn Muslim Shomning Boxila degan joyida tavallud topgan. Uning to'liq ismi-sharifi Amir Qutayba ibn Muslim ibn Umar ibn Husayn ibn Robiya ibn Xolid ibn Usayd Al-Xayr bo'lgan. Uning zimmasiga Xurosonda davlat ishlari bilan birga, mahalliy aholini Islomga da'vat qilish, masjid va madrasalar barpo ettirish yuklangan.

Xitoy va arab tilidagi solnomalarga ko'ra, Qutayba ibn Muslim g'ayratli va uddaburon lashkarboshi, adolatli hukmdor, xiyonatni yoqtirmaydigan, o'jar tabiatli, ilmli va she'riyatni qadrlovchi inson sifatida gavdalanadi.



Ma'lumot uchun

Arablar Turon zaminiga o'z madaniyatlari, urf-odatlari bilan bir qatorda mafkuraviy, diniy qarashlarini ham olib keldilar. Ular bu o'lkada o'zlarining siyosiy mavqelarini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor berdilar.

Arab xalifaligi ma'muriyati xristianlik dinidan tashqari barcha dinlar (zardushtiylik, shomonlik va moniylik dinlari)ni soxta dinlar deb e'lon qildi. Movarounnahrda mavjud bo'lgan ibodatxonalar buzib tashlandi.

Islom dinini qabul qilib, musulmon bo'lgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jiz'ya soliqlaridan ozod etildi. Islomni qabul qilmaganlar esa jon solig'i – jiz'ya to'laganlar.

Shunday bo'lsa-da, islomni qabul qilgan aholining ko'pchiligi nomigagina musulmon bo'lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o'z dini va e'tiqodlarida qolavergan.

Natijada islom dinini qabul qilishning yangi shartlari belgilab chiqildi. Unga ko'ra, musulmon bo'lganlar Qur'on suralarini yod olishlari shart edi. Arab tili, yo-

Ijodiy faoliyat

1. Xiroj va jiz'ya soliqlari kimlardan olingan?
2. Sug'd ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligidagi harbiy harakatlarning oqibati nima bilan tugadi?
3. Arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasida qon-qarindoshlik aloqalarining o'rnatilishi natijasida nimaga erishildi?

zuvi va xalifalik qonun-qoidalarining joriy etilishi mahalliy xalq orasida noroziliklarga sabab bo'ldi.

720-yilda Sug'd ixshidi G'urak va Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida arablarga qarshi harbiy harakatlar boshlandi. Sug'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari ham yetib kelgan. Ular arablarga qattiq zarba beradilar. Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Xuroson noibi Ashros islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir edi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'z chokarlari va kadivarlari bilan islomni qaytadan qabul qilib, arablar tomoniga o'tadilar.

Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik (quda-andachilik) aloqalari o'rnatiladi. Bunday siyosat natijasida arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi.

Ma'lumot uchun

Arab istilochilari Movarounnahrni osonlikcha egallay olmaganlar. Istilochilar deyarli yuz yil davomida uni juda katta kuch, mablag‘ va talafotlar evaziga qo‘lga kiritdilar. Aslida arab istilochilarining Movarounnahrdagi g‘alabasi xalifalik qudrati natijasi emas, balki Turon aholisining o‘z vaqtida dushmanga qarshi birlasha olmaganligi, mayda mulklarning o‘zini oqlamagan «mustaqil siyosati» va ularni birlashtiruvchi kuchlarning o‘z muammolari bilan band bo‘lib qolganligida edi.

Arablar istilosi davrida butun Turon mintaqasidagi siyosiy ahvol murakkab edi. Mintaqaning yetakchi kuchlari — Sharqiy va G‘arbiy Turk xoqonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli VI asr oxiri–VII boshlaridagidek barqaror emasdi. Bu, avvalo, turkiy davlatlar (Sharqiy Turk xoqonligi, G‘arbiy Turk xoqonligi va Turkash xoqonligi) o‘rtasida birlikning yo‘qligi hamda ularning Turon aholisiga dushmanga qarshilik ko‘rsatishida yordam berishlarida umumiy safarbarlik tashkil etmaganligi bilan izohlanadi.

Qudratli turk xoqonliklari tanazzuli nafaqat arab istilochilari uchun qo‘l keldi, balki azaliy raqib bo‘lgan Tan imperiyasi uchun ham ayni muddao bo‘ldi. Chunki Xitoy imperiyalari doimiy tahdid soluvchi turkiy davlatlarni yo‘q qilish, hech bo‘lmaganda, ularning mintaqadagi ahamiyatini tushirish uchun qulay fursat kutayotgan edi. Xitoy hurujlari bilan band bo‘lib qolgan Sharqiy va G‘arbiy turklar arab istilosiga qarshi kurashda o‘z ittifoqchilariga yetarli yordam berolmadilar.

Arablar qiyinchilik bilan mintaqadagi ozodlik harakatlarini sindirdi, mahalliy hukmdor va aslzodalarni o‘z tarafiga og‘dirib oldi va shu yo‘l bilan Turonni egallab, o‘lka aholisini islomlashtirishga erishdi.

Istilo jarayonida Arab xalifaligi: birinchidan, qo‘lga kiritilgan o‘ljalar hisobiga o‘z xazinasini to‘ldirdi, asirlar va garov olinganlar hisobiga harbiy yo‘qotishlarni qopladi; ikkinchidan, o‘lkani islomlashtirish orqali qadimiy va boy ma’naviy meros sohiblari bo‘lmish movarounnahrliklar islom dini, madaniyati va ilm-fani taraqqiyoti uchun xizmat qilishga qo‘shildi.

Arablar uchun o‘lkaning geografik o‘rni muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishi Xitoydan Sug‘dga, undan Eron orqali O‘rta dengiz sohillariga va arab dashtlariga olib chiqardi. Shu bois, istiloning ilk bosqichi talonchilikdan boshlangan. Qo‘lga kiritilgan boyliklarning qiymati va miqdori arab qo‘shinlarini hayratga solgan. Afsuski, o‘sha paytda o‘lkada mavjud xususiy va mahalliy iqtisodiy zaxiralar miqdori haqida ma’lumotlar saqlanib qolmagan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

Jamoalarga bo‘linib, olgan bilimlaringizni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil qiling va umumlashtiring. Arablarning kirib kelishi Turon hududida yashovchi xalqlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

1-jamoa Siyosiy hayotda

2-jamoa Ijtimoiy hayotda

3-jamoa Iqtisodiy hayotda

4-jamoa Madaniy hayotda

20-21-mavzular:

VIII ASRDA XUROSON VA MOVAROUNNAHR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi savollarga javob bering:

1. Umaviylar sulolasi vakillari musulmonlar tomonidan nimada ayblangan edi?
2. Abbosiylar kim edi? Ularning maqsadlari nima bo'lgan?
3. Qanday tarixiy sharoitda abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgan edi?
4. Xuroson hududiga hozirgi qaysi hududlar kirgan?

Ma'lumot uchun

VIII asrning 40-yillarida xalifalikda toj-u taxt uchun kurash kuchayadi. Bu davrda hukmronlik qilgan umaviylarga qarshi umumiy norozilik, ayniqsa, xalifa Marvon Muhammad hukmronlik qilgan davrda nihoyatda kuchaydi. Bunga xiroj solig'i miqdorining oshirib yuborilgani hamda aholining muttasil hasharlarga majburan jalb etilishi sabab bo'ldi. Umaviylarga qarshi kurashga da'vat qilish uchun abbosiylar turli viloyatlarga ko'plab targ'ibotchilarni yuboradi. Shunday targ'ibotchilardan biri kufalik Abu Muslim edi. U Xurosonga kelib, aholini payg'ambar (s.a.v.) avlodlarini quvvatlashga chaqiradi.

Dastlab arab zodagonlari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abu Muslimni qo'llab-quvvatlaydilar. Umaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson va Movarounnahr viloyatlariga keng tarqaladi. Mamlakat aholisi xalifalikka qarshi qo'zg'aladi. Abu Muslim tarafdorlarining deyarli barchasi qora libos kiyib olgan edilar. Avvalo, qora kiyim motam ramzi, qolaversa, zabardast kuch bayrog'i hamda shiddatli janglarda qo'zg'olonchilarni umaviy harbiylardan ajratib turadigan belgini anglatgan.

Abu Muslim aholini umaviylarga qarshi kurashga da'vat etadi. Tez orada Abu Muslim Xurosonning markazi Marv shahrini egallaydi.

Mulohaza uchun

Abu Muslim boshliq qo‘shinlar xalifalikning markaziy viloyatlari tomon yo‘l oladi va xalifalikning poytaxti Damashq shahrini qo‘lga kiritadi. Taxtga abbosiylar xonadonidan bo‘lgan Abul Abbos Saffoh ko‘tariladi.

Abu Muslim Bag‘dodda davlat va harbiy kuchlarning yuqori lavozimiga tayinlanadi. Biroq abbosiylar uning xalq orasidagi obro‘yining tobora ortib borishiga xayrixoh emas edilar. Oqibat Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrga noib qilib yuboriladi. Aholi o‘rtasida abbosiylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish kayfiyati paydo bo‘ladi. Bunday qo‘zg‘olonlardan biri Buxoroda sodir bo‘ldi. Abu Muslim mahalliy kuchlar yordami bilan qo‘zg‘olonni zo‘rg‘a bostiradi.

Abu Muslim – lug‘aviy ma’nosi «Muslimning otasi» deb tarjima qilinsa-da, mohiyati «eng yaxshi musulmon» demakdir.

750-yilda Abul Abbos Saffoh taxtga o‘tiradi. Arab xalifaligida davlat hokimiyati abbosiylar qo‘liga o‘tadi.

Ijodiy faoliyat

1. Abul Abbos Saffoh taxtga kimning qo‘llab-quvvatlashi orqali o‘tirdi?
2. Nima uchun Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrga noib qilib yuboriladi?
3. 751- yilda Turonda qanday siyosiy vaziyat yuzaga keldi? Bundan xitoyliklar qanday foydalanmoqchi bo‘ldilar?



751-yilda Talas yaqinidagi jangda asir tushgan xitoylik jangchilar hunarmandchilikdan xabardor bo'lib, o'z hayotlarini saqlab qolish niyatida mahalliy hunarmandlarga qog'oz ishlab chiqarish sir-sinoatlarini o'rgatishdi.

IX asrga kelib, qog'oz ishlab chiqarish shahar hunarmandchiligining eng muhim jabhalaridan biriga aylandi. Asta-sekin Samarqand qog'ozi butun Sharq va G'arb bozorlarini ham egalladi.

Mulohaza uchun

Sharqiy Turk xoqonligi Uyg'ur xoqonligi tomonidan tugatilgan. Bu vaziyatda Tan imperiyasining Turonga tahdidi kuchaydi. Farg'ona ixshidi va Choch maliki o'rtasidagi ixtilofdan foydalangan Xitoy 751-yilda Turonga yurish boshlaydi. Abu Muslim esa ularga qarshi Ziyod ibn Solih boshchiligida arab va turonliklardan iborat qo'shin jo'natadi.

Xitoy qo'shinlari tor-mor etildi. Bu arab xalifaligining mintaqadagi mavqeyini oshirdi.

Turonda arab xalifaligi va islom manfaatlari himoyachisiga aylangan Abu Muslimdan xavfsiragan xalifa uni saroyga chaqirtirdi va qatl ettirdi. Buning oqibatida Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlari avj olib ketdi.

Ma'lumot uchun

VIII asrning I yarmida Tan imperiyasi Buyuk ipak yo'lini egallash va bu yo'ldagi davlatlarni o'ziga bo'ysundirish uchun bir necha bor urushlar qilgan. Movarounnahrdagi murakkab ichki ahvol, Farg'ona hokimining Xitoydan yordam so'rashi bu yurishlarga bahona bo'lgan. Tan davlati 750-yil millati koreys bo'lgan Gao Syanchji (Gav Shanchji) qo'mondonligida katta qo'shin jo'natgan. Bu qo'shin farg'onaliklar bilan ittifoqlikda Chochni vayron qilib, katta o'ljani qo'lga kiritgan. Choch hokimi qatl qilingach, uning o'g'li arablardan yordam so'ragan. 751-yil iyul oyida arablarning Ziyod ibn Solih qo'mondonligi ostidagi qo'shini Gao Syanchjining xitoylar, farg'onaliklar, qashqarliklar, kucharliklar hamda qarluqlardan iborat yirik qo'shini bilan Talas daryosi bo'yida to'qnashgan. Talas jangi 5 kun davom etgan. To'qnashuv jarayonida Tan armiyasi tarkibidagi qarluqlar arablarga qarshi kurashdan bosh tortgan va xitoyliklar qo'shinining ort qismiga zarba berganlar. Xitoy qo'shini butunlay yakson qilingan. Gao Syanchji yordamchilari Li Siye va Duan Shoushilar bilan birga zo'rg'a qochib qutilgan. Asirga tushgan Xitoy jangchilari orasidan tanlab olingan hunarmandlar Samarqandga keltirilgan. Ular Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish sanoatining yanada rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. Xitoylik hunarmandlar hatto Mesopotamiya shaharlariga ham keltirilgan. Talas jangi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'ta muhim rol o'ynaydi. U Tan imperiyasining O'rta Osiyo hududini egallash yo'lidagi tajovuzkorona siyosatiga uzil-kesil chek qo'ygan.

Ma'lumot uchun



Bugungi kunda Samarqanddagi qog'oz ishlab chiqaruvchi korxona.

Qog'oz asosan tut daraxtining po'stlog'idan tayyorlangan.

Oq rangli «Samarqand sulton qog'ozi» o'zining yupqaligi, silliqligi va yumshoqligi bilan boshqa qog'oz navlaridan ajralib tursa, «Samarqand shoyi qog'ozi» sifat jihatdan undan qolishmaydi, rangi och sariq — novvot rangda bo'ladi.

«Miri Ibrohimiy» qog'oz turi yuzi oq rangdagi dumaloq suv tomchi izlari bilan qoplangan bo'ladi.

«Nimkanop» turi esa ipak qoldiqlari hamda po'stloq tolalari bilan qorishtirib tayyorlangani uchun dolchin rangda bo'ladi. Ushbu qog'oz turlarini yaratishda xomashyo sifatida paxta, ipak va tut daraxti po'stlog'idan keng foydalaniladi.

Xorazmda ishlab chiqarilgan kamonlar, Chochning sopol idishlari hamda Samarqand qog'ozlari Buyuk ipak yo'lida ayirboshlanadigan mollar ichida eng mashhuri va bebahosi bo'lgan.

Arab tarixchisi Maqdisiy

Ijodiy faoliyat

1. Tabiiy fanlardan olingan bilimlaringizga tayanib, bugungi kun qog‘ozni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishib chiqing. Mazkur jarayonni daftaringizga infografika tarzida yozing.
2. Nima deb o‘ylaysiz, nega Samarqand qog‘ozi butun Sharqda mashhur bo‘lib ketdi?
3. Qog‘oz ishlab chiqarish bugungi kunga qadar qanday ko‘rinish va bosqichlarga ega bo‘lgan?

Ma’lumot uchun



VIII asr oxirlarida Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olon «Oq kiyimlilar» qo‘zg‘oloni nomi bilan tilga olinadi. Bu harakatning rahbari Hoshim ibn Hakim ismli hunarmand bo‘lgan. U boshi va yuziga ko‘k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham uni «Muqanna», ya’ni «Niqobdor» laqabi bilan atashgan. Muqanna Xurosonda sarxanglik (kichik lashkarboshi)dan vazirlik darajasigacha ko‘tarilgan.

U Mazdak g‘oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da’vat etuvchi ta’limotni targ‘ib etgan.

Mulohaza uchun

VIII asrdan Turon o‘lkasidagi mahkama ishlarida mahalliy turkiy, xorazmiy, sug‘diy, boxtariy tillar va yozuvlar o‘rnini arab tili hamda yozuvi egallay boshladi. Arablar va islom dini ta’sirida mahalliy musulmonlar orasida islomiy ismlar rasm bo‘la bordi. Turonning ko‘pchilik aholisi asta-sekin islomni qabul qildi. Vaqt o‘tgan sayin esa ajdodlarimiz islom ta’limoti asoslarini yaratish va rivojlantirishda butun musulmon olamida peshqadamga aylana bordi.

Mazdakiylik – diniy-falsafiy ta’limot. Asoschisi Mazdak. Asosiy g‘oyasi mulkiy umumiylik, barcha narsalarning umumiy, teng bo‘lishi.

Muqanna o‘z yaqinlari bilan Kesh vohasidagi Som qal’asini o‘z qarorgohiga aylantiradi.

Bu yerda «Oq kiyimlilar» harakati kengayib, katta xalq qo‘zg‘oloniga aylanadi. U ayniqsa Sug‘dda avj olib, Iloq (Ohangaron) vodiysi va Shoshga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Qo‘zg‘olonda turli tabaqalar qatnashadi. Muqanna qo‘zg‘oloni 783-yilgacha davom etdi.

Narshax va Samarqandda «Oq kiyimlilar» yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar. 783-yilda Muqannaning Som qal’asidagi qarorgohi qamalga olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng qo‘zg‘olonchilar taslim bo‘ladilar. Istilochilarga taslim bo‘lishni istamagan Muqanna o‘z joniga qasd qiladi.

806- yilda Rofe ibn Lays boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olon Samarqanddan boshlanib Shosh, Farg‘ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm viloyatlariga tarqalgan. Tez orada mazkur viloyatlar xalifalik qo‘lidan ketadi. Xuroson noibi Ma’mun dehqonlardan bo‘lgan Somonxudotning nabiralari: Nuh, Ahmad va Yahyolardan iltimos qilib, ulardan yordam so‘raydi. Ular Rofe ibn Laysni qo‘lga olib, uni xalifaga taslim bo‘lishga majbur qiladilar. Shu tariqa navbatdagi xalq harakati ham bostiriladi.

Biroq, mahalliy xalqlarning istilochilarga qarshi kurashlari behuda ketmadi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflasha bordi. Bu hol Movarounnahr aholisining ozodlikka erishuvini tezlashtirdi.

Ijodiy faoliyat

1. Manbani oq'ing. Muqannaning harakatlariga baho bering.
2. Muqanna o'z maqsadiga yetish uchun nimalardan foydalandi?
3. Nima uchun Arab xalifaligi davri tarixchilari Muqanna shaxsiga salbiy baho berganlar?

Manbalarda

Muqanna Marv atrofi aholisidan, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudungarlik (matolarni bo'yash) qilar edi, keyin esa ilm o'rganishga mashg'ul bo'ldi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgandi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib oldi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib qadimgi (olimlar) ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan edi. Uning otasining nomi Hakim bo'lib, u Abu Ja'far Davonaqiy davridagi Xuroson amiri lashkarboshilaridan biri edi. U Balxdan chiqqan edi.

Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Muqanna Abbosiylar da'vatchisi Abu Muslim zamonida Xuroson lashkarboshilaridan biri bo'lib, vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi va bir qancha vaqt shu da'voda turdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib, uni Marvdan Bag'dodga oldirib keldi va bir necha yil davomida zindonda tutdi. Shundan keyin u zindondan qutulib, yana Marvga qaytib keldi va odamlarni yig'ib: «Mening kim ekanimni bilasizmi?» – deb so'radi. Odamlar: «Sen Hoshim ibn Hakimsan», – dedilar. U: «Yanglishdingiz, men sizning va butun olamning xudosiman»... va yana: «O'zimni qanday nom bilan atashni istasam atay beraman», – dedi hamda: «Men xalqqa o'zimni Odam (Ato) suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so'ng Iso suratida, keyin Muhammad mustafo (s.a.v.) suratida, keyin Abu Muslim suratida ko'rsatgan zotman, endi esa mana o'zingiz ko'rib turgan suratdaman», – dedi. Odamlar: «Boshqalar payg'ambarlik da'vosini qilgan edilar, sen esa xudolik da'vosini qilayapsan», – dedilar. Muqanna: «Ular nafsoniy edilar, men esa ruhoniyman va ularning (badanlari) ichida edim, menda shunday qudrat borki, o'zimni qanday suratda ko'rsatishni istasam, shunday suratda ko'rsata beraman», – dedi.

Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobidan

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

VIII asrda Movarounnahr va Xuroson hududidagi voqealarni Jahon tarixi fanidagi voqealar bilan bog‘lang:

1. Bu davrda Yevropa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qanday edi?
2. VIII asrda Movarounnahr va Xurosondagi o‘zgarishlar tub yerli aholining aynan qaysi sohasiga katta ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz? Fikringizni dalillar bilan asoslashga harakat qiling.
3. Arab bosqinchiligi yana qanday sohalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan edi? Bugungi kunimiz bilan bog‘lagan holda tushuntirishga harakat qiling.
4. To‘plagan ma’lumotlaringiz asosida taqdimot tayyorlang.

22-23-mavzular:

QARLUQLAR, O‘G‘UZLAR, TOHIRIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Movarounnahr va Xurosonda uzluksiz davom etgan o‘zaro ichki ziddiyatlar Arab xalifaligi boshqaruviga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
2. VI–X asrlarda Buyuk ipak yo‘li qaysi hududlardan o‘tgan edi?

Qarluqlar yurtida poytaxtdan tashqari Jo‘l, Navkat, Karmankat, Yor kabi shaharlar va qator qishloqlar qad ko‘targan.

Mulohaza uchun

Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo‘zg‘olon ko‘tarib turishi, uzluksiz davom etgan o‘zaro urush va ichki ziddiyatlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi. Bu esa mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Mulohaza uchun

Qadimda Oltoyning g‘arbida, so‘ngra Irtish daryosining o‘rta oqimida yashagan *qarluqlar* turkiy qabilalardan hisoblangan.

VI–VII asrlarda ular Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VIII asr o‘rtalarida Yettisuv o‘lkasida Qarluqlar davlati tashkil topdi. Bu davlatning poytaxti Chu daryosidan shimolroqda joylashgan Suyob shahri edi. Qarluqlar davlati hukmdori «yabg‘u» yoki «jabg‘u» deb yuritilgan.

X asr o‘rtalariga borganda qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo‘lgan. Qarluqlar davlati shimol va sharqdan Elsuvi daryosi vodiysigacha, chigil qabilasi yaylovlarigacha; g‘arbdan o‘g‘uz yurti va Farg‘ona vodiysi; janubda esa yag‘molar vohasi va Sharqiy Turkiston bilan chegaralangan.

Aholi chorvachilik, tog‘ jilg‘alari bo‘ylarida esa dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Sharqiy Turkiston va Movarounnahr bilan savdo-sotiq olib borgan. Chetga asosan jun va junli mahsulotlar: gilam, sholcha, namat kabilar olib chiqilgan. X asrda qarluqlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallagach, Shosh atrofi va Farg‘ona hamda Zarafshon vodiylariga kelib o‘rnashgan. Keyinchalik o‘troq tarzda yashaydigan mahalliy aholiga singib ketgan.

G‘arbiy Turk xoqonligining tanazzulidan keyin tashkil topgan yirik etnik uyushmalardan biri o‘g‘uz (arab-fors manbalarida guz) etnosi bo‘lgan.

Qarluq zodagonlari

Ijodiy faoliyat

Jahon tarixidan olgan bilimlaringiz asosida saljuqiylar yashagan hudud va ular boshqargan davlat qaysi davlatlar bilan chegaradoshligini aniqlang.

O‘g‘uzlar – Turon hududida yashagan turkiy qabila.

Mulohaza uchun

Turk xoqonligi hukmronligi davrida o‘g‘uzlar uning tarkibida bo‘lgan. Turk xoqonligi yemirilgach, o‘g‘uzlarning kattagina qismi Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo‘yida muqim o‘rnashib olganlar. Ular IX asr oxiri va X asr boshida *O‘g‘uzlar davlatiga* asos soladilar.

Sirdaryo quyi oqimi bo‘yidagi Yangikent shahri O‘g‘uzlar davlatining poytaxti bo‘lgan. X asrdan boshlab o‘g‘uzlar islom dinini qabul qiladilar.

X asrning birinchi choragida O‘g‘uzlar davlati shimoli sharqdan qo‘zg‘algan qipchoqlar tomonidan berilgan qaqshatqich zarba natijasida, bo‘linib ketadilar. Ular o‘z yurtini tark etib, bir qismi Shimoliy Kavkaz dashtlariga borib o‘rnashadi. Ularning ikkinchi qismi esa avval Movarounnahrga kirib boradi va yangi sulola –



saljuqiylar boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi.

Bu ikki turkiy davlat faqat Movarounnahrninggina emas, balki butun O‘rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davlatlarning aholisi shu hududda yashovchi xalqlarning etnik tarixiga ta’sir qildi. Masalan, qarluqlar o‘zbek va tojiklarning, o‘g‘uzlar turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o‘ynadi.

Qadimgi o‘g‘uzlar

O‘g‘uz otlig‘i

Tohiriylar – Xurosondagi Tohiriylar davlatida hukmronlik qilgan sulola (821–873). Rasman abbosiylarga qaram hisoblangan. Sulolaga 821- yil Tohir ibn Husayn asos solgan.

Ma’lumot uchun

VIII asr oxiri – IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og‘ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o‘zgartirishga majbur etdi.

Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o‘z tasarruflariga o‘tkazib oldilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko‘proq rol o‘ynay boshladilar.

Bunga, ayniqsa, xalifa Horun ar-Rashid (786–809) vafotidan so‘ng uning o‘g‘illari Ma’mun bilan Amin o‘rtasida 809–813-yillarda taxt uchun bo‘lgan kurash ham katta yo‘l ochib berdi.

Xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko‘taradilar. Bundan norozi bo‘lgan Ma’mun ukasi Aminga qarshi kurash boshlaydi. Hirot viloyatining zodagonlaridan Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam beradilar.

813-yilda ular Bag‘dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo‘lga kiritilib, Ma’mun xalifalik taxtiga o‘tiradi. Buning evaziga Tohir 821-yilda Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Shuningdek, Ma’mun Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmadi. Somonxudotning nabiralarini shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. Nuhga Samarqand, Ahmadga Farg‘ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta qismini tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar.

Tohir ibn Husayn Hirot yaqinidagi Bo‘shang shahri hokimi bo‘lib, 811-yili Ray yaqinida xalifa Aminning Ali Moxon ismli sarkardasini mag‘lub etgan. Jangda ko‘rsatgan jasorati tufayli unga «Zul yaminayn» (Ikki qo‘lda kurashuvchi) faxriy taxallusi berilgan.

Tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda og‘irligicha qolaverdi. Mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og‘ir soliqlaridan bezor bo‘lgan xalq qo‘zg‘olon ko‘taradi. Ularga «g‘oziylar» ham qo‘shiladilar. Qo‘zg‘olonga safforiylar – misgar hunarmand aka-uka Ya’qub va Amr Layslar boshchilik qiladilar. Qo‘zg‘olonchilar 873-yilda Xuroson poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, hokimiyat *safforiylar* qo‘liga o‘tadi.

Tohiriylar tanga puli

Safforiylar – Safforiylar davlatida hukmronlik qilgan sulola. Safforiylar nomi uning asoschisi Ya’qub ibn Lays as-Saffor nomidan olingan. Safforiylarning yirik hukmdorlari: Ya’qub ibn Lays (873–879); Amr ibn Lays (879–900)

Ijodiy faoliyat

1. Horun ar-Rashid va Ma’mun bilan Amin haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
2. Ma’mun akademiyasi haqida eshitganmisiz? Nima uchun akademiya Ma’mun ismi bilan bog‘liq?

Manbalarda

Rofe ibn Lays Horun ar-Rashidga qarshi xuruj qilib Samarqandni olganida Horun ar-Rashid Harsama A'yaini Rofe ibn Laysga qarshi urushga yubordi. Rofe Samarqandni hisor qildi va Harsama uni qo'lga olishdan ojiz qoldi. Bu hodisa sabab Ma'mun Horun ar-Rashid bilan birga Xurosonga kelgan va Horunning dili shu ish bilan g'oyat darajada mashg'ul edi.

Ma'mun mahalliy zodagon Asadning o'g'illariga xat yozib, ularga Rofe bilan urushda Harsamaga yordam berishni buyurdi. Asad o'g'illarining da'vatiga ko'ra Rofe Harsama bilan sulh tuzdi va ular o'rtasida qu-da-andalik vujudga kelib, Horun bu ishdan xotirjam bo'ldi. Rofening butkul Xurosonni olib qo'yish xavfi bor edi, (shuning uchun) bu sulhning tuzilishi Ma'mun uchun juda yoqib tushdi. Horun mana shu safar vaqtida Tusda vafot etdi.

Ma'mun xalifalikka o'tirgach, Asad ibn Somonxudotning o'g'illariga o'sha qilgan yaxshiliklari evaziga bittadan e'tiborli shaharni berdi... G'asson Xuroson amirligidan bekor etilib, Tohir Husayn Xuroson amiri bo'lganda ham Tohir u viloyatlarni Asadning o'g'illari qo'lida qoldirdi va ularning eng kattasi bo'lgan Nuh ibn Asadga sarpo kiygizdi.

Abu Bakr Narshaxiy, «Buxoro tarixi»

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Nima sababdan IX–X asrlarda Turon hududidagi aholining etnik shakllanishida qarluq va o'g'uzlarning ta'siri kuchliroq bo'ldi?
2. Sinfdoshlaringiz bilan to'rt jamoaga bo'linib, quyidagi jadval asosida ma'lumotlarni tahlil qiling.

Qarluqlar	O'g'uzlar	Toxiriylar	Safforiylar
Kelib chiqishi.....	Kelib chiqishi.....	Kelib chiqishi.....	Kelib chiqishi.....
Ijtimoiy tizimi.....	Ijtimoiy tizimi.....	Ijtimoiy tizimi.....	Ijtimoiy tizimi.....
Tarixiy ahamiyati.....	Tarixiy ahamiyati.....	Tarixiy ahamiyati.....	Tarixiy ahamiyati.....

24-25-mavzular:

SOMONIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Jahon tarixi fanidan olgan bilimingizga tayanib, IX asr boshlarida Arab xalifaligining zaiflashib qolishiga qanday omillar sabab bo'lganligini ayting?
2. Nima sababdan Somonxudotning nabiralari hududlarga noib qilib tayinlangan edi? Bu hududlarni xaritadan ko'rsating.

Mulohaza uchun

IX asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri hukmronligi davrida o'z nomlaridan misdan chaqalar zarb etadi. Ahmad vafotidan keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralarini ko'radi.

IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi va Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi. Uning nomi bilan kumush dirham zarb etiladi.



Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro. X asr.

Somoniylarning kelib chiqishi

Manbalarda Somonxudotlarning kelib chiqishi haqida turli ma'lumotlar keltirilgan. Ko'pchilik manbalarda aytilishicha, ularning shajarasi sosoniy shohanshohi Xurmazd IV (579-590)ning harbiy qo'mondoni Bahrom Chubinga (VI asr) borib taqaladi. Bahrom Chubin avval Armaniston va Ozarbayjon, keyin esa Ray va Xuroson noibi etib tayinlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Chubin kelib chiqishi bo'yicha sosoniylar xizmatidagi o'g'uz turklaridan bo'lgan. Uning avlodlari Balxda yashab, shu yerdan Xuroson va Movarounnahrning turli hududlariga noib etib yuborilgan.

Mulohaza uchun

Ko‘p o‘tmay aka-uka Nasr va Ismoil o‘rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. 888-yilgi jangda Ismoil g‘olib chiqadi. Lekin u akasi vafotiga qadar o‘z mulkida, keyin esa butun Movarounnahrda hukmron bo‘lib oladi.

Ismoil Somoniy Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoliy-sharqiy hududlarga yurish qildi. Tez orada Taroz shahrini zabt etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi, arab xalifalariga yoqmas edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to‘qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o‘z ta’sirini qayta tiklashga harakat qiladi.

Xalifa Mu’tazid safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi. Bu bilan uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. Natijada ular o‘rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g‘alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo‘l ostiga o‘tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ladi.

Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o‘z qo‘l ostida birlashtirdi. Buxoro shahri bu davlatning poytaxtiga aylandi.

Ijodiy faoliyat

Geografiya fanidan olgan bilimingizga tayanib, Farg‘ona, Isfijob (Sayram), Choch, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag‘oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G’azna shaharlari joylashgan hududlar xaritasini chizing. Bu hududlarning maydonini hisoblang. Zamonaviy xarita bilan taqqoslang. Ismoil Somoniy tomonidan qaysi hududlar mamlakat tarkibiga kiritildi?

Somoniylar davlati xaritasi

Somoniylar davrida Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Somoniy Registonga bir saroy (qurishni) buyurdi. G'oyatda go'zal bir saroy qurdilar. (Amir) bunga ko'p mol sarfladi. U o'z saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishga buyurdi, uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z saroyida alohida devoni bor edi; masalan: vazir devoni, moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy ish boshqaruvchisi devoni, davlat xos mulklari devoni, muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni. (Amir) mana shu tartibda devonlar qurishga buyurdi va ularni qurdilar.

Abu Bakr Narshaxiy
«Buxoro tarixi»

Mulohaza uchun

Somoniylar mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham boshqaruv ma'muriyatini tashkil etdilar. U amir dargohi va devonlar (vazirliklar)dan iborat edi.

Dargohda amir qarorgohi hamda saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarining turar joylari bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, Somoniylar davlati asosan o'nta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanardi. Nasr ibn Ahmad (Nasr II) davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, mahkama mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari Qur'on ilmlari va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, arab, fors, turk tillarini puxta egallagan, turli fanlardan xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.

Mulohaza uchun

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish, zamona huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlaridagi bilimdonlik va hokazo. Ismoil Somoniy saroyning maxsus muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo'shin tuzadi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar «hojib» lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul-hujob» yoki «hojibi buzruk» deb yuritilar edi. Bunday unvon Somoniylar saroyida oliy unvon hisoblangan.

Lashkar ikki toifaga bo'lingan: doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar (gvardiya) va zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismlardagi xizmat kamida sakkiz bosqichdan iborat bo'lib, oddiy piyoda askarlikdan visoqboshi, ya'ni to'rt kishidan iborat guruhga boshliq darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishiga to'g'ri kelgan. Keyin u haylboshi (kichik qo'shin boshlig'i) maqomini egallashi mumkin bo'lgan. Bu darajaga tegishli tartib-intizom, talablar doirasida xizmat qilingandagina erishish mumkin edi.

Ismoil Somoniyning vafotidan so'ng siyosiy boshboshdoqlik avjiga chiqib, markaziy hokimiyat mavqeyiga putur yetishi mintaqaning Yettisuv va Qoshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola — *qoraxoniylarning* kuchayib borishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgandi. Natijada X asr oxirida hokimiyat qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Qoraxoniylar mintaqaning Yettisuv, Qoshg'ar, Movarounnahr kabi qismlari ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. Xuroson, G'azna kabi viloyatlar esa xuddi shu davrdan boshlab mintaqada shakllangan yana bir siyosiy sulola — *g'aznaviylar* tobeligiga o'tgan edi.

Somoniylar hukmdori jangda.
San'at asari

Ijodiy faoliyat

1. Nima sababdan Ismoil Somoniy davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar ishlab chiqqan? Siz yana qanday talablar qo'ygan bo'lardingiz?
2. «Turon xalqlari harbiy san'ati» mavzusidagi ma'lumotlar asosida Somoniylar davridagi harbiy hayotni tahlil qiling, umumiy va farqli jihatlarini aniqlang.
3. Bu davrda Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlarida harbiy boshqaruv qay ko'rinishda edi?

Mulohaza uchun

IX–X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko‘ra, o‘z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a’zolariga ijaraga berishni afzal ko‘radilar. O‘sha zamonda ijarachilar «barzikor» yoki «qo‘shchilar» deb atalardi. Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, qo‘shchilardan ham alohida-alohida olinar edi.

Somoniylarning harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning o‘zboshimcha harakatlari borgan sari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik yuzaga keldi. Hatto harbiylar, shu jumladan, amirning muntazam turk sarbozlari qo‘shiniga maosh to‘lash uchun mablag‘ topilmaydi. Bunday og‘ir ahvoldan chiqish uchun aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Behad tartibsizlik mamlakatdagi vaziyatni yanada keskinlashtirib, aholi turli tabaqalarining hokimiyatga qarshi qo‘zg‘alishiga sabab bo‘ladi.

Nasr Ahmad tangasi

Somoniylar otlig‘i

Ismoil Farg‘onada 849-yilda tug‘ilgan. 14 yoshida otasi Ahmad vafot etib, akasi Nasr qo‘lida qoladi. Manba tili bilan aytganda «aqlli, adolatli, fikr va tadbir egasi» bo‘lmish Ismoil, 892-yili butun Movarounnahr hukmini o‘z qo‘liga olishga erishib, «haqiqatan ham podshohlikka loyiq va haqli» ekanini isbotlaydi...

Ismoil davlatchiligimiz tarixidagi tajriba va an’analarni uddaburonlik bilan davom ettira bilgan davlat arbobi hisoblanadi. U, eng avvalo, mamlakatimiz siyosiy birligini ta’minlash ishiga bel bog‘lab, Farg‘ona, Isfijob, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chag‘oniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson, Seyiston, G‘azna kabi qator viloyatlarni o‘z hukmi ostida birlashtirdi...

Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvaffaq bo‘lgan.

Azamat Ziyo,
«O‘zbek davlatchiligi tarixi»

Somoniylar davriga oid idish

Mulohaza uchun

Somoniylarning harbiy qismlarida, ma'muriy lavozimlarida turklar xizmat qilganlar. Turkiy qullar boshqa mamlakatlarga savdoga chiqarilgan. Qul qochib ketsa, uni hech kim qidirmagan.

Somoniylar xizmatida ham turkiy qullar oz bo'lmagan. Bularning ichidan viloyat hokimlari, harbiylar, hatto davlat boshliqlari yetishib chiqqan: Samjuriy, Alptegin, Tosh, Foyiq va boshqalar shular jumlasidan.

Alptegin somoniylarning sobiq quli, keyinchalik yirik harbiy sarkarda, Xuroson viloyatining hokimi va yirik yer egasi bo'lgan. U boyib, Xuroson va Movarounnahrda joylashgan qishloqlarni sotib olgan, har bir shaharda qasri, hovli-joylari, karvonsaroylari mavjud bo'lgan. Alpteginning Nishopur bozoridan sotib olgan Sabuk (keyinchalik Sabuktegin) ismli yana bir quli o'z iste'dodi bilan yirik harbiy sarkarda darajasiga ko'tarilgan.

Ijodiy faoliyat

1. Alptegin va Sabuktegin taqdirida qullarga bo'lgan munosabatni ifodalang.

2. Bu davrda qullarga bo'lgan munosabatni Qadimgi Misr, Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistondagi quldorlik tizimi bilan solishtiring.



Mulohaza uchun



X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklarni in'om qilish boshlanadi. Bunday mulk «iqto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida hatto ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqali zodagonlar: sulola a'zolari – amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Bunday mulk avvaliga bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar o'ziga in'om qilingan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning ma'lum qismini o'zlariga olish huquqiga ega bo'lganlar.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

Jamoaviy mashg'ulot:

1. Turon hududida o'rta asrlarning ilk davridagi yerga egalik qilish shakllarini eslang. Ularni somoniylar davridagi yerga egalik qilish ko'rinishlari bilan solishtiring. Olgan ma'lumotlarni tahlil qiling, umumiy va farqli jihatlarini sanab bering.
2. Yevropada bu davrda yerga egalik qilishining qanday ko'rinishlari bor edi?
3. Ikki hududdagi yerga egalik qilish shakllarining farqli va umumiy jihatlarini jadval ko'rinishida solishtiring.

26-27- mavzular:

SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

Iqtisodiy hayotning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? Fikr bildirishingizda *tinchlik, rivojlanish, ilm, intilish, bag'rikenglik* kabi so'zlardan foydalaning.

Mulohaza uchun

Somoniylar davrida Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari, Choch, Xorazm, Xuroson viloyatlarida dehqonchilik ishlari yuksak saviyada amalga oshirilgan. Bug'doy, arpa, sholi, paxta, tariq, zig'ir, kunjut, kanop, no'xot, mosh, yasmiq, beda kabi qator ekinlar yetishtirilgan.

Yerga ishlov berish samarasi natijasida hosildorlik juda yuqori darajada bo'lgan. Bog'dorchilik, xususan, uzumchilik va polizchilik sohalarida ham yutuqlar shu kabi edi. Uzumning o'nlab navlari, mevalardan olma, shaftoli, o'rik, nok, anjir, behi, olcha, olxo'ri, anor, bodom, yong'oq, poliz ekinlaridan qovoq, qovun (ayniqsa Buxoro qovunlari mashhur bo'lgan), sabzavotlardan baqlajon, sabzi, piyoz kabilar yetishtirilgan.

Dehqonchilik solig'i – xirojdan xazinaga tushadigan daromad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplar edi. Shuning uchun ham somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda ot-ulovdan yana qanday maqsadlarda foydalaniladi?
2. Agar dehqonchilik solig'idan tushadigan daromad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplasa, davlat dehqonchilikka qanday munosabatda bo'ladi?

Movarounnahr viloyatlarining ichida eng ko'p nufuzli hudud Farg'ona vodiysi bo'lganligini tushunib olish qiyin emas. Farg'ona viloyatida ko'plab shaharlar bo'lgan. Uning poytaxti shu davrlarda Axsikent bo'lib, shaharning kattaligi (aylanmasiga) 3 farsang masofaga cho'zilgan, uning ichida bog', kanallar va bir qancha hovuzlar bo'lgan. Axsikentning atroflarida (devordan tashqarisida) ham bog'lar, daraxtzorlar mo'l bo'lib, ular bir-birlaridan uzilmasdan 2 farsang masofagacha cho'zilib ketgan.

Istaxriy (arab geografi)

Somoniylar davriga oid siyohdon

Farsax yoki farsang – taxminan 6 kmga teng masofa o'lchov birligi. Amalda farsax uzunligi turli hududlarda farqlangan. Markaziy Osiyoda bu masofa odatda qadamlar bilan o'lchangan va 12 000 qadamga teng bo'lgan.

Ma'lumot uchun

Bu davrda shaharlarning umumiy qiyofasi tubdan o'zgaradi. Turon xalqlari va arab madaniyatining qorishuvi natijasida katta-katta gumbazli toq-u ravoqli va peshtoqli imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko'tardi. Shaharlar hunarmandchilik markaziga aylandi.

Samarqandda yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi. Shosh o'zining ko'nchilik mahsulotlari va charm mollari bilan, Iloq esa kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi.

Xorazmda qayiqsozlik taraqqiy topadi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib, savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilgan. Bu davrda shaharlar bilan bir qatorda qishloqlar ham mamlakatning iqtisodiy hayotida katta o'ringa ega edi. Buxoroning Zandana qishlog'ida to'qilgan mallarang bo'z «zandanichi», Samarqandning Vador qishlog'ida tayyorlangan mato «vadoriy» nomlari bilan Sharqda mashhur edi.

Ma'lumot uchun

Tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilgan. Savdogarlar o'zi bilan ko'p miqdorda pul olib yurmas edilar. O'z pullarini ular shahardagi sarroflardan biriga topshirib, undan tegishli hujjat – chek olardilar. Mo'ljallangan shaharga borishlari bilan shu chekni sarrofga berib, unda ko'rsatilgan miqdordagi pulni to'laligicha qaytarib olish mumkin edi.

Ichki bozorlarda «fals» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdo-sotiqda esa kumush tanga – dirhamlar ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, shuningdek, sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi viloyat hokimlari ham chiqarar edilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan Marv, Samarqand, Buxoro va Shoshdagi davlat zarbxonalarida so'qilar edi. Somoniylar «ismoiliy», «muhammadiy» nomlari bilan yuritilgan bir necha xil kumush dirhamlar chiqargan edilar. Ular orasida «ismoiliy» tangasi yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, ular asosan xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan.

Somoniylar davriga oid idish

«Chek» so'zi forscha atama bo'lib, o'sha vaqtda ham bu so'z ayni ma'noda ishlatilgan.

Ijodiy faoliyat

Savdogarlar o'z pullarini shahardagi sarroflardan, ya'ni pul almashtiruvchilardan biriga topshirib, undan tegishli hujjat – chek olardilar. Ushbu harakat sizga bugungi kundagi qaysi tizimni eslatdi?



Mulohaza uchun

Pishiq g‘isht ma’muriy va jamoa binolari qurilishida asosiy material bo‘lib qoldi. Turar joy binolari qurilishida esa sinchli konstruksiya keng tarqaldi. Pardoz ishlarida somonli loy suvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar, sirlangan koshin va naqshlar o‘yilgan sirlangan yaxlit pishirilgan sopol taxtachalar — parchin (mayolika) ishlatish usuli kashf etildi.

Eng qadimiy obidalardan Qadimiy Xorazmdagi Qavat qal’a, Samarqand (Afrosiyob)dagi somoniylar qasrining bir qismi va Termiz yaqinidagi Qirqqiz qal’asini qayd etish mumkin. Bularning har uchalasi ham xom g‘isht va paxsadan bunyod etilgan. Afrosiyobdagi somoniylar qasrining bir qismi hisoblanuvchi binoning old tomoni yogoch ustunli, peshayvonli bo‘lib, o‘rtada tomi gumbaz bilan yopilgan katta xona va uning ikki yonida yana qo‘shimcha xonalari bo‘lgan. Asosiy zal ohaktoshli ganchning ichiga tolasimon o‘simliklar qo‘shilgan materialdan juda nafis o‘ymakorlik usulida hashamdor qilib ishlangan.

Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro.

Termiz yaqinidagi qariyb 1000 yil avval qurilgan Qirqqiz qal'asi o'zining konstruktiv va me'moriy yechimlari bilan mutaxassislarni lol qoldirmoqda. Uning tarxi kvadratga yaqin ko'rinishda bo'lib, to'rt burchagida to'rtta guldastasimon burjlari bor.

Pishiq g'ishtdan ishlangan dastlabki imoratlar qatorida Buxoroda saqlanib qolgan Somoniylar maqbarasini misol keltirish mumkin. Bu inshoot Ismoil Somoniy davrida qurilgan deb hisoblanadi. Turon me'morchiligi durdonasi bo'lgan bu maqbara kubsimon hajmda bo'lib, tomonlarining tashqi uzunligi 10 metrga yaqin. Nihoyatda jozibador ishlangan bu binoning ichki tomonlari 7,2x7,2 metr bo'lib, usti gumbaz tarzida yopilgan.

Somoniylar maqbarasi qadimgi Eron va Turon me'morchiligida ma'lum bo'lgan «chortoq» kompozitsiya tipini tashkil etadi. Binoning qurilishida turli o'lchamdagi pishgan g'ishtlardan foydalanilgan.

* **Madrasa** (arabcha – o'rganmoq) – musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti.

* **Vazir** – devonxona boshlig'i, bosh vazir.

* **Ulamo** – din olimlari.

* **Hojib** – harbiy unvon.

* **Xonaqoh** – g'aribxona, musofirxona.

Somoniy maqbarasining ichki ko'rinishi

Qirqqiz qal'asi. Termiz

Ma'lumot uchun

Shimoliy yo'l orqali Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonga Movarounnahrning shahar va qishloqlaridan bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, qilich, idishlar, zargarlik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut va zig'ir moyi kabi mollar olib borilgan. Sibirdan turli xildagi qimmatbaho mo'ynalar, chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilgan.

Xitoy bilan bo'lgan savdoda choy, ipak mato, tuz va ot muhim o'rinda turgan. VII–VIII asrlarda choy asosiy import mahsulotlaridan biriga aylangan. Xitoycha «cha» yoki «ming» deb yuritilgan xushbo'y choy o'simligi va uning seleksiyasi bu davrda Sharqiy Turkiston orqali Turkiston diyoriga, so'ngra esa boshqa mamlakatlarga keng tarqalib, aholining maishiy hayotida kundalik iste'mol etiladigan chanqovbosdi benazir ichimlikka aylangan.

Itil, Xazar va Bulg'orga Movarounnahr va Xorazmdan guruch, quruq mevalar, shirinliklar, tuzlangan baliq, paxta, shoyi matolar, movut, kimxob va gilamlar olib borib sotilgan. Bulg'or va Xazardan qimmatbaho mo'ynalar, shamlar, cho'qqi qalpoqlar keltirilgan.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda karvon yo'llarining savdodagi ahamiyati qanday edi, deb o'ylaysiz?
2. Bu davrda Yevropa va Osiyo davlatlari va shaharlari o'rtasidagi savdo munosabatlari qanday yo'lga qo'yilgan edi? Tashqi savdo aloqalarida Yevropa faol edimi yoki Osiyo?
3. Savdo orqali yana qanday ijtimoiy munosabatlar rivojlangan?
4. Savdogarlar savdodan tashqari yana qanday vazifalarni bajargan?



Somoniylar tangalari
Buxoroda zarb etilgan

Ma'lumot uchun

Movarounnahrning ravnaqida islom dini bilimdonlarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'yi oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome masjid, xonaqoh va namozgohlar bino qilindi. Bu davrda Buxoro shahrida Turondagi ilk madrasa bunyod etiladi. Keyinchalik VIII–X asrlarda ko'plab madrasalar qurildi.

Mamlakat ma'naviy hayotiga «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilgan. Keyinchalik bu nom «shayx ul-islom» nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin xatiblar turardi.

Somoniylar masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-xarajatlari uchun katta-katta mulklar ajratib berganlar. Islom dini ravnaqi, Turon aholisining ma'naviy dunyoqarashida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Somoniylar davrida qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlangan?
2. Somoniylar davrida ichki va tashqi savdoda qanday pul birliklari ishlatilgan?
3. Yer egaligining qanday turlari mavjud bo'lgan? Barzikorlar va qo'shchilar kimlar edi?
4. Somoniylar hokimiyatini inqirozga olib kelgan sabablar nimalardan iborat bo'lgan? Uning oldini olish uchun nimalar qilish mumkin edi?

28-29-mavzular:

G‘AZNAVIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Somoniylar davrida «hojib ul-hujob» yoki «hojib ul-buzruk» lavozimlariga kimlar tayinlangan? Bu lavozim egalari qanday vazifani amalga oshirganlar?
2. Siz nima deb o‘ylaysiz, davlatda harbiy va mudofaa ishlarining nazorati kimning qo‘lida bo‘lishi kerak?



Alptegin haykali

Ma’lumot uchun

Mamlakatda vujudga kelgan og‘ir davrda Somoniylar davlatidagi turk hojiblaridan iborat saroy qo‘shinining siyosiy nufuzi nihoyatda kuchaydi. Chunki harbiy va mudofaa ishlari to‘la ular qo‘lida edi.

Turkiy sarkardalarning xizmatlari evaziga somoniy amirlari aksariyat iqtidorli lashkarboshilarni «hojib ul-hujob» yoki «hojib ul-buzruk» kabi oliy harbiy mansablarga tayinladi. Ularga hatto ayrim viloyatlarni boshqarish huquqi beriladi.

962–963-yillarda G‘azna viloyatini Alptegin noib va lashkar amiri sifatida boshqargan. U G‘azna va Kobul viloyatlarini mustaqil idora etishga intilib, G‘aznaviylar davlat boshqaruvini qo‘lga oldi. G‘azna shahri davlat poytaxti bo‘ldi. Sulola nomi saltanatning poytaxti G‘azna shahri nomidan olingan. G‘aznaviylarning siyosiy nufuzi Sabuktegin davrida (977–997) ortib, somoniylar tomonidan e’tirof etilgan.

Bilasizmi?

G‘azna – Afg‘onistonning janubi-sharqiy qismidagi shahar. G‘azni daryosi bo‘yida, Kobul–Qandahor avtomobil yo‘lida joylashgan. G‘azni viloyatining ma’muriy markazi. Metallsozlikning qadimiy markazlaridan. Hunarmandchilikda gilam, palos, poyabzal, ip gazlama matolari va boshqalar tayyorlangan. Jun, mo‘yna bilan savdo qilingan.

Sabuktegin asli Sirdaryo bo‘ylarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo‘lib, yoshligida asir olinib, so‘ngra qul qilib sotilgan edi. Somoniylar turkiy qo‘shini boshlig‘i Alptegin uni o‘z qaramog‘iga olgan. Somoniylar davlatining turkiy askarlar qo‘shinida xizmat qilgan Sabuktegin G‘azna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Bu vaqtga kelib Somoniylar sulolasi inqirozga yuz tutib, Sabuktegin rasman noib bo‘lsa-da, aslida o‘zini mustaqil hokimdek tuta boshlaydi.

Shijoatkor sarkarda Sabuktegin dushmanlarga qarshi kurashda somoniylarga yordam berdi va «Nosiriddin ad-davla» (Davlat va din himoyachisi) degan sharafli nomga sazovor bo‘ldi.

Sabukteginning o‘g‘li bo‘lgan Mahmud G‘aznaviy davrida davlat hududi kengaydi. Mahmud G‘aznaviy Xurosonni butkul Somoniylar davlatidan ajratib oldi. Uning davrida G‘aznaviylar davlati Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Bag‘dod xalifasi Mahmud G‘aznaviyga «Yamin ud-davla va amin ul-milla» («Musulmon davlatining o‘ng qo‘li va millatning omonligi») degan faxriy unvon va Xuroson hokimligiga yorliq, bayroq va nog‘ora yuboradi. O‘z navbatida, Mahmud G‘aznaviy ham Abbosiylar xalifasini rasman tan olib, uni payg‘ambar avlodi sifatida qadrlaydi. Bu esa Mahmud G‘aznaviy davlatining to‘liq mustaqilligidan darak berar edi.

Ijodiy faoliyat

1. G‘aznaviylar davlati tashkil topishining asosiy sababi nimada?
2. Hozirgi kunda G‘azna shahri haqida Internetdan ma’lumotlar toping va taqdim eting.
3. Alptegin va Sabuktegin siymosi tarixdagi yana qaysi shaxslarni eslatadi?

Mahmud G‘aznaviy masjidi va maqbarasi

Xutba – juma namozida hukmdor nomini aytib, uning haqiga duo o‘qish, olqishlash.

Bilasizmi?

Mustaqil o‘qish uchun

Mahmud G‘aznaviyni «mag‘lub etgan» malika

Turkiylar tarixida ko‘plab hukmdorlar borki, ular oriyat, g‘urur va oliy darajadagi hukmdor sha’nining timsoliga aylanishga harakat qilgan. G‘aznaviylar davlatining mashhur hukmdori Sulton Mahmud G‘aznaviy bilan bog‘liq quyidagi tarixiy voqea oliy sha’n hukmdor faoliyatiga misol bo‘ladi.

Valiahd Majdiddin Davloning hali voyaga yetmaganligi tufayli, Ray hududini o‘g‘li nomidan Sayida Xotun idora qilib turgan edi. Mahmud G‘aznaviy Sayida Xotunga elchi jo‘natib, juma namozida o‘zining nomini xutbaga qo‘shib o‘qitishni, Sulton Mahmud nomi bilan tanga pul chiqarilishini talab qiladi. Agar malika bu shartlarga ko‘nmaydigan bo‘lsa, G‘azna qo‘shini kuch bilan viloyatni egallashi, talon-taroj qilishi hamda malikaning o‘zini qatl etishini shart tarzida qo‘yadi.

Sayida Xotun Mahmud G‘aznaviyning do‘q-po‘pisasidan qo‘rqmay, dadillik bilan elchilarga shunday javob beradi:

«Sulton Mahmudga shuni aytingki, mening erim Faxriddin Davlo tirikligida Sultonning Rayga hujum qilishi mumkinligidan har vaqt xavotirda turar edi. Erim vafotidan keyin men bu haqda xavotir olmay qo‘ydim. Chunki, mening nazarimda, Sulton Mahmud aql-farosatli hukmdor, u xotin kishi bilan jangga kirishni o‘ziga ep ko‘rmasa kerak. Shu narsa ma’lumki, sherning erkagigina emas, urg‘ochisi ham xavflidir. Agar u bizga hujum qilmoqqa qaror qilsa, u vaqtda Xudo biladi, men jangdan qochmayman. Ikkisidan biri bo‘ladi: yo g‘alaba men tomonda bo‘ladi, yoki men yengilaman. Agar g‘alaba menga nasib etsa, u vaqtda butun dunyoga elchilar jo‘natib,

1006-1008-yillarda qoraxoniylar Xurosonga bostirib kiradi. Mahmud G‘aznaviy Xurosondan qoraxoniylarni haydab chiqaradi.

1017-yilda Mahmud kuyovi xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’munga uyushtirilgan suiqasddan so‘ng shu yilning bahorida Xorazmga yurish qiladi. Hazorasp yonidagi jangda Xorazm qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi. Xorazmdan ko‘plab boyliklar bilan birga, fan va madaniyat arboblari ham G‘aznaga ko‘chirib keltiriladi. Ular orasida buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi. Xorazmga esa sultonning sobiq bosh hojibi Oltuntosh noib etib tayinlanadi. Keyinchalik Mahmud G‘aznaviy qoraxoniylarga tegishli bo‘lgan Amudaryo bo‘ylariga yurish qilib, Chag‘oniyon, Qobodiyon, Xuttalon va boshqa chegaradosh viloyatlarni o‘z davlati tarkibiga kiritadi.

Mahmud G‘aznaviy Erondagi Ray va Jilob yerlarini ham o‘z mulkiga qo‘shib oladi. Mahmud G‘aznaviy o‘z davrining yetuk sarkardasi bo‘lib, murakkab va ziddiyatli vaziyat, qarama-qarshiliklarga boy bo‘lgan chog‘larda hukmdorlik qilgan. Mahmud G‘aznaviy 1030-yilda vafot etadi.

yuzlab hukmdorlarni qo‘l ostida saqlagan Sulton Mahmudni men yengdim, deb mag‘rurona jar solaman. Butun dunyo muarrixlari Sulton Mahmud xotin hukmdordan yengilganligi haqida tarix yozadilar, uning nomi tarix sahnasidan yo‘qoladi, unga bundan ortiq uyat bo‘lmaydi. Agar Sulton meni yengsa, unga shuhrat kelmaydi, chunki hech qaysi shoir yoki tarixchi Sulton Mahmud xotin hukmdorning mamlakatini bosib oldi, deb maqtamaydilar».

Sayida Xotunning dono va dadil fikrlarini tushungan Sulton Mahmud to bu ayol vafotigacha biror marotaba ham Rayga hujum qilmaydi. Sayida Xotun 29 yil davomida shahzoda bilan birga hukmronlik qildi. Shundan so‘nggina Sulton Mahmud Rayga qo‘shin tortib, 1029-yilda uni o‘z hukmronligiga o‘tkazdi.

Akbar Zamonov,
«O‘rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma’lum sahifalari»

Ijodiy faoliyat

1. Nima uchun Mahmud G‘aznaviy Rayga qo‘shin tortish fikridan qaytdi?
2. Tariximizda davlatni boshqargan yana qaysi ayol hukmdorlarni bilasiz?
3. Yevropa davlatlari tarixida ham davlat boshqaruvida ishtirok etgan ayollarni bilasizmi?

Buqaning boshi shaklidagi burunli idish, G‘aznaviylar sulolasi davri

Ma’lumot uchun

Mahmud G‘aznaviy Hindiston va boshqa yurtlardan olib kelingan o‘ljalarni ko‘p hollarda obodonchilik hamda qurilish ishlariga sarflagan. Jumladan, u G‘aznada ilk davlat madrasasini ochib, unga noyob qo‘lyozmalarni to‘platgan. Bundan tashqari jome masjidi, ulkan suv to‘g‘oni va yana necha-necha inshootlar barpo ettiradi. G‘azna tez orada Sharqning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylanadi. Aby Rayhon Beruniy G‘azna haqida gapirganda, bu shaharda hashamatli saroylar, madrasa va bozorlar ko‘pligini qayd etgan edi.

Sulton Balx va Nishopurda ham bir qator qurilish ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, sulton ilm-fan va madaniyat arboblariga ham homiylik qilgan. Mahmud G‘aznaviyning o‘zi turkiy, arab, fors tillarini mukammal bilgan, she’riyatdan xabardor bo‘lgan.

Uning saroyida Abulhasan Farruxiy, Abdulmajid Sanoiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy va shu singari shoir, tarixchilar ham faoliyat ko‘rsatishgan. Beruniyning eng sara asarlari ham G‘aznada dunyoga kelgan. U sulton bilan ko‘pgina yurishlarda ishtirok etgan. Beruniy bilan sulton o‘rtasidagi munosabat iliq bo‘lgan. Olim Mahmud G‘aznaviy vafotidan (1030) keyin ham G‘aznada to umrining oxirigacha, ya’ni 1048-yilga qadar yashab qolgan. U G‘aznada rasadxona ochib, shogirdlariga dars bergan, unumli ijod qilgan.

Mahmud G‘aznaviy otasi Sabuktegin yozib qoldirgan: *«Ma’naviy ulug‘vorlik bamisoli alanga va shamol, bularning harakat va parvoz xususiyati bor. Maishat esa qiya yerdagi qum uyumiga o‘xshash. Uning tubanlikka surilish xosiyati bor»*, — degan nasihatiga amal qilib, ilm-fan sohasiga katta e’tibor qaratgan.

Mahmud G‘aznaviy buyuk olim Abu Ali Ibn Sinoning ham o‘z saroyida xizmat qilishini xohlagan. O‘z vaqtida xorazmshoh Ma’mundan boshqa olimlar qatorida uni G‘aznaga yuborishini talab qilgan. Shu bois Gurganjga elchilarni ham jo‘natgan edi. Lekin, Masihiy va Ibn Sino Sulton Mahmud G‘aznaviy saroyida xizmat qilishni istamay, Xorazmdan chiqib ketishga qaror qilishadi. Mahmud G‘aznaviy Ibn Sinoni o‘z saroyiga jalb etishga ko‘p uringan, hatto uning siymosini qog‘ozga ko‘chirtirib, qanday qilib bo‘lmasin, uni topib keltirishga farmon bergan.

Mulohaza uchun

Mahmud G‘aznaviy va Firdavsiy

Sulton Mahmud G‘aznaviy Abul Qosim ismli fors shoiriga Firdavsiy taxallusini bergan. Sulton avval Firdavsiyga ijobiy munosabatda bo‘lgan. Lekin, shoir ijodi uchun munosib haq olmaganligini ro‘kach qilib, berilgan 60 000 kumush dirhamni aholiga tarqatish orqali hurmatsizlik ko‘rsatgach, sulton bundan qattiq g‘azablanadi va uni o‘limga hukm qiladi. Ammo keyinchalik ko‘ngli yumshab, hukmni bekor qiladi va shoirning shahardan chiqib ketishiga ruxsat beradi.

Firdavsiyning turkiy xalqlar borasidagi ba’zi salbiy qarashlari ham sultonga maqbul bo‘lmagan. Shoir Tusga yo‘l oladi. Firdavsiy saldan keyin sultonni hajv tig‘iga olgan baytlar yoza boshlaydi.

Bu esa Mahmud G‘aznaviy nomining keyinchalik ham Firdavsiy ijodida salbiy ohangda tilga olinishiga zamin hozirlaydi.



Firdavsiy. «Shohnoma» asariga ishlangan miniatyura

Ijodiy faoliyat

105-106- betlardagi matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.

1. *Ma’naviy ulug‘vorlik, tubanlik* kabi tushunchalar nimani anglatadi?
2. Siz ma’naviy ulug‘vorlikka erishish uchun nimalarga e’tibor berasiz? Javobingizni o‘z kun tartibingiz bilan asoslang.
3. Davlat mustaqil bo‘lishi uchun qanday asoslar kerak?
4. *Oriyat, g‘urur va oliy darajadagi hukmdor sha’nining timsoli* deganda nimani tushundingiz?

Ma’lumot uchun

G‘aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi o‘zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohga oliy hukmdor faoliyati bilan bog‘liq xizmatlar va amallar kirgan. G‘aznaviylar davrida hojiblik xizmatining o‘rni alohida e’tiborga loyiq.

Hojiblikning quyidagi shakllari bo‘lgan: ulug‘ hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug‘ hojib nafaqat hojiblar orasida, balki butun mamlakat hayotida katta mavqega ega bo‘lgan. Mahmud G‘aznaviydan so‘ng bevosita hokimiyat ishlarini qo‘lga olgan ulug‘ hojib Ali Qarib ismli shaxs bo‘lgan. Rasmiy marosimlar, turli tadbirlarda ulug‘ hojib hukmdorga eng yaqin joyda turgan. Janglarda ham unga qo‘shinning eng salmoqli va mas’uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (oliy hukmdorning hujjatlarini yurituvchi), pardador (mahram; xufiya ishlarni bajaruvchi), martabador (saroydagi o‘rta amaldor), xazinachi, joma xona va farrosh kabi mansab va xizmatlarning o‘rni katta bo‘lgan.

Devonlar ijroiya idoralari bo‘lib, o‘sha davr manbalarida 5 ta devon nomi uchraydi. Ular vazir devoni (bosh vazir devoni), harbiy ishlar devoni, elchilik va boshqa rasmiy tadbirlarni yuritish devoni, moliya devoni, xat-xabar devoni. Viloyat boshlig‘i voliy deyilgan. Uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyatlardagi boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig‘i rais deb atalgan. Shahar miqyosida kutvol, sohibi devon kabi amaldorlar ham faoliyat ko‘rsatganlar.

G‘aznaviylar davlati qudratli harbiy qo‘shinga ega edi. Oliy qo‘mondonlik hukmdorning ixtiyorida bo‘lgan. Bosh qo‘mondon – sipohsolor esa sulolaning eng ishonchli vakili yoxud shu xonadon a’zosi hisoblangan. Masalan, Mahmud G‘aznaviy sipohsolor mansabiga

ukasi Muhammad Yusufni loyiq topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar salor, o‘rta darajadagilari sarhang deyilgan. Harbiylar o‘z xat-xabar va qozilik xizmatlariga ega bo‘lgan. G‘aznaviylar qo‘shinida harbiy kemalar ham mavjud edi.

G‘aznaviylar davrida ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari ancha rivoj topdi. Shaharlarda hunarmandchilik sohalari, qurilish, binokorlik, ganchkorlik va boshqalar taraqqiy etdi.



G‘aznaviylar qo‘shinining otliq askari

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. G‘aznaviylar davlatida davlat boshqaruvining dargoh va devonga bo‘linishi tariximizda qaysi sulola davrida yo‘lga qo‘yilgan edi?
2. Jamoalarga bo‘linib, g‘aznaviylar va somoniylar davridagi davlat boshqaruvini solishtiring va xulosa qiling.
3. G‘aznaviylar davlati davri va hukmdorlari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar topishga harakat qiling.

30-31-mavzular:

QORAXONIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Somoniylarning inqirozi tufayli qaysi hududlar qoraxoniylar tasarrufiga o'tgan edi?
2. G'aznaviylar va qoraxoniylar o'rtasidagi munosabatlar qanday bo'lgan?
3. Qanday sabablarga ko'ra bir davrda ikkita sulola davlat boshqruviga keldi?

Ma'lumot uchun

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj-u taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qoshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi qarluq, chig'il, yag'mo kabi turkiy qabilalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar. Shu davrda Isfijob (Sayram) hokimi Bilgakul o'zini xoqon deb atab, oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqdi. Lekin Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Ismoil Somoniy Tarozni egallaganidan so'ng turkiy qabilalar G'arbiy Qoshg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishdi. Bilgakulning «qora» degan laqabi bo'lgan. Tarixchilar qoraxoniylarning nomi Bilgakulga nisbatan «qoraxon» deyilsa kerak, deb taxmin qiladilar. Bilgakulning avlod-

lari tomonidan bir necha marotaba Movarounnahrga hujumlar bo‘lib turadi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrga to‘liq hukmronligi X asrning 40-yillarida qaror topdi. Sotuq Bug‘roxon hukmronligi davrida Qoraxoniylar sulolasi islomni qabul qilgan.

Butun Tyan-Shan va Yettisuvni egallab bo‘lgandan so‘ng, qoraxoniylar Somoniylar davlati tarkibida bo‘lgan Movarounnahrga ham harbiy yurishlar uyushtiradilar. Ular tez orada Farg‘ona va Isfijobni bosib olishga erishadilar. Ular somoniylarga tegishli bo‘lgan mulklarning kattagina qismini, xususan, Samarqand va Buxoroni ham egallaydi.

Mulohaza uchun

X asr oxirida Somoniylar davlati o‘rniga ikkita yangi davlat: Qoshg‘ardan Amudaryogacha – Qoraxoniylar, Shimoliy Hindistondan Kasbiy dengizi janubigacha – G‘aznaviylar davlati vujudga keladi.



X asr ikkinchi yarmi davomidagi sa’y-harakatlar natijasida qoraxoniylar sharqiy yo‘nalishda Balxash ko‘li — Cherchen daryosigacha (Sharqiy Turkiston) bo‘lgan yerlarni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘lishdi. G‘arbiy yo‘nalishda esa Isfijob, O‘zgand, Murg‘ob daryosi quyi oqimlarigacha bo‘lgan hududlarni ular o‘z ta’sir doiralariga kiritib oladilar. 1005-yildan qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va Amudaryogacha bo‘lgan hududlarni o‘z tasarruflariga kiritadilar.

Qoraxoniylarning Turondagi hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi.

Bilasizmi?

Qoraxoniy Ibrohim Nasr 1066-yili Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyni in’om-hadya (vaqf) etgan. Ana shu ikki karvonsaroydan keladigan daromaddan kasallarning oziq-ovqati, dori-darmoni, tabiblar, barcha turdagi xizmat ko‘rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta’minlash yo‘lida foydalanilgan. Boshqa bir hujjatga ko‘ra, Samarqandda bunyod etilgan madrasa majmuyini ta’minlash uchun Ibrohim Nasr uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergan.

Ma'lumot uchun

Yettisuv viloyatida yuksalishni boshlagan qoraxoniylar janub, g'arb yo'nalishlarida o'z hukmronlik doiralarini kengaytirib borganlar va buning natijasida Cherchen daryosidan Xorazmgacha bo'lgan hududni boshqarganlar. Siyosiy markaz sifatida esa o'z tarixiy makonlaridagi katta shaharlardan bo'lmish Bolosog'un va nisbatan undan uzoqda bo'lmagan Qoshg'arni tanlaganlar. Demak, asosiy siyosiy markaz shu hududda mujassamlashgan. Buxoro, Samarqand, Chag'oniyon, Farg'ona va boshqalar tabiiy ravishda yangi siyosiy markazga nisbatan viloyat (mulk) o'rnida bo'lgan.

Qoraxoniylar do'stona munosabatlar o'rnatish tarafdori ekanligini bildirib, qo'shnisi g'aznaviylar bilan elchilik aloqalarini o'rnatadi. Ammo, bunday munosabatlar uzoqqa cho'zilmadi.

Qoraxoniylar g'aznaviylar tasarrufidagi hududlarga bir necha marotaba bosqinchilik hujumlarini uyushtiradilar. Lekin bu yurishlar muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

1008-yilda Mahmud G'aznaviyning o'zi 500 ta jangga o'rgatilgan fillarga ega bo'lgan katta qo'shin bilan qoraxoniylarga qarshi chiqadi va ularning qo'shinini butunlay yakson qiladi. Shundan keyin qoraxoniylar Xurosonga harbiy yurish uyushtirishga boshqa jur'at etmaydi. Termiz, Qabodiyon, Xuttalon kabi Amudaryodan shimoldagi yerlar g'aznaviylar tasarrufida qoladi.

Qoraxoniylar davlati shartli ravishda Sharqiy va G'arbiy qismlarga ham bo'lingan.

Qoraxoniylar sulolasi qarorgohi xarobalari, XI-XII asr, Samarqand

Davlatni odatda «qoraxon» unvoni bilan ulug'langan «buyuk xon» boshqargan. Xonlik taxtiga og'a-inichilik udumi asosida sulolaning eng yoshi ulug' kishisi o'tirgan. Xonlar «qoraxon» unvoni bilan birga, tavg'achxon, arslonxon, bug'roxon kabi faxriy unvonlar bilan ham ulug'langan.

«Takin» (tegin) atamasi dastlab qadim turkiylarda xoqon vorisi, valiahdiga nisbatan qo'llanilib, keyinchalik harbiy lashkarboshilar unvoni sifatida ham ishlatilgan.

Mulohaza uchun

Qoraxoniylar somoniylarning o'rnini olishlari bilan markazlashgan davlat tizimiga zarba berildi, boshqaruvda mulkchilik (ya'ni, qo'l ostidagi viloyatlarni sulola namoyandalariga bo'lib berish) shakli joriy qilindi.

Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat bo'lgan. Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulola namoyandalarini tayinlab, bu bilan, tabiiy ravishda, butun mamlakat uzra o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan. Viloyat (mulk)larni takinlar boshqargan. Ular mustaqil siyosat yuritishga ham intilgan.

Ijodiy faoliyat

Qoraxoniylar hamda G'aznaviylar davlatlaridagi boshqaruv tizimining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?

Ma'lumot uchun

XI asrning uchinchi choragida qoraxoniylar siyosiy birligi ikkiga: g'arbiy (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chag'oniyon) va sharqiy (Yettisuv, Sharqiy Turkiston) xoqonliklarga bo'linib ketadi. Qoraxoniylarning Movarounnahrga hukmronlik qilgan vakillari markazga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgiza boshlaganlar.

G'arbiy xoqonlikda somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi (bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig'i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi, muhtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari) saqlanib qolgan. Shuningdek, viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshlig'ini rais, deb atash odati ham o'zgarmay qolgan.

Qoraxoniyar davrida ham markazdagi (dargohdagi) boshqaruv tizimiga katta e'tibor berilgan. Bunda dargoh, ya'ni oliy hukmdor bilan viloyatlar, fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirib turuvchi hojiblar faoliyati alohida o'rin tutgan. Somoniylardan farqli ravishda qoraxoniylar davrida hojiblar, asosan, oliy hukmdor, viloyat hokimlarining davlat va raiyat ishlari bo'yicha eng yaqin maslahatchilari hisoblanganlar.

Navoiy shahri yaqinidagi Raboti Malik karvonsaroyi. Qoraxoniylar davri

Bilasizmi?

Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariyga qoraxoniylar tomonidan «xos hojib» unvoni berilgan.

Qoraxoniylar davlati

G'arbiy
- Samarqand
- Buxoro
- Xuttalon
- Chag'oniyon
- Choch-Iloq

Sharqiy
- Yettisuv
- Sharqiy Turkiston

Qoraxoniylar maqbarasi

Tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan, elchilar oldiga juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular bilimli, o'quvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat-andishali bo'lishlari kerak bo'lgan. Talablar ichida shundaylari ham bor: astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini mukammal bilish, shaxmat va nardni raqiblaridan ustun darajada o'ynash, harbiy san'atda benazir bo'lish va hech qachon may ichmaslik, so'z, iboralarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini puxta bilish.

Yusuf Xos Hojib
«Qutadg'u bilig»

Ma'lumot uchun

Dargoh faoliyatini tegishli darajada tutib turishda saroy ishlari boshqaruvchisi, mehmonlarni qabul qilish xizmati (uning boshlig'i «Biruk» deb atalgan), xazinachi (ag'ichi), oshxona mutasaddisi (oshchi), sharbatdor, yotoq, kiyim-kechak bilan ta'minlovchi, ov uyushtirish (qushchi) kabi ma'muriy xizmatlar faoliyat ko'rsatgan. Oliy hukmdorning xavfsizligini ta'minlash, uning siyosati yo'lida sodiqona xizmat qilish vazifasi bo'lgan maxsus saralangan harbiy qism ham dargoh boshqaruv tizimiga kirgan. Albatta, maxsus qismdan tashqari, harbiy qo'shin ham mavjud edi. Undagi eng muhim lashkarboshilik va boshqaruv mansablariga qoraxoniylar sulolasi vakillari hamda sodiq lashkarboshilar tayinlangan. Yirik lashkarboshilardan tashqari kichik zobitlar (chovush), otliqlar sardori (haylboshi), yuzboshi, mingboshi kabi harbiy mansablar ham mavjud bo'lgan.

Ijodiy faoliyat

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig» asaridan olingan matnni diqqat bilan o'qing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Nima uchun elchilar «bilimli, o'quvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat-andishali» bo'lishlari haqida talab qo'yilmoqda?
2. «Astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini mukammal bilish, shaxmat va nardni raqiblaridan ustun darajada o'ynash, harbiy san'atda benazir bo'lish va hech qachon may ichmaslik, so'z, iboralarning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini puxta bilish» elchilarga nima uchun kerak?
3. Bu talablarning bugungi kundagi dolzarbligi qanday? Siz yana qanday talablarni kiritgan bo'lardingiz va nima uchun? Fikringizni misollar bilan asoslang.

Ijodiy faoliyat

1. Yer osti, yer usti quvurlarini o‘tkazish, kanallar, suv omborlarini qurish uchun qanday mutaxassislar kerak bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
2. Mis, kumush, qo‘rg‘oshin, oltin, simob, temir, feruza, navshadil, neft, marmar, qatronlarning qazib olinishi natijasida qaysi sohalar rivojlangan?
3. Birinchi va ikkinchi savolga bergan javoblaringizni umumlashtirib o‘ylab ko‘ring-chi, bu soha mutaxassislari qayerda tayyorlangan?

Ma’lumot uchun

Qoraxoniylar davrida ham dehqonchilik ishlari o‘z maromida kechgan. Bunga, albatta, sun’iy sug‘orish tizimlarining talab darajasida ishlab turishi, lozim bo‘lganda ularni ta’mirlash ishlarining amalga oshirilishi, yer osti, yer usti quvurlarining o‘tkazilishi orqali erishilgan. Ayniqsa, kanallar, suv omborlari, to‘siqlarning bunyod etilishi o‘lkada, xususan, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida an’anaviy dehqonchilik yuqori darajada rivojlanishiga olib kelgan.

Ohangaron atrofidagi (Qoramozor) mis, kumush, qo‘rg‘oshin, temir konlari, Farg‘onadagi oltin, simob, kumush, temir, mis, feruza, navshadil, neft, kuporos, qatron, Nurota tog‘laridagi oltin, mis, qo‘rg‘oshin, simob, marmar, Buxoro va Ustrushonadagi oltin, neft, feruza, temir konlarida ko‘plab odamlar mehnat qilgan.

Mulohaza uchun

Temirchilik, kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, to‘qimachilik, ko‘nchilik, suyaktaroshlik kabi o‘ttizdan ortiq sohalar rivojlanib borgan. Masalan, shishasozlikda shishadan ishlangan buyumlar (oshxona buyumlari, jihozlari, bezakli taqinchoqlar, siyohdon, tuvak va boshqalar) ga turli rangda jilo berish urf bo‘lgan. Bundan tashqari, imoratlarni bezash, jihozlashda shishasozlikning imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Imoratlarga o‘rnatilgan deraza oynalari ham rangsiz, ham rangli bo‘lishi mumkin edi. Panjaralar oralig‘iga turli rangdagi shishalardan o‘rnatib, imorat ko‘rkini ochishga harakat qilingan.

Buxoro, Samarqandda paxtadan to‘qilgan turli xildagi gazlamalar mintaqada hamda xorijiy o‘lkalarda mashhur bo‘lgan. Ko‘nchilik mahsulotlaridan esa olmaxon, sobol va boshqa hayvonlar terisidan po‘stin (ichuq), charmdan ishlangan oyoq kiyimlari (izlik), tuya yo qo‘y yungidan to‘qilgan issiq kiyim (qars), guldor gilam, namatlar va boshqalar bo‘lgan.

Mulohaza uchun

Sharqiy Turkistondan Xorazmgacha bo‘lgan katta hududning siyosiy jihatdan birlashishi savdo-sotiq ishlarida mintaqaning sharqiy viloyatlari imkoniyatlarining rivojlanishiga sharoit yaratib berdi. Chunonchi, biz bugun «ipak yo‘li» deb biladigan savdo yo‘li to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sharqiy Turkistonni arab o‘lkalari bilan tutashtirib turgan. O‘z davrida shimoliy va janubiy yo‘nalishlarga ega bo‘lgan bu yo‘lning bir uchi Xitoydan boshlanib Sharqiy Turkiston, Farg‘ona, Toshkent, Zarafshon vodiysi, Buxoro orqali shimolda Volgadan o‘tib Sharqiy Yevropagacha, janubda esa O‘rta Sharq orqali O‘rta dengizgacha borgan. Yo‘l uzra joylashgan shahar va qishloqlardagi ko‘rkam va orasta bozorlar va karvonsaroylar savdogarlarga xizmat ko‘rsatardi, shu bilan birga bundan foyda ko‘radigan boshqa xizmatlar ham keng rivojlangan. Muntazam ravishda turli yerlarda savdo ko‘rgazmalari uyushtirilib turilgan.

Buxoroda Minorai kalon, qator masjidlar, Surxondaryoda Jarqo‘rg‘on minorasi, Vobkentda masjid va minora, O‘zgandda maqbaralar, minora, masjidlar, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan.

Qoraxoniylar sulolasi o‘z faoliyati davomida mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

Jarqo‘rg‘on minorasi

Minorai kalon

Ma'lumot uchun

Mahmud Qoshg'ariyning ajoyib va bebaho merosi «Devonu lug'ot-tit-turk» asari ham aynan shu davrda (XI asr) yozilgan. Asar qoraxoniylar davri tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi, etimologiyasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariy asarining qimmatli tomonlaridan yana biri – unda muallif chizgan dunyo xaritasining mavjudligidir. Xarita doira shaklida va uning har tarafdan suv bilan o'ralganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud. Xaritada markazda Yettisuv, Sharqiy Turkiston hududi, uning to'rt yo'nalishida turli shaharlar, mamlakatlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, tog'lar joylashuvi berilgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari haqida

Bu kitobni tartib beruvchi Bolasog'unda tug'ilgan, sabr-qanoatli kishidir. Ammo bu kitobni Qoshg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug'lab, o'z saroyida Xos Hojiblik lavozimini beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Quyidagi taqdimotlardan birini tayyorlang:
   – «Qoraxoniylar davrida me'morchilik»;
   – «Mahmud Qoshg'ariyning ijodida davrga oid ma'lumotlarning berilishi»;
   – «Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari – jahondagi turkiy xalqlarning nodir durdonasi».
2. Qoraxoniylar davlatining tariximizda tutgan o'rnini tahlil qiling hamda G'aznaviylar, Somoniylar, Safforiylar, Tohiriylar va boshqa davlatlar bilan taqqoslang.

32-33-mavzular: SALJUQIYLAR

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Somoniylar o‘rnida tashkil topgan G‘aznaviylar va Qoraxoniylar davlatlari tasarrufiga qaysi hududlar kirgan edi?
2. Turk xoqonligi yemirilganidan so‘ng o‘g‘uzlar qaysi yerlarni o‘zlariga makon tutgan edilar?
3. O‘g‘uzlar yashagan hududlarni xaritadan ko‘rsating.

Mulohaza uchun

Saljuqiylar turkiy o‘guz qavmi tarkibida dastlab hozirgi Janubiy Qozog‘iston hududiga to‘g‘ri keladigan yaylovlarda, Sirdaryoning o‘rta oqimidagi yerlarda ko‘chmanchi hayot kechirganlar. X asrda Saljuq ismli shaxs o‘zining fazilatlari, bilimdonligi, abjirligi va mardligi tufayli obro‘-e’tibor qozonib, bir qancha qabilalar sardori, katta harbiy kuch boshlig‘i darajasiga erishadi.

Mulohaza uchun

Mahmud G‘aznaviyning roziligi va bir necha shartlar bilan saljuqiy oilalari Xurosonga qadam bosadilar. Keyinchalik, 1040-yilda saljuqiylar va g‘aznaviylar o‘rtasida Dandanaqonda to‘qnashuv bo‘ladi. Bu to‘qnashuvda g‘aznaviylar mag‘lubiyatga uchraydilar.

XI asrning 40-yillarida saljuqiylar Xorazm, Eron, Kavkazortiga harbiy yurishlar uyushtiradilar va bu hududlarni o‘z ta’sir doiralariga o‘tkazadilar. Ular xalifalik poytaxti Bag‘dodni egallaydilar. Saljuqiy hukmdor Sulton Alp Arslon Kichik Osiyoda Vizantiya podshosi Roman IV Diogenni yengadi. Bu o‘z o‘rnida saljuqiylarning Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o‘rnashib olishlari uchun katta zamin yaratadi.

Saljuqiy Sulton Malikshoh zamonida Samarqand, Buxoro, Farg‘ona saljuqiylar qo‘l ostida birlashadi. Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham saljuqiylar ustunligini tan oladi. Sulton Malikshoh hukmronligi davrida Saljuqiylar saltanati Sharqiy Turkistondan O‘rta dengizgacha bo‘lgan hududni o‘z ichiga olgan. Saljuqiylar davlatining eng yuksalgan davrida Bag‘dod xalifasi Sulton Tug‘rulbekga «Malik al-Mashriq», ya’ni «Sharq hukmdori» hamda «Rukn ad-din» — «din suyanchig‘i» degan nom bergan. Bu uning hokimiyati naqadar qudratli bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Saljuqiylar saltanatining zaiflashib parchalanishi jarayoni esa, XI asrning ikkinchi yarmida boshlanadi. Bunga sabab saltanatning haddan tashqari ulkan hududda yoyilganligi edi. Oqibatda bu davrda saljuqiylar xonadoni vakillari faoliyati bilan bog‘liq Suriya, Iroq, Onado‘li (Kunya), Kirmon sultonliklari yuzaga keladi. XII asr boshlaridayoq saltanat sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘linib ketadi.

Ma’lumot uchun

Sharqiy qism, asosan, Xuroson va Movarounnahrdan iborat bo‘lib qoldi. Uning chegaralari, ta’sir doirasi o‘zgarib turgan. Sulton Sanjar qudrati avjiga chiqqan vaqtlarda g‘arbiy saljuqiylar (Eron, Iroq, Ozarbayjon) uning, ya’ni sharqiy saljuqiylarning siyosiy ta’sirida bo‘lganlar.

Movarounnahrga qoraxitoylarning sharqdan bostirib kirishi natijasida Sulton Sanjarning ham kuchi qirqildi. Qoraxitoylarga qarshi saljuqiylar qoraxoniylar bilan birgalikda lashkar tortgan bo‘lsa-da, ammo mag‘lubiyatga uchraydi. Bu o‘z o‘rnida saljuqiylarga qaram bo‘lgan Xorazmning yuksalishi uchun sharoit yaratadi. Xuddi shu yerdan chiqqan xorazmshohlar (anushteginiylar) XII asrning ikkinchi yarmida g‘arbiy saljuqiylarga zarba beradilar. Sharqiy saljuqiylar faoliyatiga esa Sulton Sanjar o‘limidan keyin chek qo‘yiladi.

Ijodiy faoliyat

1. Yana qaysi sulola hukmronligi davrida davlat sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘linib ketgan edi?
2. Suriya, Iroq, Onado‘li (Kunya), Kirmon sultonliklarini xaritadan ko‘rsating. Ular hozirgi davrda qaysi davlatlarning hududiga to‘g‘ri keladi?

Ijodiy faoliyat

1. Saljuqiylar sulolasining o'rniga qaysi sulola hokimiyatni qo'lga oldi?
2. «Xorazmning yuksalishi» deganda nimani tushundingiz?
3. Quyidagi fikrni izohlang: *«XII asr oxiriga kelib Kichik Osiyodagi Onado'li (Kunya) sultonligidan o'zga biron-bir makonda rasmiy saljuqiy xonadoni qolmaydi. Onado'li sultonligi esa XIII asr o'rtalarida mo'g'ullarga qaramlikka tushadi. Saljuqiylar sababli Kichik Osiyoda turkiy davlat va millatga asos solindi. Shuning uchun ham hozirgi Turkiyadagi turkiy tilli xalq Turkistonni ota yurtimiz, ya'ni tarixiy vatanimiz, deb e'tirof etadi».*

«Podshohning bir haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilmasdan iloji yo'q. U zulmkorni jazolamog'i, insofga chaqirmog'i, raiyat so'zlarini o'z qulog'i bilan vositachisiz eshitmog'i kerak. Arzchilar eng muhim so'zlarini aytmoqlari, (hukmdor esa) ular bo'yicha hukm chiqarmog'i lozim. Shunda mamlakatda podshoh ezilgan va adl istovchilarni haftada ikki kun qabul qilib, ularning so'zini tinglar ekan, ovozasi tarqaydi. Zolimlar bundan cho'chiydilar, qullarini kaltaklamaydilar».

Saljuqiylar bosh vaziri Nizomulmulk,
«Siyosatnoma»

Mulohaza uchun

Davlat tepasida oliy hukmdor maqomida saljuqiylar xonadoni namoyandasi turgan. U Sulton (Sulton ul-a'zam) unvoniga ega bo'lgan. Uning nomidan xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Mulk, yer-suv taqsimlash, muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash ishlarini hamda ariza va shikoyatlarni sultonning o'zi nazorat qilib turgan va moliyaviy kirim-chiqimlarning ham boshida turgan. Sulton mamlakatning obodonchiligi, qurilishlar, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash masalalarini ham shaxsan o'zi kuzatgan.

Ma'lumot uchun

Xalq orasida va tarixda Nizomulmulk (mulk – davlatning tartibotchisi) nomi bilan mashhur bo'lgan saljuqiylarning mashhur vaziri Abu Ali Xasan ibn at-Tusiydir.

Nizomulmulk Saljuqiy shohlar davrida ishni oddiy amaldorlikdan boshlab, vazir darajasiga erishgan va ko'p yillar davomida davlatga xizmat qilgan.

«Temur tuzuklari»da har qanday podshoh, xalq orzu qilgulik aql-zakovat, valine'mat sohiblari bo'lmish vazirlar to'g'risida so'z yuritilganda «Siyosatnoma» mu-allifi Nizomulmulkni alohida mehr-muhabbat bilan, har jihatdan namuna qilib ko'rsatadi. Bunday «qilich va qalam sohibi» bo'lmish vazirlarni e'zozlashga, qadrlashga da'vat etiladi.

Nizomulmulk tomonidan yozilgan «Siyosatnoma» yoki «Siyar ulmuluk» (Podshohlarning turmush tarzi) nomli asar mazkur davlat boshqaruvining asosiy qoidalarini hamda huquqiy masalalarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar xuddi qissadan hissa, ya'ni hikoya va undan chiqarilishi lozim bo'lgan xulosalar tarzida tuzilgan.

Nizomulmulk

Saljuqiylarning sopol plitkasi

Sulton Sanjar maqbarasi

Ma'lumot uchun

«Siyosatnoma» asarida davlat boshqaruviga aloqador aksariyat qoida va qonunlar, usul va vositalar, turli darajadagi davlat idoralari haqida so'z yuritiladi. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, davlatni oqilona boshqarish, unda qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va iymonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchlik va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat qiladi.. Aynan davlat masalasi bu asarning asosiy g'oyasini tashkil qiladi.

«Siyosatnoma» asari yaratilgan davrdan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shoh-u hokimlar diqqatini o'ziga tortib keladi. Bu asarni sultonlar va mansabdor shaxslar ko'chirtirib olib, o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

«Siyosatnoma»ning eng qadimgi nusxasi Erondagi Tebriz Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Ijodiy faoliyat

1. Bugun O'zbekistonda davlat rahbariga fuqarolar murojaat qilishining qanday ko'rinishlari tashkil etilgan?
2. Saljuqiylar davri bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan Yevropa davlatlarida qirollar va fuqarolar qanday munosabatda edi?
3. Guruhlarga bo'linib, ushbu davrdagi Markaziy Osiyo va Yevropada mavjud bo'lgan davlatlarni taqqoslang.

Ijodiy faoliyat

Nima uchun lashkardagi biron-bir xizmatchining maoshi oshiriladigan yoki qisqartiriladigan bo'lsa, bu haqda, eng avvalo, moliya-soliq devoni bilan kelishib olinishi zarur bo'lgan? Fikringizni asoslang.

Saljuqiy hukmdor Ahmad Sanjarning toj kiyish marosimi. Rashiduddinning «Jome at-tavorix» kitobidan, 1307-yil.

Ma'lumot uchun

Nizomulmulk vazirlik davrida Bag'dod, Basra, Isfahonda «Nizomiya» nomidagi madrasalar qurdiradi. Buyuk olim Abu Homid G'azzoliy o'z vaqtida Bag'doddagi madrasada dars bergan.

Shuningdek, Nizomulmulk davrida taniqli astronom Umar Xayyom shamsiy taqvim – kalendarni isloh etish uchun tuzilgan ishchi guruhga rahbarlikka taklif qilinadi. Umar Xayyom bu ishni bajarib, devonning ilmiy va davlat ishlarida Nizomulmulk bilan birga faoliyat olib boradi. Biz Umar Xayyomni ko'proq shoir, aniqrog'i to'rtliklar ustasi sifatida taniymiz. Aslida, u yetuk yulduzshunos, matematika tarixida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi bo'lib isbotlab bergan olim edi.

Umar Xayyom

Ijodiy faoliyat

1. Bir davrda yashagan shaxslarning tarixda o'z izlarini qoldirishiga asosiy sabab nimada deb o'ylaysiz?
2. Bir davrda yashab ijod etgan yana qanday shaxslarni bilasiz? Ularning tarixdagi o'rni va merosining ahamiyati qanday bo'lgan?
3. Bu davrda qanday mashhur shaxslar va asarlar jahon davlatlari boshqaruviga ta'sir ko'rsatgan edi?

Mulohaza uchun

Saljuqiylar davrida dehqonchilik rivojlanib borib, sun'iy sug'orish tizimlari mukammallashgan. Xorazm qovunlari, Jurjon (Gurgon) xurmolari, shakarqamishi, limonlari, Niso uzumlari, behisi, baqlajoni, Marv bug'doyi nafaqat mintaqada, balki undan tashqarida ham shuhrat qozongan. Dehqonchilik sohasining rivoji, albatta, hunarmandchilik taraqqiyotiga ham yo'l ochgan.

To'qimachilik (ip gazlama, ipak, zig'irpoya tolasidan tayyorlangan matolar ishlab chiqarish), kulolchilik, gilamchilik, zargarlik, shishasozlik, temirchilik, ko'nchilik kabilar taraqqiy etib borgan. Mamlakatning O'rta va Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa, Hindiston, Xitoy kabi mamlakat va o'lkalar bilan savdo aloqalari gurkirab rivojlangan. Sulton Malikshoh sharq va g'arb yo'nalishlararo savdosini yanada jonlantirish niyatida Xuroson va Iroq savdogarlarini ba'zi bir savdo to'lovlaridan ozod etgan.

Savdo-sotiqda g'arbiy o'lkalardan Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft mahsulotlari keltirilgan. Sirdaryo quyi oqimi, o'ng qirg'og'i yerlaridan chiqadigan mushk, oltin, kumush yombilar nafaqat tashqi bozorda, balki mintaqaning o'zida, asosan, Saljuqiylar davlatida ham qadrlangan. Umuman olganda, mintaqa bozorlarida qimmatbaho mo'yna, qorako'l terisi, tuzlangan baliq, morj qoziq tishidan tortib quruq meva, nafis matolar, qimmatbaho toshlar, taqinchoqlargacha topish mumkin bo'lgan.

Bu davrda eng yuqori darajadagi pul birligi o'rnida sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) qabul qilingan. Tarkibida oltindan tashqari qo'shimcha metall aralashmasi bo'lgan dinor ham bo'lib, u rukniy deyilgan. Mis tangalar asosan ichki bozorda muomalada bo'lgan. Saljuqiylar davrida ham chek, naqd pulsiz muomala qilish tizimidan foydalanilgan.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Qaysi saljuqiy sulton Samarqand, Buxoro, Farg'onani o'z tasarrufiga olgan?
2. Quyidagi jadval asosida mavzuda o'rganganlaringizni tahlil asosida daftaringizga yozing:

Davlat tuzumi	Ijtimoiy tuzum	Boshqaruv usullari	Avvalgi davlatlardan farqli jihatlari

34-35-mavzular:

XORAZMSHOHLAR DAVLATI VA UNING YUKSALISHI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Arab xalifaligi tomonidan o'lkamizning istilo etilishi undagi hukmdorlar va qabilalar uchun qanday oqibatlarga olib kedi?
2. Ma'muniylarning mamlakatda tartib va osoyishtalik o'rnatib, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishiga turtki bo'lgan omillarni ayting.



Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi

Ma'lumot uchun

Xorazm vohasida hukmronlik qilgan mahalliy sulolalar qadimdan xorazmshohlar umumiy nomi bilan yuritib kelingan. Masalan, afrig'iylar, ma'muniylar, oltintoshiylar boshqaruv kursisida xorazmshohlar unvoni bilan o'tirganlar. Ammo Xorazm doirasidan tashqariga chiqib, boshqaruvning saltanat darajasiga erishgan sulola bu — *anushteginiylar* hisoblanadi.

Anushtegin saljuqiy Sulton Malikshohning ko'zga ko'ringan va ishonchli mansabdorlaridan sanalgan. Taxminan, 1077-yili u Xorazm hokimligi vazifasiga tayinlanadi. 1097-yili esa, mazkur lavozim o'g'li Qutbiddin Muhammadga tegadi. U saljuqiylar dargohiga qaram bo'lib, har yili o'zi yoki o'g'li Otsiz orqali viloyatdan undiriladigan soliqni poytaxt Marvga olib borib turardi. Otsiz esa otasidan keyin Sulton Sanjar hukmi bilan Xorazm hokimligiga tayinlanadi. Bu

vaqtda o‘ttizga ham kirmagan Otsiz avvaliga otasi kabi saljuqiylar xonadoniga sidqidildan xizmat qiladi. Ammo u o‘z mavqeyi mustahkamlanib va, aksincha, raqobatchilari zaiflasha borayotganini sezgach, saljuqiylarga qaramlikdan bosh torta boshlaydi. Bunga javoban Sulton Sanjar unga qarshi bir necha marta qo‘shin yuboradi. Mag‘lubiyatga uchragan Otsiz qochishga majbur bo‘ladi.

Gurganch Xorazm saltanatining birinchi va asosiy poytaxti bo‘lgan

Xorazmdagi Qizilqal’a

«O‘zaro sulh shartnomasiga ko‘ra, xorazmshoh Otsiz Sulton Sanjarga tobelik bildirib, o‘rta asrlar odatiga ko‘ra, uning oyog‘i ostidagi yerni o‘pib, ta’zim etishi shart edi. Lekin xorazmshoh bu kabi tobelik urfini bajarmadi. Sulton Sanjar huzuriga mulozimatga (xizmatga) keldi va otidan tushmagan holda sultonga salom berdi. Bu ham yetmagandek, xorazmshoh sulton bilan uchrashuv joyini birinchi bo‘lib tark etdi. Sulton Sanjar Otsizning bu «beodobligidan» jahli chiqsa ham, yaqinda o‘zi unga shafqat-muruvvat qilgani uchun ahdini o‘zgartirdi. Sulton bunga norozilik bildirmay, Marvga qaytib ketdi».

Tarixchi
Otamalik Juvayniy

Ma'lumot uchun

Tarixchilardan Rashiduddin va Hofizi Abro'larning yozishiga ko'ra, Anushteginiylar sulolasining asoschisi Anushtegin dastlabki faoliyatini Sulton Jaloliddin Malikshoh I saroyidan boshlagan.

U sultonning eng ishonchli kishilaridan biriga aylangan. Keyinchalik, u «Xorazm mutasarrufi» mansabiga tayinlanib, unga Xorazm shixnasi (qal'a boshlig'i) unvoni beriladi. Vaqt o'tib, Anushteginning o'g'li Qutbiddin Muhammad Xorazm hokimi bo'ladi.

Mulohaza uchun

Xorazmni qo'lga kiritganidan keyin Sulton Sanjar uni Otsizning jiyani Sulaymonshoh boshqaruviga bergan. Biroq Sulaymonshoh u yerda o'z hokimiyatini mustahkamlay olmagan. U Marvga qaytib ketishi bilanoq Xorazmga kelgan Otsiz mahalliy aholining qo'llab-quvvatlashi orqali o'z hokimiyatini tiklagan. Otsiz Buxoroni egallaydi. U Bag'dod xalifasidan «Xorazm viloyati va u tomonidan Xorazmga qo'shib olingan hamda olinadigan g'arbiy, sharqiy chegaralardagi viloyatlarning hukmdori», deb tan olingan yorliq oladi. Otsiz Marv, Nishopurni ham o'zining tasarrufiga o'tkazadi.

Otsiz o'zining ismi bitilgan oltin tangalarni zarb qilishni boshlab yuboradi.

Ijodiy faoliyat

1. Gurganj hozirgi qaysi hududga to'g'ri keladi?
2. Anushteginiylar davlati hududini xaritadan ko'rsating. Ularning aynan mintaqada bu tarzda yoyilishiga qanday omillar turtki bo'ldi?

Alovuddin Muhammad

Xorazmshoh o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilgan. Davlatdagi harbiy qo'shin soni davr va yurishlarga qarab o'zgarib turgan. Masalan, xorazmshoh Takash qo'shinida 170 ming nafar otliq askar bo'lgan. Xorazmshoh Muhammadning Fors Iroqi, Ozarbayjonga qilgan yurishida 100 ming nafar suvoriy bo'lgan.

Qoraxitoylarga qarshi qilingan yurishlarda xorazmshoh Muhammad otliq askarlari sonining o'zi 400 ming nafar bo'lgan.

Ma'lumot uchun

Otsiz o'limidan so'ng taxtga chiqqan o'g'li El Arslon ham mustaqil siyosat yurgizishga harakat qildi.

El Arslon Movarounnahrda qoraxitoylar bilan to'qnashadi va qo'li baland keladi. U Nishopurni egallab, Ozarbayjonga harbiy yurish uyushtiradi. Lekin El Arslonga ham markazida Xorazm bo'lgan, barcha tomonidan tan olingan qudratli siyosiy uyushmaga asos solish nasib etmagan.

El Arslonning vafotidan so'ng uning o'g'illari Takash (1172–1200) va Sultonshoh Mahmud o'rtasida o'zaro kurash kechadi. Faqat Sultonshoh Mahmud vafotidan so'nggina Takash yakka hukmdor sifatida keng qamrovli siyosat yuritish imkoniga ega bo'ladi. Takash G'arbiy Eronning ayrim qismini hamda Kirmonni bo'ysundiradi. Hukmronligi so'nggida u hatto Bag'dodni – xalifalik poytaxtini zabt etishga ham shaylanadi. Ammo yurish chog'ida vafot etadi va taxtga Alovuddin Muhammad (1200–1220) chiqadi.

Alovuddin Muhammad Movarounnahrdan qoraxitoylarni haydab chiqaradi. Bu voqea uning obro'-e'tiborini nihoyatda oshirib yuboradi. Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlar xorazmshohlar tasarrufiga olinadi. Sulton Muhammadning asosiy maqsadi Suriya, Kichik Osiyo va Misrni ham bo'ysundirish edi.

Muhammad xorazmshoh 400 ming atrofidagi o‘z qo‘shinini Bag‘dod yurishiga jo‘natdi. Xorazmshoh qo‘shini Hulvon viloyatiga yetganida g‘ayritabiiy hodisa yuz beradi. To‘satdan havo sovib, uch kecha-yu uch kunduz qor yog‘di, izg‘irin sovuq hammayoqni qamrab oldi. Jangchilar sovuqdan aziyat chekdi, otlar, tuyalarga qiron keldi. Bu ofatdan iztirobga tushgan Sulton o‘z qo‘shinini orqaga qaytarishga buyruq berdi. Sulton xalifa nomini xutbadan chiqarib tashlashni buyurdi.

Bu davrda anushteginiylar sulolasi dunyoning eng qudratli siyosiy kuchlaridan biriga aylangandi. Orol dengizidan Hind okeanigacha, Iroqdan Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan ulkan hudud Xorazmshohlarga bo‘ysundiriladi.

Alovuddin Muhammad – ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqabi bilan mashhur bo‘lgan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Qanday omillar sabab Xorazmshohlar davlati yuzaga keldi?
2. Xorazmshohlar hukmronligining o‘lka tarixiy jarayonlari tezlashuvidagi o‘rni qanday bo‘ldi?
3. Alovuddin Muhammadning yutuqlariga nimalar asos bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Fikringizni asoslab, daftaringizga yozing.

36-37-mavzular: XORAZMSHOHLAR DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Xorazmshohlar davlatining iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlashuv davri qaysi hukmdor nomi bilan bog‘liq?
2. Qaysi davlat boshlig‘ining hukmronligi davrida tobe o‘lkalarda xorazmshoh nomi bilan xutba o‘qitilgan va hatto uning nomidan tangalar zarb qildirilgan edi?

Ma’lumot uchun

Iroqdan Hindistongacha, Orol dengizi atroflaridan Arab dengizi sohillarigacha bo‘lgan yerlarda o‘z hukmronligini o‘rnatgan sulton Muhammad Xorazmshoh tez orada Samarqandni o‘z poytaxti deya e’lon qildi.

Sulton onasi Turkon xotunga hech qachon qarshi chiqmagan, uning gapini ikki qilmagan. Bu esa ko‘p hollarda onasi tomonidan Sulton Muhammad Xorazmshoh farmonlarining bekor qilinishiga sabab bo‘lgan. Bu holatni o‘sha davr tarixchisi An-Nasaviy quyidagicha izohlab, uni ikki sababga bog‘lab ko‘rsatgan edi: «birinchidan, onasining unga bo‘lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug‘idan ekanligi».

Turkon xotun «Jahon hokimi» degan laqabga ega bo‘lib, uning shaxsiy muhri (tug‘ro)da: «Dunyo va uning pokdomoni, Ulug‘ Turkon, olam ayollarining malikasi» degan bitik yozilgan edi. Turkon xotun poytaxt Gurganchda doimiy tarzda istiqomat qilar, o‘z saroyi, ulkan mulklariga ega edi.

El Arslon maqbarasi

Ijodiy faoliyat

1. Sulton farmonlarining onasi tomonidan bekor qilinishi qanday oqibatlarga sabab bo'lgan?
2. Tarixchi Nasaviyning bergan ma'lumotlari asosida munosabatingizni bildiring.

Mulohaza uchun

Turkon Xotun kim bo'lgan?

Tarixchi Juvayniyning yozishicha: «Turkon xotun qang'li urug'idan bo'lgan xon Jonkishning qizi edi. Gurganch (Urganch) Turkon xotunning xos poytaxti hisoblangan, uning xos saroyi ham mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Sulton Muhammad hukmronligi davrida Turkon xotun saltanat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan, uning farmoyishlari va maslahatlari o'g'li tomonidan so'zsiz bajarilgan. Turkon xotunning rahnamoligida saroy ahli, zodagonlar bir necha guruhga bo'linib, o'zaro adovat qilganlar. Qipchoqlardan tashkil etilgan oliy martabali sarkardalar Turkon xotun bilan yaqin bo'lib, aksariyati saroyda Sultonga qarshi bo'lib turgan biron-bir guruhga boshchilik qilganlar. Saltanat ishlari deyarli Turkon xotun tomonidan boshqarilgan. Ko'p hollarda Muhammad Xorazmshoh tarafidan e'lon qilingan hukm va farmoyishlar Turkon xotun tomonidan hech qanday asossiz, kengashsiz bekor qilinar edi.

Sulton onasi va haramini Mozandaronga olib ketib (mo'g'ullar hujumi davri haqida gap ketmoqda), u yerning qal'asiga bekitish uchun Xorazmga odamlarini yubordi. Turkon xotun o'g'lining buyrug'iga ko'ra harakat qildi. Sulton oilasi va haramini olib ketayotganida askarlarni Xorazmda qoldirishdi. Harakat paytida asir qilib olingan turli mamlakatlarning podshohlarini buyruq bilan Jayhun daryosiga cho'ktirib yuborganidan so'ng bolalari, nevaralari, yaqinlarini xazinasi bilan vazir Nosiriddinning kuzatuvida Eron tomondagi Ilol (Tajan irmog'idagi hudud) qal'asiga yubordi. Sulton ketidan ta'qib qilib Mozandaronga kelgan mo'g'ul sarkardasi Subutoy eslatilgan qal'ani qamal qilish uchun askar chaqirdi. Taqdirni qarangki, yomg'ir bulutlari o'z yuklarini ustiga to'kkan va o'sha paytgacha hech kim suv tanqisligini ko'rmagan Ilol qal'asi qurshovga olingan vaqtda yomg'ir ham ularga dushmanlik qilib, yog'may qo'ydi. O'n besh kundan so'ng suv tugagach, og'ir ahvolda qolgan Turkon xotun boshqa haram a'zolari bilan va vazir Nosiriddin bilan pastga tushdi. Ular qal'aning tubiga borgan vaqtda yashin ustiga yashin chaqib yomg'ir yog'a boshladi. Mo'g'ul askarlari Turkon xotunni yaqinlari bilan birga Toliqonda turgan Chingizxon yoniga olib bordilar. Turkon xotun mo'g'ul davlati poytaxti bo'lgan Qoraqurumga olib ketilgan va shu yerda vafot etdi».

Mo‘g‘ullarga asir tushgan Turkon xotun

Ma’lumot uchun

Anushteginiylar davrida ham somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylarda bo‘lgani kabi devonlarning alohida o‘rni ko‘zga tashlanadi. O‘z navbatida, devonlar ham kichik devonlarga bo‘lingan.

Harbiy devon harbiy masalalarni ko‘rish (devon jaysh) va harbiylarga maosh berish bilan shug‘ullanuvchi (devon ravotib) kabilarga bo‘lingan. Harbiy devon boshlig‘i, albatta, musulmon bo‘lishi shart edi.

«Oliy toj faxriy majlisi» deb atalgan hukumat boshqaruvi vazirning (bosh vazirning) qo‘lida bo‘lgan. Unga barcha devonlar bo‘ysungan.

Vazir, davlat boshlig‘ining asosiy maslahatchisi hisoblangan va o‘z harakatlari yuzasidan oliy hukmdorgagina hisobot bergan. Rasmiy tantanalar, xalqaro munosabatlar, tobe mamlakatlar bilan muzokaralarda oliy hukmdor nomidan ish yuritgan.

Vazir fuqarolar va davlat hukmdori o‘rtasida vositachi vazifasini bajargan hamda mamlakatdagi tartib-intizom uchun asosiy javobgar hisoblangan. U amaldorlarni ishga tayinlash va lavozimidan bo‘shatish, arzaq (nafaqa), oylik maosh hamda boshqa shu kabi to‘lovlarni belgilash huquqlariga ham ega bo‘lgan. Vazirlar o‘z ona tili — turkiy tildan tashqari, arab va fors tillarini mukammal bilishlari shart bo‘lgan.

Ijodiy faoliyat

1. Xorazmshohlar davlatining boshqaruvini Saljuqiylar davlati boshqaruvi bilan solishtiring. Bosh vazir vakolatlarining bir biridan farqi nimada?
2. Yevropa va Osiyoning boshqa davlatlarida bosh vazir lavozimiga teng keladigan lavozim qaysi edi?
3. Jamoaga bo‘lining va bu ikki hududdagi vazirlarning vakolatlari va majburiyatlarini taqqoslang va tahlil qiling.
4. Davlat boshqaruvida vazirning o‘rni qay darajada muhim deb hisoblaysiz?

Ma'lumot uchun

Sadr, dastur, xojayi buzurg kabi unvonlar bilan siylangan vazir har doim hukmdorning oldida yurgan, hukmdor safar va yurishlarga chiqqanida ham uni tark etmagan. Rasmiy qabullar vaqtida vazirlar xorazmshohlarning o‘ng tomonidan o‘rin egallashgan.

«Nizom ul-mulk» unvoniga ega bo‘lgan vazirlar xonaga oliy hukmdordan boshqa kim kirsa ham, hattoki u taxt vorisi bo‘lgan taqdirda ham, u bilan salomlashish uchun o‘rnilaridan turishmagan. Vazirlik mansabining tilga olingan takomillashgan ko‘rinishi Otsiz hukmronligi davri bilan bog‘liqdir.

Chingizxon bosqini arafasida mazkur lavozim Alovuddin Muhammad tomonidan bekor qilingan va oliy hukmdor qoshida olti vakildan iborat kengashga o‘xshagan boshqaruv joriy etilgan. Barcha a’zolarning roziligi bilan ish ko‘rishi kerak bo‘lgan ushbu kengashga davlat ahamiyatiga molik birorta ham jiddiy qaror qabul qilish nasib etmagan.

Yana bir muhim mansab – bu ulug‘ yoki buyuk hojib hisoblangan. Qoidaga ko‘ra, turkiy aslzodalar vakiligina hojiblikka tayinlanishi mumkin bo‘lgan. Hojib hukmdorning aynan o‘ziga tegishli ishlari bo‘yicha hisobot bergan, rasmiy marosimlarga amal qilinishini nazorat qilgan. Bir vaqtning o‘zida bir necha hojib faoliyat yuritgan. Ular sultonlarning eng muhim topshiriqlarini bajarishgan va ularga hamma joyda hamrohlik qilishgan.

Saroy ishlari boshqaruvchisi sanalgan ustozdor lavozimi egasi otxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, chog‘ir saqlanadigan yerto‘lalarni nazorat qilgan, saroy xodimlari faoliyati uchun to‘liq javobgar bo‘lgan. Sultonning shaxsiy otlari oxur amiri lavozimi egasining tasarrufida bo‘lgan. Bundan tashqari, amir a’lam, choshnigir (oliy hukmdorga beriladigan ovqat, ichimliklarni ta’tib ko‘ruvchi), davatdor (oliy hukmdor kotibi), farrosh (oliy hukmdorga mo‘ljallangan o‘rin-ko‘rpa, gilam, chodir va shunga o‘xshashlar uchun mas’ul xizmat boshlig‘i) kabi kichik mansablar ham mavjud bo‘lgan.

Xorazmshoh El Arslonning taxtga o‘tirishi marosimi. «Jome at-tavorix» kitobidan.

Mulohaza uchun

Poytaxt Urganch o‘z davrining buyuk, boy va go‘zal shahri sanalgan. Urganch mohir hunarmandlari bilan mashhur bo‘lgan, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar o‘z ishining ustalari bo‘lishgan. Urganchlik o‘ymakor duradgorlar fil suyagi va obnus daraxti yog‘ochidan ajoyib buyumlarni yasashgan. Shaharda tabiiy shoyi mato ishlab chiqaradigan ustaxonalar bo‘lgan.

Qurilish ishlarida esa majnuntol yog‘ochidan keng foydalanilgan. Ushbu yog‘ochdan qurilgan inshootlar yengil bo‘lgan va toshdan qurilgan binolarga qaraganda zilzilaga chidamli hisoblangan. Yo‘llar va karvonlarni qo‘riqlash ishining oliy darajada tashkil etilgani ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Urganch savdogarlari Bag‘dod, hattoki Andalusga qadar mahsulotlar olib borishgan. Urganch mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilguniga qadar aholi unda juda zich yashagan.

Shaharda ko‘plab bozorlar mavjud bo‘lgan. Bozordagi tartibni, asosan, muhtasib ushlab turgan. U mahsulotlarning sifatini, idishlarning tozaligini, mahsulotlarning yangiligini, tarozi toshlari va uzunlik o‘lchovchi asboblarning to‘g‘riligini nazorat qilgan. Xorazmning Ardaxushmisan, Xivak, Darg‘an, Savakon, Govshfinj, Kot, Nuzkot, Hazorasp kabi kichikroq shaharlarida ham hunarmandchilik rivojlangan va savdo-sotiq gullab-yashnagan. Marv, Buxoro, Samarqand, Ray, Nishopur kabi shaharlar mamlakat siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallagan.

Xorazmshohlar davlati harbiylari

Najmiddin Kubro maqbarasi, Turkmaniston

Ijodiy faoliyat

1. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq gullab-yashnashida hukmdorlarning o'rni qanday bo'lgan?
2. Jamoaga bo'lingan holda Xorazm davlatida bozorlar haqida fikr yuriting. Bugungi kunda ham mavjud bo'lgan qaysi tarixiy shaharlarda bozorlar gavjum bo'lgan va buning asosiy sabablarini ko'rsatib bering.

Ma'lumot uchun

Xorazmshohlarga qaram bo'lgan mulklarda ham xorazmshoh nomi bilan xutba o'qilgan va tangalar zarb etilgan.

Anushteginiylar ismi yozilgan tangalar Samarqand, Buxoro, O'tror, Termiz, Chag'oniyon, Vaxsh, Balx, Bomiyon, G'azna, G'ur, Jurzuvon, Zamindovar, Yamur, Kunduz, Marv, Niso, Nishopur, Peshovar va boshqa hududlarda zarb qilinganini aytish mumkin.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Xorazm tarixi bilan bog'liq badiiy asarlar ro'yxatini shakllantiring. Ulardan bittasini o'qib chiqing.
2. Sharq va G'arb bozorlarining o'ziga xosliklarini taqqoslang.
3. XII asr oxirlarida Xorazmdagi vaziyat qanday edi?

38-mavzu:

ETNIK JARAYONLAR VA O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Etnik jarayonlar, etnogenez deganda nimani tushunasiz?
2. Shajara deganda nimani tushunasiz? Siz o‘z shajarangizni bilasizmi? Shajarani bilish nima uchun kerak?
3. VI asr oxiri – VII asr boshlarida Turk xoqoniligining hududlariga qayerlar kirgan?

Ma’lumot uchun

O‘zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo‘lib, Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g‘arbiy mintaqalarida shakllangan. Ular qadimdan o‘troq yashab, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan.

Turkiston – turkiy aholi o‘rnashgan o‘lka.



Ijodiy faoliyat

Qadimda mamlakatimiz hududida qanday qabilalar yashagan? Ular yashagan hududlarini xaritadan aniqlang.

Etnik jarayon – kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo'shilib borishi.

Mulohaza uchun

Bu hududda yashagan sug'diylar, baqtriylar, xorazmiylar, farg'onaliklar, shoshliklar, yarim chorvador qang'lar, ko'chmanchi sak-massaget kabi etnik guruhlar o'zbek xalqining etnogenezida ishtirpk etgan. Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrga kirib kelgan etnik guruh ham bu jarayonning ishtirokchilari bo'lishgan. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar.



Turonda qadimgi qabila va xalqlarning o'rnashuvi

O‘zbek xalqining asosini sug‘diylar, baqtriylar, xorazmiylar, farg‘onaliklar, shoshliklar va sakmassagetlar tashkil etgan.

Ijodiy faoliyat

1. 6-sinfda tarix fanidan olgan bilimlaringizga asoslanib «qabila» atamasiga ta’rif bering.
2. Bir-birlari bilan qon-qarindoshlik munosabatida bo‘lishi hamda urug‘larga bo‘linishi xususiyatlari bilan keyingi bosqichdagi etnik birlik (elat)dan farq qiladigan guruh nima deb ataladi?

Bilasizmi?

Xalqlarning kelib chiqish tarixini (etnogenezini) va shakllanish jarayonini o‘rganishda fanda «etnos» (yunoncha «xalq») va «etnik birlik» iboralari qo‘llaniladi.

Qang‘ davlati davrida “Qovunchi madaniyati” va O‘rta Osiyoning antropologik qiyofasi to‘liq shakllanadi.

Ma’lumot uchun

Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yashagan qabila va elatlarning etnik jihatdan aralashuv jarayoni natijasida o‘troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o‘zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllanadi.

Qang‘ davlati davrida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o‘ziga xos uyg‘unlashgan madaniyat yuzaga keladi. Arxeologik asarlarda bu madaniyat «Qovunchi madaniyati» nomini olgan. Antropolog olimlarning ta’kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelib, O‘rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi aholi tashqi qiyofalarida hozirgi o‘zbek va voha tojiklariga xos antropologik qiyofasi to‘liq shakllanadi.

O‘zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik guruhlar – kushonlar, xioniylar, kidariylar va eftallar, turkiy qabilalar faol ta’sir ko‘rsatadi.

Turkiy elatlar va mahalliy o‘troq aholi o‘rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo‘jalik an’analar bilan jadal uyg‘unlashuvi yuz berdi. VII asrdan o‘lkamiz «Turkiston» nomi bilan atala boshlangan.



Mulohaza uchun

O‘zbek xalqining tashkil topishi. VIII asrdan arab va boshqa xalqlarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta’sir etmagan. IX asrda Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o‘z navbatida sug‘diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o‘tishi munosabati bilan sodir bo‘lgan etnik jarayon o‘zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo‘ldi.

IX–XII asrlarda o‘zbek xalqi shakllandi. Uning asosini o‘lkamizda yashab kelgan ziroatkor va chorvador tub yerli aholi tashkil etdi.

Movarounnahrda joylashgan aholi qadimdan ikki tilda: sug‘d va turk tillarida so‘zlashgan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. O‘zbeklar shakllangan mintaqalarni yozuvsiz xaritada bo‘yab chiqing.
2. O‘zbek xalqining asosini qaysi etnik guruhlar tashkil etgan?

39-40-mavzular:

MINTAQADA ISLOM DINING YOYILISHI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringizni eslang. Islom dini paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Islom dini dastlab Turonning qaysi hududlarida tarqalgan?
3. Islomning jahon diniga aylanishidagi tarixiy shart-sharoitlarni aniqlang.
4. Islom dinida dastlabki bo'linish qachon sodir bo'lgan, uning sabablari nimada edi?
5. Arabiston tarixida qaysi davr «Johiliyat davri» deb atalgan?

Ma'lumot uchun

Islom dining Turonga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablarning ko'p asrlik hukmronligi bilan bog'liq. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida Turon ikki qismga bo'lindi:

1) Movarounnahr («Daryoning narigi tomoni»);

2) Arodi at-turk («Turklar yerlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari).

Islom dining Turonda tarqalishiga qator omillar bevosita o'z ta'sirini o'tkazdi. Abu Muslim qo'zg'oloni davrigacha islomdan oldingi davr hukmdorlari o'z mavqelarini saqlab turdilar. Ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig'ish vazifalarini bajardilar.

Arablar ko'pgina imtiyozlarga ega edilar. Islom dinini qabul qilgan mahalliy aholi ham jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo'lardi. Abu Hanifaning arab bo'lmagan musulmonlarning teng huquqli ekanligi haqidagi g'oyasi, ularning jamiyatda kamsitilishlariga qarshi sa'y-harakatining Turonda ham joriy etilishi mintaqada islom dining keng tarqalishi uchun imkon yaratdi.

Islom dining asosiy manbalaridan biri – hadislarning yig'ilishida buyuk vatandoshlarimiz Abu Abdulloh Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Imom Dorimiylarning xizmatlari katta bo'ldi. Shu tufayli ham islom dining mintaqada yoyilishi tezlashdi.

Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'ambar nomi zikr etilganda unga hurmat yuzasidan «sollallohu alayhi vasallam» (qisqacha: s.a.v.: «unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin») yoki «alayhis-salom» (qisqacha: a.s.: «unga salom bo'lsin») iborasini aytish lozim hisoblangani uchun islom tarixiga oid adabiyotlarda s.a.v. yoki a.s. qisqartmasi ishlatiladi.

Ijodiy faoliyat

1. «Qur'oni karim» va «Hadisi sharif» deganda nimani tushundingiz?
2. Turon hududiga Islom dini qachon kirib keldi?

Ma'lumot uchun

Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa nomi bilan mashhur Nu'mon Sobit Kufiy (699–767) hisoblanadi. Ushbu mazhab o'z mohiyati, ta'limoti va qo'llagan uslubi bilan jamiyatda yuz berib turadigan har qanday savolga javob topishga intilgan. Ya'ni hanafiy mazhabi yangi vujudga kelgan diniy masalaning yechimini hal qilib bergan. Abu Hanifa og'ir vaziyatlarda odamlar uchun qulay sharoit yaratib berib, qiyinchiliklarini oson qilishga uringan. Abu Hanifa erkinlik tamoyilining homiysi edi. Tijorat va boshqa sohalarda inson huquqi va erkinliklarini himoya qilib keldi. Masalan, turmush qurishda erkak va ayolga teng huquq berilishi, yetim bolalarning huquqlari va boshqalar.

Mazhab (arab. – yo'nalish, yo'l, ta'limot), shariat mazhablari – islomda diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari.

Bilasizmi?

Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit (699, Kufa — 767, Bag‘dod) — sunniy musulmonlar tomonidan hurmat bilan «Imomi A’zam» deb ataladi. Hanafiylik mazhabi sharafiga shunday nomlangan. Faqih, muhaddis. «Abu Hanifa» uning kunyasi, «Imomi A’zam» («Ulug‘ imom») ulug‘ligining e’tirofi uchun berilgan unvon.

Imomi A’zam shu qadar go‘zal xulqli inson ekanki, zamondoshlari u kishining fazilatlarini tan olib, «eng chiroyli xulq Imomi A’zamning xulqidir», deb e’tirof qilgan. Doimo chiroyli va pokiza kiyimlarda yurgan. Shunday baland maqomga erishgan zot nihoyatda tavozeli, xokisor, kamtar bo‘lgan. U o‘ziga yomonlik qilganlarni ko‘rganida: «Bizlarni yomonlagan kishilarni gunohini Alloh kechirsin, b larni yaxshi ko‘rganlarni All rahmat qilsin», — deb duo lar ekan.

Imomi A’zam maqbarasi. Bag‘dod

Kunya – abu (arabcha «ota») so‘zining izofa qaratqichli birikma holatidagi shakli. Arablar va boshqa musulmon xalqlarda ko‘pchilik kunyalarning tarkibiy qismi. Masalan, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar. «Abu» bilan kelgan ism shaxsning otasi, «ibn» bilan kelgan ism esa shaxsning o‘g‘li degan ma’noni bildiradi.

ISLOM DININING YOYILISHI

IX-XII asrlarda islom dini O‘rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida katta rol o‘ynay boshladi. Movarounnahrda bu davr arab xalifaligidan mustaqil bo‘lgan davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi davri bo‘lgan. Islom bu vaqtda Sharqda keng tarqalib, jahon dini darajasiga ko‘tarildi, musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi.

Arab tilida ilmiy asarlar yozildi. Azaldan savodli bo‘lgan, madaniyati yuqori darajaga ko‘tarilgan Turon xalqi tez orada nafaqat arab tilini, balki islom ilmlarini ham chuqur o‘rganib, arab tili va shariat masalalarida kitoblar yozadigan olimlarni yetishtirib chiqara boshladi.

Shaharlarda masjid-u madrasalar qurilishiga e’tibor berila boshlandi. Manbalarning darak berishicha, Buxoroda dastlabki madrasalar VIII-IX asrlardan boshlab barpo qilingan.

Hatto qonunshunoslar uchun ham maxsus «Faqihlar madrasasi» degan ixtisoslashtirilgan madrasa qurilgan. Bunday bilim maskanlarida Qur’oni karim, hadis ilmi va shariat asoslari har tomonlama mukammal o‘rganilgan.

O‘sha davr shaharlari orasida islom dini ta’limotini chuqur targ‘ib qilishda Buxoro shahri alohida o‘rinni egalladi. Yuqorida qayd qilinganidek, madrasayu, maktablarning borligi bu yerda ilohiyot fani bo‘yicha yirik olimlarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Buxoro shu davrdan boshlab «Qubbatul islom» – «Islom dining gumbazi» nomi bilan shuhrat topa boshladi.

Sekin-asta islom dini markazlashgan davlatning asosiy mafkurasiga aylandi.

... Tilingni yaxshi hunar bilan o‘rgatgil va muloyim so‘zdan boshqa narsani odat qilmagil. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatgil, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim.

Kaykovus, «Qobusnoma»

Bugungi kunda Markaziy Osiyo musulmonlarining aksari hanafiylik mazhabiga ergashadi. Ayni damda mazkur fiqhiy ta'limot Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Turkiya va qator Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan.

2017-yildan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Imom Moturidiy majmuasida «Kalom ilmi maktabi», moturidiylik ta'limotining yirik vakili Abul Mu'in Nasafiy ziyoratgohida esa «Aqoid maktabi»ni tashkil etildi.

Molikiylik mazhabi asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas 711-yilda tavallud topgan. Mazkur mazhabda birinchi manba Qur'oni karim, ikkinchi manba hadis hisoblanadi. Molikiylik mazhabida shar'iy masalalarda Madina hayoti va odatlari ko'p hollarda ustun turgan. Molikiylik Marokash, Jazoir, Tunis, Bangladesh kabi mamlakatlarda asosiy mazhab hisoblanadi.

Shofe'iylik mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris Shofe'iy (767–804). Shofe'iylik mazhabi fiqhiy hukm chiqarishda Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga suyanadi. Ular hanafiylar va molikiylarda mavjud bo'lgan istehsonni rad qiladilar. Shofe'iylik, asosan, Indoneziya, Malayziya, Misr, Sudan, Keniya, Mali, Liviya kabi davlatlarda tarqalgan.

Hanbaliylik mazhabi asoschisi imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal (780–855) Bag'dod shahrida yashagan. Hanbaliylik mazhabida Qur'on va sunnat asosiy manba hisoblanadi. Ijmo va sahobalarning gaplari keyingi o'rinlarda turadi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatishga ruxsat beriladi. Mazkur mazhab izdoshlari kam sonli bo'lib, asosan, Saudiya Arabistoni, Yaman, BAA, Quvayt, Qatar davlatlari aholisi orasida tarqalgan.

Sunniylikdagi to'rtala mazhab bir-biri bilan teng hisoblanadi. Mazhablar an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan farq qiladi.

Ijodiy faoliyat

1. Mazhab deganda nimani tushundingiz?
2. Sunniylar yashaydigan hududlarni xaritadan aniqlang.

Ijmo - ilk islom davrida ulamolarning bir ovozdan qabul qilgan qarorlari.

Bilasizmi?

Keyingi davrda paydo bo'lgan «soxta salafiylik», «Hizbut tahrir» kabi yo'nalishlarni fiqhiy mazhablarga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ular shar'iy masalalarda o'z mustaqil yechimlarini bergan tizimga ega emas. Ularga noqonuniy diniy-siyosiy harakat sifatida qarash mumkin.

Abu Mansur Moturidiy maqbarasi. Samarqand

O'zbekistonda 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi keng nishonlandi.

Mulohaza uchun

VIII–IX asrlarda musulmonlar orasida Qur'on oyatlari va hadislarni noto'g'ri tushungan toifalar paydo bo'ldi. Ular goh Allohni insonga o'xshash tasvirlar, goh uning xususiyatlarini inkor etar, payg'ambarlar, Qur'oni karim sha'niga noloyiq fikrlarni bildirar edi. Mana shunday sharoitda sunniylik yo'nalishi olimlari ayrim oqimlarning buzg'unchi g'oyalariga bir qator raddiyalar berganlar. Natijada Abu Mansur Moturidiy (870–944) moturidiya ta'limotiga asos solgan.

Moturidiy sof diniy aqida doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Moturidiyga ko'ra, inson hayotiy imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar ham berilgan.

Inson o'z xatti-harakatlarini tanlashda ixtiyorlidir. Buyuk alloma o'z qarashlari bilan hanafiylik ta'limotining Turon xalqlari an'analari, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi.

Eng e'tiborlisi, islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrika kabi mamlakatlarda moturidiylik ta'limoti hozir ham oliy, o'rta ta'lim tizimida va diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinadi.

Ash'ariya ta'limoti. Ushbu ta'limotga Abul Hasan Ash'ariy (873–936) asos solgan. Imom Ash'ariy umrining yarmini adashgan oqimlarga qarshi kurashga bag'ishlagan. Ash'ariya ta'limoti ham sunniylik aqidasiga muvofiq ta'limot hisoblanadi. Ushbu ta'limot ham, asosan, mo'taziliya, qadariya, jabariya kabi adashgan guruhlarning aqidaviy g'oyalariga qarshi turgan. Ash'ariya ta'limoti, asosan, Iroqda, so'ngra saljuqiylar hukmronligi davrida Xurosonda rivojlangan.

Bilasizmi?

Islom dinida tasavvuf va tariqat degan tushunchalar ham bor. Tasavvufning chin mohiyati nafsni poklash, axloqni sayqallash, ma'naviy kamolotga erishishdan iborat. Mazkur maqsadlarga erishish uchun olimlar tomonidan maxsus maktablar – tariqatlar tuzilgan. «Tariqat» arab tilidagi so'z bo'lib, «yo'l» ma'nosini anglatadi. Bugungi kunda tariqatlar soni ko'p bo'lib, ularning eng yiriklari Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiyadir. Muhimi, ularning barchasi ona yurtimizda yuzaga kelgan.

Tasavvuf va unga o'zakdosh bo'lgan sufiy, mutasavvif atamalarining kelib chiqishi arab tilidan «jun, yung» ma'nosini bildiruvchi «suf» so'zidan olingan.

Ijodiy faoliyat

1. Tasavvufga berilgan ta'rifni o'qing. Ta'rifdagi «yomon axloqlar» deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun bunday yomon axloqlardan qutulish kerak deb o'ylaysiz?
3. Xuddi tibbiyot ilmi badan sog'lig'iga oid ma'lumotlarni o'rgatganidek, tasavvuf ham qalbning, ham ruhning yomon axloqlardan xalos bo'lishi yo'llarini o'rgatadi, degan fikrni asoslashga harakat qiling.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Turon hududida islom dinining keng yoyilishiga xizmat qilgan omillarni sanang. Dinning yoyilishida madrasalarning o'rni qanday edi?
2. Islom dinining yuksalishida yurtdoshlarimizning xizmatlari qanday bo'lgan?
3. Ularning bugungi kundagi ahamiyati qanday?
4. «Tarixdagi ajdodlarimiz xizmatining bugungi kundagi ahamiyati» mavzusida qo'shimcha ma'lumotlar asosida taqdimot tayyorlang.

41-42-mavzular: TA'LIM

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Biror-bir mamlakatda ilm-fanning rivojlanishi o'sha jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Agar siz ilmning biror sohasini mukammal egallasangiz kimlar ko'proq manfaat ko'radi? Jamiyatga qanday manfaat yetadi?
3. Sizning bilim egallashingiz uchun dastlabki poydevor qayerda qo'yilgan?
4. Nima deb o'ylaysiz, yurtimiz mutafakkirlarining jahon ilm-fani rivojiga hissa qo'shishlarida ularning ustozlari va ta'lim dargohlarining o'rni qanday bo'lgan?

Mulohaza uchun

Abu Homid G'azzoliy (1058–1111) o'z davrida «Hujjatul islom» (islom dalili) nomi bilan mashhur bo'lgan. G'azzoliy Sharq va G'arbda ilohiyotchi, faylasuf sifatida tanilgan. G'azzoliyning «Ihyou ulumid-din» asarining «Ilm kitobi» qismida «ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi odoblari haqida» ibratli fikrlar bayon qilingan. U: «Ilmning avvali sukut qilish, keyin tinglash, keyin uni yod olish, keyin unga amal qilish, keyin esa tarqatish – boshqalarga o'rgatishdir», – deb yozadi.

Ilmni kimlarga o'rgatmoq lozim, degan savolga «dunyoviy va diniy ilmlarni faqat qalbi ezgulikka limmo-lim insonlarga o'rgatish lozim. Ilm faqat ezgulikka xizmat qilishi kerak», degan fikrni ilgari suradi.

Ijodiy faoliyat

1. G'azzoliy: «Dunyoviy va diniy ilmlarni faqat qalbi ezgulikka limmo-lim insonlarga o'rgatish lozim. Ilm faqat ezgulikka xizmat qilishi kerak», – deganda nimani nazarda tutadi?
2. Ilm qachon yovuzlikka xizmat qilishi mumkin?

S. P. Tolstov «Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab» asarida Xorazmdagi Jonbosqal'a va Tuproqqal'adan topilgan zardushtiylarning ibodatxonalari haqida shunday yozadi: «Inshootlarning o'rtasida qo'sh devorlar bilan qurshalgan va ichkariga aylanma yo'lagi bo'lgan to'g'ri burchakli bino bo'lgan. Xonalardan 140 ta teriga va yog'ochga yozilgan turli mazmundagi hujjatlar hamda 138 ta katta-kichik haykalchalar topilgan».

Ijodiy faoliyat

Yuqoridagi tarixiy manbaga tayanib, Xorazmda ibodatxonaga tutash binolarda huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bilan birgalikda ta'lim maskanlari ham bo'lganligini asoslashga harakat qiling.

Ma'lumot uchun

Turonda islomga qadar ham bir necha asrlar davomida shakllangan ta'lim tizimi mavjud edi. Mintaqada islom dini mafkurasining o'rnatilishi natijasida mahalliy ta'lim tizimida *«madrasa»* deb atalgan oliy ta'lim muassasalari paydo bo'ladi. Shu ma'noda, ilk oliy o'quv yurti VIII–IX asrlarda Buxoroda paydo bo'lgani ham bejiz emas. Ulardan eng mashhuri Farjak madrasasi bo'lib, u 937-yili yonib ketgan. Samarqandda X asrda 17 ta madrasa tashkil etilgan. Maktabdan yuqori bosqichdagi ta'lim dargohlari to «madrasa» nomi qat'iylashguncha *«majlis»* deb atala boshlangan va ularda *shayx, hakim yoki ustoz* deb atalgan ilmli kishilar dars berganlar.

Mulohaza uchun

Turondagi davlatlar ma'naviy va ma'rifiy hayotiga nazar tashlasak, bu hududlarda savodxonlik yuksak darajada bo'lgan. Masalan, Mug' tog'idan topilgan hujjatda VIII asrda o'lkamizda ro'y bergan voqealar haqida so'z boradi. Bu hujjat kul rang, ipak tolalari aralash «Xitoy» qog'oziga bitilgan.

Hujjatni Divashtichning quli yozgan. Bu esa Turonda nafaqat erkin aholi, balki qullarning ham savodli bo'lishiga e'tibor qaratilganidan dalolat beradi.

Akademik A. Sagdullayevning «Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda» nomli kitobida sug'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va manjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'lganligi ta'kidlanadi.

Ma'lumot uchun

Eftaliylar va Turk xoqonligiga oid bo'lgan tangalarda podshohlarning rasmi tushirilib, ismlari bilan zarb etilganlari uchraydi. Turk xoqoni Istami Vizantiya imperatoriga noma yuboradi. Elchining sug'd ekanligi va u olib borgan noma sug'd tilida bitilganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Eftaliylar davrida mintaqada sug'dcha, xorazmcha, buxorocha, karoshti, eftaliycha yozuvlar mavjud bo'lgan.

Qutayba ibn Muslim davrida Buxoro hisorining ichida jome masjidi va madrasa bino qilingan. U joy (ilgari) butxona edi. Qutayba ibn Muslim davrida Afshona qishlog'ining ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan.

Madrasalarning ta'minoti pul, g'alla va o'sha ikki mahsulotda aralash holda amalga oshirilgan. Har bir madrasa huzurida boshlang'ich maktablar bo'lgan. Boshlang'ich ta'limda 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitilgan. Madrasada ta'lim olish esa 12, 14 yoshdan boshlangan. Ta'lim aslida bepul bo'lgan. Shuningdek, nizomiya madrasalarida talabalarga stipendiya berilgan.

Ijodiy faoliyat

Berilgan matnni o'qib, quyidagi savolga javob bering: Nima uchun turk xati mavjud boshqa xatlarni iste'moldan chiqardi?

Mashhur sayyoh, Istaxriy (850-934) xorazmliklarning ilmga o'chliklarini o'zining «Kitob masolik va-l-mamolik» (930-933-yillarda yozilgan) asarida: «Hozir Bag'dodda biror olim yo'qki, uning xorazmlik shogirdi bo'lmasin», – deb ta'kidlagan.

Mulohaza uchun

IX asr boshlarida Balxda 400 ta madrasa va 900 ta maktab bo‘lgan.

Turon Uyg‘onish davrining o‘ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo‘ldi. Xorazmshoh Anushtegin davrida jami 4440 ta, faqatgina Gurganchning o‘zida 700 ta madrasa bo‘lgan.

“Ilmning sifati uch vajhdandir: yo bir pesha bila bog‘lang‘on ilm; ilm bilan bog‘liq pesha (hunar, kasb); xayr va dalolatga taalluqli odat. Biror pesha bila bog‘liq ishlar tabiblik, munajjimlik, muhandislik, massohlik (yer o‘lchovchi, tanobchi), shoirlik va bularga o‘xshash ishlardir. Ilmga taalluqli bor pesha xunyogarlik (musiqa asboblari ustasi), baytorlik (otlarni davolovchi), binokorlik, korizkunlik va bulardan tashqari ishlar ham bordur. Bularning har birisida shundoq qoida bordurki, agar sen uning rasmin va tartibin bilmasang, har qancha usta bo‘lsang ham, ul bobda serrayg‘on kishidek bo‘lursan, ya’ni taajjublanib turg‘aysan».

Kaykovus, «Qobusnoma»



O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. O‘qigan ma’lumotlaringiz asosida mamlakatimiz ta’lim tarixining taxminiy yoshini aniqlang.
2. Dastlabki ta’lim muassasalari qayerlarda faoliyat ko‘rsatgan?
3. Imom G‘azzoliy ilm haqida qanday ma’lumotlar beradi?
4. Kaykovus «Qobusnoma»sidan berilgan parchadan qanday xulosaga keldingiz?
5. Madrasalardagi ta’lim nima uchun vaqf hisobidan amalga oshirilgan? Ularda qanday bilimlar berilgan?

TARIXNI O‘ZGARTIRGAN SHAXSLAR



Dunyoda xalqlar ko‘p, davlatlar ko‘p. Minglab millatlar va turli-tuman elatlar ham. Ulardan har birining dunyo tamadduniga qo‘shgan o‘z hissasi bor, ma’lum miqdordagi ulushi bor. Bu ulushni esa kimdir ko‘proq, kimdir kamroq qo‘shib yashamoqda. Bu tabiat qonuni, rivojlanish tamoyilidir.

Biz shu zamin egasi, shu xalq vakili sifatida dunyo tamadduniga qo‘shgan ulkan ulushimiz bor, deb ayta olamiz. Qomusiy olim sifatida Beruniy, tibbiyot madadi Abu Ali ibn Sino, aniq fanlarda Xorazmiy, diniy ilmda Imom Buxoriy, harb ilmida Amir Temur, osmon ilmida Mirzo Ulug‘bek, she’riyat va badiiy adabiyotda Navoiy oldini kesib o‘tadigani hali-hanuz topilmasa kerak.

Keyingi mavzularimiz mana shu haqida...

43–44-mavzular:

AQL-ZAKOVAT BILAN BUNYOD ETILGAN BOY MA’NAVIYAT

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Agar Yevropa uyg‘onish davri – Renessansning natijalari sifatida adabiyot va san’at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasidagi yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo‘lsa, Turonda bu jarayon qaysi fanlarning rivojlanishi bilan namoyon bo‘ldi?
2. Islom diniga e’tiqod kuchli bo‘lgan IX-XI asrlarda nima uchun u dunyoviy fanlarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlagan?

Ma’lumot uchun

Yurtimiz allomalari diniy bilimlar bo‘yicha ham yuksak darajaga erishganlar. Masalan, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Forobiy, Beruniylar Qur’oni karim, hadis, islom tarixi va huquqshunosligi bo‘yicha ham asarlar yozganlar. Musulmon olamidagi dastlabki o‘quv dargohlari — madrasalar VIII asrning oxirlarida o‘sha davrdagi ilmiy-madaniy markazlar hisoblangan Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Xiva, Shosh, Marg‘ilon kabi qadimiy shaharlarda faoliyat ko‘rsata boshlagan. Bunday ilm dargohlari o‘zining natijasini ko‘rsatib, yurtimizdan buyuk mufassirlar (Qur’onni tafsir qiluvchilar) va muhaddislar (hadis to‘plovchilar) yetishib chiqqan.

Muhammad (s.a.v.)ning olti yuz mingga yaqin hadislarini yodida saqlagan buyuk alloma Imom Buxoriy «Hadis ilmining sultoni» degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan. Buyuk muhaddisning «al-Jome as-sahih» (Sahih, ishonchli to‘plam) asari Qur’oni karimdan keyingi o‘rinda turadigan ikkinchi muhim manba sifatida islom olamida yuqori bahoga sazovor bo‘lib kelmoqda.

Ijodiy faoliyat

1. Imom Buxoriy hadislarini qabul qilishlari uchun uning roviysi qanday talablarga javob berishi zarur bo'lgan? Nima uchun? Siz yana qanday talablarni qo'ygan bo'lardingiz?

2. Ushbu ma'lumotni o'qing! Nima sababdan Imom Buxoriy uzoqdan kelgan bo'lsalar-da, hadis eshitmasdan ortga qaytib ketganlar?

Bir kuni bir insondan hadis eshitish va uni yozib olish uchun izlab boradilar. U kishi otini chaqirish maqsadida etagiga yolg'ondan yem solgandek ko'rsatib, aldab chaqirayotganini ko'radilar. Oqibatda juda uzoqdan kelgan bo'lsalar-da, u kishidan hadis eshitmay qaytib ketadilar.

Mulohaza uchun

Imom Buxoriy hadis ilmi olimlaridan biri Is'hoq Rohuvaihning huzurida bo'lgan. U ba'zi shogirdlariga: «Koshki sizlar Nabii sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini jamlagan muxtasar, sahih kitob jam qilsangiz edi!» – dedi. Bu Imom Buxoriyning qalbiga o'rnashib qoldi va u hadislarni jamlashni boshladi. Bu hadislarni 600 000 ta hadisdan chiqarib olib, kitobiga faqat sahih hadislarni jamladi. Hadislarning roviysi (yetkazuvchi, rivoyat qiluvchi, aytuvchi) haqidagi ma'lumotlarni ham berish ularning ishonchliligini ta'minlash uchun asos bo'lgan. Har bir roviyning tarjimayi holini yozar, har bir hadisni yozishdan oldin poklanib, ibodat va duolar qilar edi. Imom Buxoriy hadislarni qabul qilishi uchun hadis qator talablarga javob berishi zarur bo'lgan. Hadis aytuvchining musulmon bo'lishi, yoshi, ya'ni voyaga yetganligi, aqlining rasoligi, gunoh ishlardan saqlanganligi, ilmga amal qilishi, eshitgan xabarining rostligini aniqlab keyin birovga aytadigan odam bo'lishi, shu bilan birga, xotirasining kuchliligiga, yolg'ondan uzoq bo'lishi kabi talablarga amal qilgan. «Al-Jome as-sahih» 16 yil mobaynida yozib tugatildi.

Imom Buxoriy maqbarasi. Samarqand

"Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay!"
Imom Buxoriy

Manbalarda

Imom Buxoriyning imtihon qilinishi

Bir kuni Imom Buxoriyning Bag‘dodga kelganini eshitgan olimlar u kishini imtihon qilib ko‘rmoqchi bo‘ldilar. Bag‘dod muhaddislari yuzta hadisni tanlab olib, ularning matn va isnodlarini o‘zgartirdilar (ya’ni, bir isnod matnini ikkinchi bir isnod matni bilan va bir matn isnodini boshqa matn isnodi bilan almashtirib qo‘ydilar). So‘ng ularni o‘n kishiga o‘ntadan bo‘lib berdilar-da, yig‘in vaqtida Imom Buxoriyga aytishni tayinladilar. Yig‘inga minglab xurosonlik, bag‘dodlik va boshqa olimlar kelishdi. Boyagi kishilar o‘zlariga topshirilgan hadislarni Imom Buxoriyga aytib, ular xususida so‘radilar. Shunda Imom Buxoriy ularning har biriga: «Bunday hadisni bilmayman», – deb javob berdi. Savollar tugaganidan so‘ng birinchi bo‘lib savol bergan kishiga o‘girildi-da: «Ammo, sen aytgan birinchi hadisning matni boshqa bir hadis isnodiga taalluqli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday, ikkinchisining isnodi esa bo‘lak hadis matniga tegishli bo‘lib, to‘g‘risi mana bunday...» – deya savol bergan 10 kishiga javob berdi. Barcha hadislarning isnod-u matnlarini joy-joyiga qo‘yganiga qoyil qolgan odamlar u kishining xotirasi, aql-u zakovatiga tan berib, chuqur izzat-ehtirom bildirdilar.

Ijodiy faoliyat

1. «Imom Buxoriyning imtihon qilinishi» hikoyasini o‘qib, uning noyob iste’dodi haqida mushohada qiling.
2. Xotirani mustahkamlash uchun qanday mashqlar zarur? Siz xotirangizni mustahkamlash uchun qanday mashqlar bajarasiz?
3. Kitob o‘qish va yod olish xotirani mustahkamlaydi, degan fikrga qo‘shilasizmi?
4. Islom dinida ilm-fanga e’tibor berishdan va targ‘ib etishdan qanday maqsadlar ko‘zlangan?

Manbalarda aytilishicha, Imom Buxoriyning sahih to‘plamiga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7 275 ta bo‘lib, takrorlanmaydigan holda esa 4 000 hadisdan iborat bo‘lgan.

Bilasizmi?

707-yili musulmonlar tomonidan dunyodagi birinchi shifoxona tashkil qilindi. Shu shifoxonaning o‘zida hamshiralar xizmat ko‘rsatishi yo‘lga qo‘yildi va tibbiyot oliygohlari faoliyat ko‘rsata boshladi. Ko‘p asrlar mobaynida aynan musulmon shifokorlari ko‘z kasalliklarini tekshirish va davolash bo‘yicha mutaxassislar hisoblanishgan.

1990- yili yurtimizda Termiziy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

Ma'lumot uchun

Imom Termiziy. Abu Iso Muhammad Termiziy (824–892-yil, Termiz) Bug' qishlog'i (hozirgi Sherobod tumani)da tavallud topgan buyuk o'zbek muhaddisidir. Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashashgan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e'tirof etadi. O'z navbatida, Imom Buxoriy o'z shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: «Sen mendan bahra topganingdan ko'ra, men sendan ko'proq bahra topdim», – deydi. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho edi. 868-yilda u o'z tug'ilgan yurtiga qaytgan.

Termiziy ziyoratgohi

Ijodiy faoliyat

«Sen mendan bahra topganingdan ko'ra, men sendan ko'proq bahra topdim», deganda Imom Buxoriy nimani nazarda tutgan?

Mulohaza uchun

Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati: «Al-Jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam»), «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatlari»), «Al-Ilal fil-hadis» («Hadislardagi illatlar»), «at-Ta'rix» («Tarix») va boshqalar bizgacha yetib kelgan. Uning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz «Al-Jome' as-sahih» bo'lib, u 6 ta ishonchli hadislar to'plamidan biridir.

Manbalarda

Abu Iso Muhammad Termiziy Makkaga hajga borayotganlarida yo'l-yo'lakay ko'plab mashhur muhaddislar bilan uchrashib, ularning biridan hadis ilmidan saboq bermog'ini iltimos qilgan. Shunda u kishi: «Mayli, qo'lingizga qog'oz-qalam olingiz!» – degan. Aksiga olib, shu payt Termiziy qalam topa olmagan, olim ro'parasida o'ltirib eshitgan.

Olim esa hech qanday yozuv yo'qligini ko'rib, jahli chiqib: «Nima, sen meni bekorchi deb o'yladingmi?» – deb koyigan. Imom Termiziy uzr aytib: «Siz aytgan hadislarni yodlab oldim, ularni aytib beraymi?» – deb eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin aynan aytib bergan. So'ng u olim yana qirqta hadis aytgan. Imom Termiziy ularni ham birma-bir xatosiz aytib bergan.

Shunda olim Imom Termiziyning xotirasi bag'oyat kuchli ekanidan hayratlangan.



Iso Termiziy maqbarasi, Sherobod

Ma'lumot uchun

Zamaxsharıy, Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (1075–1144) – tilshunos, shoir, faqih. «Jorulloh» – «Allohning qo'shnisi», «Arab va g'ayri arablar ustozi», «Xorazm faxri» nomlari bilan ulug'langan. Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Otasi rahbarligida savod chiqarib, keyinroq Gurganjda, Buxoroda ilm olgan. Bir necha yil xorazmshohlar saroyida xizmat qilgan. 1118-yildan e'tiboran butun umrini ilm-fanga bag'ishlaydi. Ikki marta haj safarida bo'lgan. Ko'hna Urganchda vafot etgan.

Zamaxshariy arab tili, adabiyot, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ko'plab asarlar yaratgan. Arab tili grammatikasiga oid «Al-Mufassal» nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan.

Uning Qur'on tafsiriga bag'ishlangan «Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish» («Al-Kashshof an haqoiq it-tanziyl va uyun-il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl») asari mashhurdir. Makkada yozilgan bu kitob qisqacha «Kashshof» deb ataladi.

Zamaxshariyning fiqhga oid «Turli masalalarning muhimi», «Vorislik huquqi ilmi bo'yicha mashq», din asoslari haqidagi «Usuldagi tartibotlar», hadislarga bag'ishlangan «G'arib hadislar haqida ajoyib asar», shuningdek, til, nahv masalalarini keng yoritgan kitoblari, she'riy devonlari saqlangan bo'lib, ular turli tillarga tarjima qilinib chop etilgan.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ustozi Abdurahmon Jomiy ta'rifiga bag'ishlangan bobida Zamahshariyni eslab o'tadi:

Arabiyatda dars aning virdi.
Ibni Hojib kamina shogirdi.
Ibni Hojib demayki, Jorulloh,
Oncha tafsir ishinda yo'q ogoh.

Ijodiy faoliyat

Imom Mahmud Zamahshariyning arab grammatikasi va tilshunosligiga oid asari uchun arablar uni qanday hurmat bilan tilga oladilar?

Ma'lumot uchun

Buyuk o'zbek allomalari orasida islom shariati — fiqh sohasida ham peshqadamlar mavjud bo'lgan.

Imom Burhoniddin Abulhasan Ali ibn Abubakr ibn Abduljalil Farg'oniy **Marg'inoniy**ning nasabi xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a.)qa borib taqaladi.

Imom Burhoniddin Marg'inoniy 1123-yilda Rishton tumanida tug'ilgan. U ilm-ma'rifatli oilada ulg'aygan bo'lib, avvalo o'z otasidan ta'lim oladi. So'ng o'z davrining mashhur allomalari, faqih va mujtahid darajasidagi olimlardan dars olib, o'zining e'tiqodi, taqvosi va yuksak iste'dodi tufayli hanafiy mazhabi bo'yicha buyuk faqih va mujtahid darajasiga ko'tariladi. «Shayx ul-islom» degan ulug' martabaga sazovor bo'ladi.

Burhoniddin Marg'inoniyning yuzga yaqin asarlar yozganligi manbalarda qayd qilingan. Uning shoh asari «Hidoya» hisoblanadi. Mazkur asar 57 bobdan iborat bo'lib, islom huquqshunosligining barcha sohalarini o'zida ifoda etgan noyob manba hisoblanadi.

Marg'inoniyning butun islom olamida mashhur bo'lgan «Hidoya» asari 1178-yili Samarqandda yozildi. «Hidoya» asari yaratilgan davridan to hozirgacha Sharq va G'arbning o'quv yurtlarida islom shariatini o'rganishda asosiy manbalardan biri sifatida foydalaniladi.

Alloma 1197-yilda vafot etgan.

2000-yilning noyabrida Marg'ilonda Burhoniddin al-Marg'inoniyning 910 yilligi keng nishonlandi.

Imom Burhoniddin Marg'inoniy ziyoratgohi. Farg'ona viloyati

Ma'lumot uchun

Hakim Termiziyning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy bo'lib, tarjimayi holiga oid ma'lumotlar o'rta asrlarda arab tilida ijod qilgan mualliflardan Tojuddin Subkiy, Xatib Bag'dodiy Ibn Hojar Asqaloniy va Sullamiy asarlarida, shuningdek, o'zining qalamiga mansub «Bad'u sha'ni Abu Abdulloh» («Abu Abdulloh ishining boshlanishi») nomli avtobiografik risolasida keltirilgan.

Mashhur mutasavvuf, muhaddis, «hofiz ul-Qur'on» va olim bo'lib, aqida, tafsir, hadis ilmlari to'g'risida asarlar yozgan Hakim Termiziy taxminan 750/760-yillarda Termiz shahrida tavallud topgan. Umrining oxiriga qadar (taxminan 869-yil) to'rt yuzga yaqin asar yozgan. Shundan oltmishga yaqini bizgacha yetib kelgan.

Termiziy bu dunyo uchun yaratilgan barcha ne'matlarning, jumladan, tevarak-atrof, bizni o'rab turgan dunyoning hikmatini anglashdagi harakatlari uchun o'z davri-



da alloma «al-Hakim», ya'ni «(borliqdagi) hikmatni anglagan zot» nomiga musharraf bo'lgan.

Allomaning payg'ambar Muhammad alayhissalomning hadislariga bag'ishlangan «Navodir al-usul fi ma'rifat axbor Rasul» («Rasululloh xabarlarini bilishga oid usullar») asari mashhur. Uning bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston musulmonlar idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. Hakim Termiziyning bizgacha yetib kelgan muhim asarlaridan yana biri «Xatm ul-avliyo» (ba'zi manbalarda «Xatm ul-valoyat») bo'lib, unda allomaning valiylik haqidagi qarashlari keng bayon etiladi. Bundan tashqari, uning tasavvufga oid «Kitob haqiqat al-odamiya» («Insoniyat haqiqati to'g'risida kitob»), «Adab al-nafs» («Nafs odobi») va boshqa bir qancha qo'lyozma asarlari bu-



Hakim Termiziy maqbarasi

Ma'lumot uchun

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Zakariyya al-Xattob ibn Sharik **Narshaxiy** (899–959) — tarixchi olim.

Buxoroning Narshax qishlog'ida tug'ilgan. Somoniylar saroyida kotiblik qilgan. Narshaxiy 943–944-yillarda somoniylar amiri Nuh ibn Nasrga bag'ishlagan «Tahqiqi viloyati Buxoro» («Buxoro tarixi») nomli asarini arab tilida yozdi.

Narshaxiy yozgan «Buxoro tarixi» kitobining bir necha bobi Buxoroning barpo etilishi, qadimiy nomlari, qadimgi podshohlariga bag'ishlangan. Asarning maxsus bir bobi Buxoro atrofidagi Karmana, Nur, Tavois, Iskajkat, Sharg', Zandana, Vardona, Afshona, Barkat, Romitan, Varaxsha, Baykand (Poykend), Forob va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Kitobda Turonda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi, islom dinining yoyilishi va Buxoroning arablar tomonidan egallab olinishi hamda xalifalikka qarshi kurashlar batafsil hikoya qilinadi.

«Buxoro tarixi»da IX asrda Turonning arab xalifaligidan ajralib chiqishi, Movarounnahr va Xurosonda somoniylar hukmronligining o'rnatilishi hamda Buxoroning iqtisodiy va madaniy hayoti tasvirlangan.

Asarda Buxoro shahrining darvozalari, ichki va tashqi devorlarining qurilishi, ark va shahristonning bino qilinishi kabi shaharning tarixiy topografiyasiga oid ma'lumotlar bo'lib, ular mohirona hikoya qilinadi. Bu asar butun Turonning ilk o'rta asrlar tarixini o'rganishda nodir manbadir.

Bilasizmi?

Afsuski, «Buxoro tarixi»ning arab tilida yozilgan asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Kitobning fors tiliga tarjima qilinib, qariyb uch asr davomida bir necha bor tahrir, qisqartirish va qo'shimchalarni boshidan kechirgan nusxasi saqlanib qolgan, xolos. «Buxoro tarixi» Parijda fransuz, Buxoro va Tehronda fors, Kembrijda ingliz, Toshkentda rus va o'zbek tilida, Dushanbeda tojik tilida nashr etilgan.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. «Tinchlik va barqarorlik ilm-fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi», degan iborani hayotiy misollar asosida sharhlab bering.
2. Yurtimiz mutafakkirlarining ilmiy merosi jahon ilm-fani rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi? Fikringizni asoslang.
3. Bugundan 1000 yil o'tganda odamlar sizni iliq so'zlar va iftihor bilan tilga olishlarini faraz qiling.
   Siz kelajakda o'zingizdan qanday ma'naviy meros qoldirmoqchisiz?

45-46-mavzular:

IX-XII ASRLARDA ILM-FAN VA MADANIYATNING YUKSALISHI

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Rasmda berilgan Mag'oki Attoriy masjidi qaysi sulola davrida qurilgan edi?
2. Jahon tarixi fanidan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob bering. Xalifa Ma'mun Bag'dodda tashkil qilgan ilm muassasasi tarixda qanday nom bilan qolgan? Bu muassasa nimasi bilan mashhur bo'lgan?
3. Mahmud G'aznaviyning Xorazmga yurishiga nima bahona bo'ldi? U qaysi olimni o'zi bilan G'aznaga olib ketdi va unga vazirlik darajasini berdi?



Buxorodagi Mag'oki Attoriy masjidi

Mulohaza uchun

Turon hududi jahon madaniyatining ko'hna o'choqlaridan biri bo'lgan. Islom dini kirib kelishidan avval ham bu yerda yashagan xalqlar boy me'morchilik va hunarmandchilik an'analariga ega edilar. Mintaqaga islom dini kirib kelgach, mahalliy an'analar islom madaniyati bilan uyg'unlashib, yanada yuksalish pallasiga kirdi.

Ilm-fan, savdo-sotiq, qurilish va qishloq xo'jaligi misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Ilk

islom davridagi mavjud siyosiy va iqtisodiy muhit bu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

IX-X asrlarda me'morchilikning ajoyib yutuqlari masjid va madrasalar qurilishida ko'proq namoyon bo'ldi. O'sha davrlarda diyorimizga kelib-ketgan sayyoh va olimlar shaharlarga ta'rif bera turib, asosiy binolar sifatida masjid va madrasalarni tilga olganliklari shundan dalolatdir. Masjid binolari yonida hashamatli va ulug'vor minora, honaqoh, ulamo-yu avliyolarning mozorlari ustiga maqbaralar qurildi.

Bunday joylarni ziyorat etuvchilarning soni ko'p bo'lganligidan maxsus hujralar ham bino etila boshladi.

Iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi, shaharlar ahamiyatining ortib borishi natijasida IX asrga qadar asosan loy va xom g'ishtdan qurib kelingan binolar o'rniga endi pishiq g'ishtlar ham ishlatila boshladi.

Bilasizmi?

Hozirgi geologiya, mineralogiya, fizika va kimyo sohalari uchun nihoyatda muhim va ishonchli bo'lgan moddalar tahlili (diagnostikasi)ning usuli, ya'ni moddalar solishtirma og'irligini aniqlash ilk bor Xorazmda Ma'mun akademiyasida Beruniy tomonidan kashf etilgan.

Ijodiy faoliyat

1. Bu davrda qanday yangi binolar qad ko'tardi?
2. Ularning vazifasi nimalardan iborat edi?
3. Birinchi madrasa qayerda qurilgan?

Mulohaza uchun

Qoraxoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, anushteginiylar davrida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yuksalgan.

XI-XII asrlarda pishiq g‘ishtdan binolar qurish mahorati yuksak darajaga yetgan. Imoratlarni sakkiz burchakli peshtoqlari baland ko‘tarilgan va hashamatli gumbazlar bilan yopilgan holda qurish odat tusiga kirgan, naqshinkor g‘isht terish san’ati rivojlangan, g‘ishtlarga o‘yma naqshlar berilgan.

Aholi orasida «musulmon g‘isht» deb yuritiladigan qurilish ashyosi, sariq loydan tayyorlanib, maxsus xumdonlarda pishirilgan. Har bir shahar va viloyatda o‘ziga xos me’moriy uslublar rivojlangan. Bular algebra va geometriya fanlarining rivojlanganligidan ham dalolat beradi.

Ijodiy faoliyat

Berilgan rasm asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. G‘ishtlarning terilishiga e’tibor bering. Ularning usullariga nom qo‘ying.
2. Bunday naqshlarni terish uchun yoki pishiq g‘ishtlarni yaratish uchun qanday texnologiyalardan foydalanishgan? Pishiq g‘isht tayyorlash mexanizmini bilasizmi?
3. Geometriya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, naqshlarni chizing. Qanday chiziqlardan foydalandingiz?
4. Berilgan rasmda nechta burchak bor, sanab ko‘ring. Ularning o‘lchamini topa olasizmi?

Ma'lumot uchun

Saljuqiylar davrida fan va madaniyat taraqqiyoti uchun barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Ushbu xonadonga mansub oliy hukmdormi, shahzodami yoki malikami, hammalari biror-bir shaharda bir yoki bir nechta madrasa qurishni o'z vazifalari deb bilganlar. Ulardan vazirlar, amirlar, mahalliy hokimlar ham o'rnak olib ish tutganlar. Mashhur vazir Nizomulmulk o'z davrida ko'plab madrasalar qurdirgan. Ilm toliblari ham diniy, ham dunyoviy sohalarda bilim olganlar. O'quvchilarga oylik nafaqa berilgan, joy bilan ta'minlangan. Ularni o'z davrining yetuk olimlari o'qitgan. Ilm toliblarining ixtiyorida ko'p ming sonli kitoblarni o'zida jamlagan kutubxonalar ham bo'lgan.

Nizomulmulk tomonidan asos solingan Bag'doddagi «Nizomiya» madrasalaridan birida olti ming talaba yashab, ta'lim olgani ma'lum. Har bir madrasa qoshida kutubxona, ayrimlarida shifoxona ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Nishopurda asos solingan madrasaga shifoxona ham biriktirilgan.

Madrasada astronomlar, matematiklar, falakiyotshunoslar, riyoziyotchilar, tabiblar, kimyogarlar, yirik shoirlar faoliyat ko'rsatganlar. Ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar.

Marv noibi Ma'mun 813-yilda Bag'dod xalifaligi taxtiga o'tiradi. U Xuroson, Movarounnahr va Xorazmdagi ilm ahlini Bag'dodga olib ketadi. Ular orasida tarixda mashhur Muhammad Muso Xorazmiy ham bo'lgan.

Ijodiy faoliyat

Nima uchun xalifa Ma'mun, keyinchalik, qoraxoniylar, somoniylar, g'aznviylar, saljuqiylar davrida ilm-ma'rifat rivojlangan? Javobingizni Imom Buxoriyning: «Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay», – degan hikmati bilan asoslang.

Ma'lumot uchun

Xorazmshohlardan **Abul Hasan Ali ibn Ma'mun** ilmga katta e'tibor ko'rsatib, o'z saroyiga olimlarni taklif qiladi. Gurganchda 1004-yilda akademiyaga asos soladi. Bu tarixda Ma'mun akademiyasi nomi bilan qoladi. Mazkur akademiyada Abu Rayhon Beruniy ilm ahliga boshchilik qiladi.

Unda Abu Ali ibn Sino ham faoliyat yuritgan. Akademiyada diniy bilimlar bilan bir qatorda olimlar dunyoviy va tabiiy fanlar bilan, xususan, astronomiya, matematika, fizika, kimyo, mineralogiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar olib borishgan. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarni mukammal bilganlar. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolemey, Yevklid, Pifagor va Galen asarlarini chuqur tahlil qilib, ularga bag'ishlab sharhlar bitganlar.

O‘zlari yuqoridagi ilmlar sohasida tadqiqotlar o‘tkazib, fanni yangi g‘oyalar bilan boyitganlar.

Ular Gurganch madrasalarida yoshlarga ta’lim-tarbiya berib, iste’dodli shogirdlar tayyorlashga katta hissa qo‘shdilar. Shuningdek, akademiyada Beruniyning astronomiya, Abu Nasrning matematika, Abul Xayr Hammorning kimyo maktablarida ham yoshlarga chuqur bilim berildi. Bu davrga kelib Gurganj madrasalari va yuqoridagi maktablar haqiqiy ilm-maskanlariga aylandi. Ularda ta’lim olgan yoshlar keyinchalik Sharqning mashhur allomalari bo‘lib yetishdilar.

Ma’mun akademiyasida yig‘ilgan olimlarning aksariyati Muhammad Muso Xorazmiy asarlarining sharhlovchilari yoki bu olimning biror fan sohasidagi ilmiy an’analari davomchilari bo‘lgan.

Ijodiy faoliyat

Manbalarda aytilishicha, xorazmshoh Ma’munning Abu Husayn Suhayliy ismli vaziri bo‘lib, u zukko ma’rifatparvar va faylasuf bo‘lgan. Hukmdorning ilm-fanga yuksak e’tibori u tufayli ham edi. Mazkur ma’lumotni izohlang.

2006-yilda mamlakatimizda Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlangan.

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Quyidagi fikrni tushuntirib bering: «Xorazm Ma’mun akademiyasi bo‘sh joyda paydo bo‘lgan emas. U o‘zigacha yaratilgan ilm-fanning qonuniy vorisi sifatida shakllandi».
2. «Qonuniy vorisi» degan tushunchani qanday tushundingiz?
3. Bugungi kunda Muhammad Muso Xorazmiyning vorislari sifatida kimlarni ayta olasiz?
4. QR da berilgan manbalarga asoslanib, Xorazm Ma’mun akademiyasining qayta tashkil etilishi haqida taqdimot tayyorlang.

47-48-mavzular: MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Al–Xorazmiy qanday buyuk kashfiyot qilgan?
3. Bu insonning tarix oldidagi xizmati qanday bo'lgan?



Mulohaza uchun

Buyuk matematik, astronom va geograf olim Abu Ja'far (Abu Abdulloh) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xivada (783–850) tug'ilgan. U algebra fanining asoschisi sifatida ilm-fan tarixida yuksak nom qozondi. «Algebra» so'zining o'zi uning «Al-jabr val-muqobala» nomli risolasidan olingan. Uning arifmetikaga oid risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa, «algoritm» shaklida fanda abadiy o'rnashib qoldi.

Bilasizmi?

Xorazmiyning aytishicha, algebrada uch xil son bilan ish ko'riladi: ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz – o'z-o'ziga ko'paytiriladigan miqdor, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytirishdan hosil bo'lgan kattalikdir. Xorazmiy ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir.

Ijodiy faoliyat

X asrda yashagan sayyoh al-Muqaddasiy: «Xorazmliklar aql-idrok, ilm, fiqh, qobiliyat hamda bilim kishilaridir», – deganida nimalarni nazarda tutgan?

Mulohaza uchun

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarning 10 tasi bizgacha yetib kelgan. «Al-jabr val-muqobala», «Hind hisobi haqida kitob», «Qo'shish va ayirish haqida kitob» (arifmetik asarlar), «Kitob surat-al-arz» (geografiyaga oid asar) shular jumlasidandir. Shuningdek, allomaning «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yasash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-tarix» kabi asarlari ilm-fan rivojida katta ahamiyat kasb etadi.

«Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni ta'lif qildim (yozdim), chunki meros taqsimlashda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda, adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turli ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

Hali G'arbda ko'pchilik yer tekislikdan iborat, deb ishonib yurgan bir paytda, Xorazmiy sayyoramiz yumaloq shaklda ekanini isbotlagan.



Mulohaza uchun

Alloma qadimiy Bobildan ma'lum bo'lgan birinchi va ikkinchi darajali tenglamalarni yechish usullarini bayon qilgan. Xorazmiy har bir holda tenglamani yechish qoidalari hamda ularning qat'iy isbotlarini keltiradi. Isbot garchi tashqi ko'rinishda geometrik tilda bayon qilinsa-da, mohiyatan hozirgi algebraik isbot bilan mos tushadi.

«Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al-jabr val-muqobala hisob haqida qisqacha kitob»ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma yozishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va harqanday bilimlarda va shuningdek, yer o'lchashda, ariqlar o'tkazishda, muhandislikda va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir», – deb yozgan Al-Xorazmiy.

«Al-jabr val-muqobala» algebra asoslari hamda algebrani amalda tatbiq etishga bag'ishlangan mukammal darslik bo'lgan.

Yevropalik olimlar bir necha asrlar davomida barcha hisob-kitoblarning tagiga «diksit Algoritmi», ya'ni «Al-Xorazmiy shunday deydi», deb qo'shib ketishni o'zlariga sharaf deb bilishgan. Bu olimlarning hisob-kitoblarni aynan ulug' alloma Xorazmiy ko'rsatmalari asosida o'tkazganini bildiradi.

Bilasizmi?

«Har gal mobil telefoningni qo'lga olganda, unutma, uning «ichida» musulmon o'zbek otaxon yashirin o'tiradi!». Atoqli Britan jurnalisti Endryu Marr jahon tarixi haqida BBC telekanali uchun tayyorlagan teleko'rsatuvlardan birida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy haqida gapirib, xuddi ana shunday xitob qiladi, deya xabar beriladi xalqaro ommaviy axborot vositalarida.

Ma'lumot uchun

Alloma Xorazmiy ko'plab hind qo'lyozma asarlarini o'rganib chiqdi. 1 dan 9 gacha sanoq tizimini tuzgan va 0 g'oyasi ustida bosh qotirgan hind matematigi izlanishlari ulug' alloma Xorazmiyga yaxshigina turtki bo'ldi. Lekin 0 sonini son sifatida e'tirof etgan va hind sanoq tizimidan foydalanib, arab sanoq tizimiga asos solgan shaxs aynan ulug' alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy edi. O'ziga zamondosh bo'lgan olimlarga hind sanoq tizimini tanishtirish va matematika olami markaziga nol sonini joylashtirish o'z davri matematikasi uchun inqilob bo'ldi. Bu esa, avval ilojsiz bo'lgan o'ta mavhum va murakkab matematik masalalarni hal qilish imkonini berdi. Shu kashfiyotning o'ziyoq Xorazmiyni barcha zamon va makonlarning eng buyuk matematiklari qatorida turishiga kifoya qiladi. Lekin uning yana boshqa bir katta kashfiyoti borki, bu yangilik sababli matematikadan yangi bir soha ajrab chiqdi.

Ijodiy faoliyat

1. «Algoritm» deganda nimani tushunasiz?
2. Sizning kun tartibingiz, qo'l telefoningizning algoritmi bormi?
3. Agar 0 soni bo'lmaganida aniq hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin bo'larmidi?
4. Yevropalik olimlar Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyni qanday nom bilan tilga oladilar?

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning qilgan buyuk xizmatlariga e'tirof o'laroq 1976-yili Sayyoralar tizimini nomlash ishchi guruhi Oyning kraterini Muso Xorazmiy nomi bilan atagan.



Ijodiy faoliyat

1. Xorazmdagi Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritgan olimlar fanning qaysi sohalarida izlanishlar olib borishgan edi?
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy matematikadan tashqari fanning yana qaysi sohalari bilan shug'ullangan? Siz qaysi fan sohalariga qiziqasiz?
3. Bir o'ylab ko'ring-chi, o'sha davrda «Al-jabr val-muqobala» kitobiga qanday ehtiyoj mavjud edi?

Mulohaza uchun

Xorazmiy matematikaga oid asarlaridan tashqari, geografiyada ham muhim qadamlar qo'ygan. U xalifa Ma'mun (813–833) uchun jahon xaritasini yaratishga yordam berdi va Yer atrofini topish uchun loyihada ishtirok etdi, Suriyadagi Sinjor tekisligida yer meridiani darajasini o'lchadi.

«Xorazmiy o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri».

J. Sarton,
amerikalik tarixchi

Ma'mun akademiyasining hozirgi ko'rinishi Xorazm.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Bu davrda dunyoning boshqa davlatlarida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiydek ilmiy meros qoldirgan allomalarni bilasizmi?
2. Dunyo hamjamiyati rivojini Xorazmiysiz tasavvur qilish mumkinmi?
3. «Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning fan taraqqiyotidagi o'rni» mavzusida qo'shimcha ma'lumotlar asosida taqdimot tayyorlang.

49-50-mavzular:

AHMAD FARG‘ONIY

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. «Alfraganus» haqida nimalarni bilasiz?
2. Rasmda berilgan inshootning qayerda joylashganligini bilasizmi?

Ahmad Farg‘oniyning «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» asari o‘rta asr musulmon Sharqi mamlakatlarida, so‘ng Ispaniya orqali Yevropa mamlakatlarida astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.

Ma’lumot uchun

Olimning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. Uning hayoti va ilmiy faoliyati haqida juda oz ma’lumotlar saqlangan.

Ahmad Farg‘oniy (797-865-yillar) Farg‘ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog‘ida tug‘ilgan. U avval Bag‘doddagi rasadxonada ish olib bordi, so‘ngra Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha «Zij» yaratish ishlariga rahbarlik qildi.

Farg‘oniy yunon astronomlari, jumladan, Ptolemeyning «Yulduzlar jadvali» asarida berilgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish hamda o‘sha davrdagi barcha asosiy joylarning geografik koordinatalarini yangidan aniqlash yuzasidan olib borilgan muhim tadqiqotlarda faol ishtirok etdi.

Ijodiy faoliyat

1. Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy qaysi xalifa davrida ijod qilgan?
2. Osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash uchun qanday bilimlarga ega bo‘lish kerak?



Oydagi kraterlardan biriga Ahmad al-Farg‘oniy nomi berilgan

1998-yilda allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi. 2007-yilda Misr poytaxti Qohirada allomaga haykal o‘rnatildi.

Arab tilidagi ilmiy atamashunoslikka doir, xususan, falakiyot, riyoziyot va geografiyaga oid atamalarni belgilab chiqishdek maxsus ilmiy ishlarni amalga oshirishda Farg‘oniyning xizmati katta. U ayrim astronomik asboblarni ixtiro etish, falakiyotshunoslikka doir arab tilidagi boshlang‘ich bilimlarni belgilash va tartibga solish ishlariga ham hissa qo‘shdi.

Mulohaza uchun

Farg‘oniyning «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum» deb atalgan asari «Astronomiya asoslari haqidagi kitob» nomi bilan mashhurdir. Asar XII asrda ikki marta lotin tiliga tarjima qilingan. XIII asrda boshqa Yevropa tillariga tarjima qilinganidan so‘ng, al-Farg‘oniyning nomi «Alfraganus» tarzida dunyoga tanildi.

Farg‘oniyning yuqorida nomi keltirilgan asaridan tashqari «Usturlob yasash haqida kitob», «Al-Farg‘oniy jadvallari», «Yetti iqlimni hisoblash haqida» kabi asarlari, «Oyning Yer ostida va ustida bo‘lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» qo‘lyozmasi turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. Al-Farg‘oniy 861- yilda Qohira yaqinidagi Ravzo orolida «nilometr», ya’ni suv sathini belgilovchi uskuna yasagan. Uskuna ilk bor Nil daryosida sinab ko‘rilgani uchun shunday nom olgan.

To‘rt ming kilometr uzunlikdagi Buyuk Nil Misr xalqi uchun hayot-mamot daryosi edi. Mamlakat hududining atigi olti foizidagina dehqonchilik qilish, biron yegulik yetishtirish mumkin bo‘lgan. Bu ham Nil tufayli. Qolgan qismi qumlik bo‘lib, bu joylarga daryo suvi yetib bormas edi. Ana shu olti foiz suvli yer xalqni boqib kelgan. Hozir ham shunday. Ammo o‘shanda Nil suv sathi tizginsiz bo‘lgan. Ya’ni, bir yil suv sathi ko‘tarilsa, qirg‘oqdagi dehqon yerlarini suv bosib, hosili nobud bo‘lardi. Va aksincha, suv sathi pasayib ketsa, qirg‘oqdan uzoqroqdagi yerlar qurg‘oqchilikka uchrardi. Shunga qaramay davlat soliqchilari har ikki holatda ham yer egalaridan birdek soliq talab qilgan. Ahmad Farg‘oniy yulduzlar harakatini uzluksiz kuzatish barobarida Nil daryosi sathidagi o‘zgarishni hisobga olgan holda daryodan uzoq-yaqinligiga qarab yerlar hosildorligi jadvalini tuzadi va shu tartibda soliq tizimini yaratadi. Olimning Nil daryosi orollaridan biri — Roud «burni»ga qurgan «Miqyosi Nil» uskunasi Misrda yangicha soliq miqdoriga asos soldi.

Yevropa Uyg‘onish davrining mashhur olimi Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyaga doir ma’ruzalarini Farg‘oniy asarlari asosida o‘qigan. Farg‘oniy nomi Dante (XIV asr) va Shiller (XVIII asr) tomonidan tilga olinadi.

Atoqli astronom Yan Geveliy 1647-yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida oydagi kraterlardan birini buyuk vatandoshimiz Ahmad Farg‘oniy nomi bilan ataydi.

«Miqyosi Nil» haqida

Mana o'sha, bobomiz bundan o'n ikki asr muqaddam bunyod etgan «Miqyosi Nil» qurilmasi. 35-40 metrlar keladigan ko'prikdan o'tsangiz temir yog'och (Hindistondan keltirilgan buk daraxtidan) qoplangan sakkiz burchakli, usti doirasimon qubbali oddiy bir binoga duch kelasiz. Nilning bir cheti shu orolga urilib ikkiga bo'linadi. Chapda kanalsimon oqim, o'ngda salkam bir chaqirimcha yastanib oqayotgan hayot daryosi. Har qanday holatda ham suv «Miqyosi Nil» qurilmasiga ochilgan tuynukdan kirib-chiqib turadi. Ichkariga kirsangiz o'zingizni go'yo bugun O'zbekiston deb atalmish mamalakatga kelib qolgandek his qilasiz. O'rtada marmar ustun. Unga suv sathi o'lchov chiziqlari tortilgan. Atrof esa yog'och o'ymakorligi hamda sharqona miniatura bezaklari bilan qoplangan. Aytishlaricha, Misr xalqi ularni asrlar davomida asrab-avaylab kelgan.

Sakkiz ustun chizgilariga sog'inch bilan boqaman. Marmar zinalardan ustunni aylanib pastga tushaman. U Nil daryosi suv sathi eng past bo'lgandagi ko'rsatkichdan ham chuqurroq edi. Mana bu tuynukdan suv kirib ustun chiziqlarida ko'rinish bergach boshqa tuynukdan chiqib ketavergan.

Bobomiz esa suv sathi ko'rsatkichiga nisbatan dehqonning yeri daryodan necha chaqirim naridaligiga qarab qancha soliq to'lashi lozimligini matematik formulalar asosida aniq hisob-kitob qilib belgilab berganlar. Shunday qilib, suv sathi ko'tarilsa, yeri daryoga yaqin dehqonlar kamroq, yeri daryodan olisroqdagi dehqonlar ko'proq va, aksincha, suv sathi odatdagidan pastlab ketsa, daryoga yeri yaqin dehqon ko'proq, yeri uzoqroqdagi dehqon kamroq soliq to'lagan. Aslida oddiy qoidaga o'xshaydi. Ammo unda hozirgi o'lcham birligidagi bir metr o'zgarsa ham soliq miqdori o'zgaradigan jadvalni yaratish darhaqiqat arablarning o'zlari aytganidek, buyuk kashfiyot, yoki haqiqiy adolat tarozisi bo'lgan. Shuning uchun ham oradan ming yildan ziyod vaqt o'tibdiki, arablar hamon alloma nomini cheksiz hurmat bilan tilga oladilar. Shuning uchun ham Ahmad al-Farg'oniy yaratgan «Miqyosi Nil» hamon ishchi holatda saqlab kelingan.

Muhammadjon Obidov

Qohirada, Roud orolida, «Miqyosi Nil» inshooti poyiga Ahmad al-Farg'oniyning g'o-yat ko'rkam va nafis ishlangan haykali qo'yildi.

Bu Misr xalqidan insoniyatning buyuk ajdodi Ahmad al-Farg'oniyga minnatdorchilik ramzidir.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Ahmad al-Farg'oniyning ilm-fan rivojidagi o'rni nimada bo'lgan?
2. «Miqyosi Nil» qurilmasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Al-Farg'oniy fanning qaysi sohalarini yaxshi bilgan?
4. Fan sohalari bo'yicha Ahmad Farg'oniydek izlanishlar olib borgan yana qanday shaxslar haqida bilasiz? Ularning tarix oldidagi xizmatlari qanday bo'lgan?

51-52-mavzular:

ABU NASR FOROBIY

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan Abu Nasr Forobiy «Al-muallim as-Soniy» deb e'tirof etilgan?
2. Siz maktabingizda o'qitiladigan fanlarning qaysi birini zarur emas deb baholaysiz? Nima uchun? Javobingizni asoslang.
3. Kimlarni «ensiklopedik olim», «qomusiy olim» deb atashadi?
4. Siz o'zingiz qaysi fanlarni va tillarni yaxshi bilasiz?

Ma'lumot uchun

Abu Nasr Forobiyning (873–950) to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiydir.

Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur faylasuf, qomusiy olim Forobiy 873-yilda turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi Forob (O'tror) shahrida tug'ilgan.

Forobiy o'z zamonasining barcha ilmlarini mukammal egallagani hamda bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shgani uchun Sharq mamlakatlarida «Al-muallim as-Soniy» – «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» degan unvonlarga sazovor bo'lgan.

Ayrim ma'lumotlarda qayd etilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Forobiy o'rta asrlarda ma'lum bo'lgan tabiiy va ijtimoiy sohalarda 160 dan ortiq asar yaratgan. Buyuk vatandoshimizning ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloqiy tarbiyaga, fiqh-

Ijodiy faoliyat

1. Abu Nasr Forobiyni Sharq mamlakatlarida «Al-muallim as-Soniy» – «Ikkinchi muallim» deyishgan. Birinchi muallim kim bo'lgan?
2. Olimni nima sababdan «Ikkinchi muallim» deb atashganini asoslang.

shunoslik va pedagogikaga doir asarlari mavjud.

Ular jumlasiga «Baxt-saodatga erishuv yo'llari» («Risola fi-t tanbeh ola asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fitoyii val xurub»), «Fazilatli xulqlar» («Asashrat al-Fazila») va boshqalar kiradi.

Forobiy nafaqat Turon mutafakkirlari, balki yevropalik olimlardan ham bir necha asr ilgari adolatli jamiyat qurish nazariyasini yaratishga katta hissa qo'shgan. Olimning «Fozil odamlar shahri» risolasida jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari izchil yoritilgan. Davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod va boshqa masalalarga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. Uning ilmiy merosi jahon tarixiy-falsafiy adabiyotlarida e'tirof etilib, yuksak baholangan.



Abu Nasr Forobiy kitobidagi shohrud musiqiy asbobining chizmasi

Ma'lumot uchun

Forobiy musiqani inson tarbiyasiga ta'sir qiluvchi omillardan biri deb bildi. U musiqani insonga nafosat, estetik zavq bag'ishlovchi, his-tuyg'ulari va axloqini tarbiyalovchi muhim vosita, deb hisoblaydi. Mutafakkir «Musiqa haqida katta kitob» nomli ko'p jildli asarida musiqa nazariyasi va tarixi, turli musiqa asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, to-vushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma'lumot berdi.

Forobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to'g'risida yaratgan yaxlit ta'limoti ilk o'rta asrlar va ke-yingi davrlarda ijtimoiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi. O'rta asr mutafakkirlari Ibn Sino, Umar Xayyom, Beruniy va boshqalar Foro-biyning ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi g'oyalar bilan boyitganlar.

Bilasizmi?

«Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishi-lar jamoasi – fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi», degan hikmat muallifi Abu Nasr Forobiy Movaroun-nahrdagi turk shaharlaridan bo'lmish Forobdan chiqqan faylasufdir.

«Fozil odamlar shahri» asaridan: «Har qanday odam shahar-davlatga rahbarlik qilolmaydi. Rahbar bo'lishning ikki sharti:

1. Inson tabiatida rahbarlik qilish qobiliyati (ma'naviy va aqliy yetuklik) bo'lishi zarur.
2. Bunday odam yuqori mavqeyi, insoniy fazi-latlari, qobiliyatlari bilan xalq orasida hurmat qozongan bo'lishi zarur. Rahbarlik sohasida tajriba orttirish ham muhim».

Forobiy chizmalari asosida tayyorlangan musiqa asboblari

Bilasizmi?

Forobiy – G'arb faylasuflari asarlari sharhlovchisi

Forobiy turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari: Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari («Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o'rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etgan va Forobiyga o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan hamda yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Forobiyning «Aristotel "Metafizika" kitobining maqsadi to'g'risida» risolasi ayniqsa mashhur bo'lib, uning ahamiyati haqida Abu Ali Ibn Sino shunday hikoya qiladi: «Aristotelning «Mo ba'da at-tabia» («Metafizika» – tabiatdan tashqari narsalar) asarini tushunish o'ta qiyin bo'ldi. Bu kitobni yozgan kishining maqsadi menga noma'lum edi. Hatto uni qirq bor qayta o'qidim, men uni va uning maqsadlarini tushuna olmadim. Undan umidimni uzib, bu tushunib bo'lmaydigan ekan, degan xulosaga kelgan edim. Bir kuni kitob bozoridan arzimagan pulga Abu Nasr Forobiyning «Aristotel "Metafizika" kitobining maqsadi to'g'risida» kitobini sotib oldim. Bunday kitob topganimdan xursand bo'lib, xudoga shukur qilib, ataylab ro'za tutdim, faqirlarga sadaqa ulashdim».

Metafizika – lug'aviy ma'nosi «fizikadan so'ng» demakdir. Fizika fani doirasidan tashqari bo'lgan, inson his-tuyg'ulari bilan bog'liq fanlar turkumi.

O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

Loyiha ishi: Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida rahbar insonda bo'lishi kerak bo'lgan 12 ta xislat-fazilatni sanab o'tadi.

Jamoa bo'lib, shu asarda berilgan o'n ikki fazilat haqidagi ma'lumotlarni topishga harakat qiling. To'plangan ma'lumotlar bo'yicha taqdimot tayyorlang.

1. Siz bu ro'yxatga yana qanday fazilatlarni qo'shish kerak deb hisoblaysiz?
2. Forobiy asarlarini avvalgi mavzularda tanishgan Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asari bilan o'xshashlik va farqli tomonlarini aytib bera olasizmi?
3. Ibn Sino Forobiyning «Arastu Metafizikasiga sharhlar» kitobini topganidan nega bunchalar xursand bo'lgan?

53-54-mavzular:

ABU RAYHON BERUNIY

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

1. «Beruniy asri» degan iborani eshitganmisiz? Bunda nima nazarda tutiladi?
2. Abu Rayhon Beruniy qaysi fanlar bilan shug'ullangan?
3. Beruniy G'aznaga qanday borib qoldi?

Beruniyning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir.
Sharqshunos olim
I. Y. Krachkovskiy

Ma'lumot uchun

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-yil, qadimgi Kot shahri – 1048-yil, G'azna) – ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning buyuk daholaridan biridir. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda, falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot (matematika), ilohiyot, ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan.

Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tufayli uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Beruniy 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Geodeziya» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U 1029 ta yulduzning koordinatalari va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik xaritasini tuzgan.

Ijodiy faoliyat

Quyidagi gapni o'qing va undagi «xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan» degan fikrni tushuntirib bering:

«Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea-hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan».

Beruniy o‘zining falakiyotga oid asarlarida Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni birinchi bo‘lib ilgari surdi. U shu paytgacha noma’lum bo‘lgan Amerika qit’asi mavjudligini taxmin qilib, o‘z asarlarida bu haqda bir necha bor yozgan. Allomaning g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to‘g‘risidagi fikri XV–XVI asrlarda o‘z tasdig‘ini topdi.

Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho bergan amerikalik tarixchi Jorj Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’rifladi. Beruniyning asarlari o‘z davridayoq dong taratgan va hozirgacha xorijiy tillarga tarjima qilinmoqda.

Beruniy ismidagi «Abu Rayhon» qismi – Rayhonning otasi (rayhonning eng yaxshisi, a’losi ma’nosida), «Muhammad» – mutafakkirning o‘z ismi, «ibn Ahmad» – Ahmadning o‘g‘li ekanini anglatadi.

Beruniy Kot (Kat) shahrining tashqarisida tug‘ilganligi uchun «Beruniy», ya’ni «tashqarilik» degan taxallus bilan atalgan. Uning ilk ustozi Abu Nasr ibn Iroq bo‘lib, Beruniy undan astronomiya, algebra va geometriyaga oid bilimlarni o‘rgangan. Abu Nasr ibn Iroq Beruniyga mehri balandligidan 12 ta asarini mazkur sevimli shogirdiga bag‘ishlagan. Beruniyning ikkinchi ustozi Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan Jurjondagi paytida tanishgan. Beruniy undan tibbiy, astronomiya va falsafaga oid bilimlarni o‘rgangan.

Ijodiy faoliyat

1. Nima uchun tarixchi J. Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta’rifladi?
2. Beruniyning g‘arbiy yarim sharda katta quruqlik borligi to‘g‘risidagi fikri XV–XVI asrlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Bu qaysi qit’a?



Beruniyning Yer aylanishi chizmasi

Manbalarda

«Kitob al-tafhim» Abu Rayhon Beruniyning X-XI asrlarda yozgan astronomiya, fizika, matematika, geometriya va geografiya fanlari bo‘yicha yirik ilmiy asari. XIII asrda ko‘chirilgan nusxa.



Abu Rayhon Beruniy. «Kitob al-tafhim» asari

Usturlob

Ma’lumot uchun

Abu Rayhon Beruniyning kashfiyotlari, ayniqsa, uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Saydana» kabi asarlari o‘z zamonasidayoq unga shuhrat keltirdi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asari Beruniyning ko‘p qirrali olim ekanini namoyish etdi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ajoyib jumlalar keltiradi: *«Garchi biz bu kitobning ba’zi joylarida turli fanlarga o‘tib, bayonimizga aloqasi yo‘q masalalarga kirishib ketsak ham, bu gapni cho‘zish yoki ko‘paytirish maqsadida emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doim bir xil narsaga qarash malollik va sabrsizlikni olib keladi. O‘quvchi fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi...»*

«Hindiston» kitobining yaratilishi haqida esa shunday fikr bildiradiki, unda har qanday orzu-istakning o‘zagi mehnat va harakat degan xulosa kelib chiqadi. Bu asarning tarixiy ahamiyati va qimmati har bir davr jahon allomalari tomonidan e’tirof etilgan.

«O‘rta asr va yangi zamon mualliflaridan hech biri hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy erishgan yutuqlarga erisha olmadi. Beruniyning «Hindiston» asari klassik namuna bo‘lib qolishi bilan birga, o‘z muallifining qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig‘idan iboratdir», — degan edi Hindiston olimi Hamid Rizo.

«Mineralogiya» asarida minerallar va ma’danlarning o‘z davridagi narx-navosi, ba’zilarining shifobaxshlik xususiyatlari, nodir tosh va metallar bilan bog‘liq ayrim qiziqarli etnografik ma’lumotlarni bayon etgan, bu mazkur kitobning muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, Beruniy «Mineralogiya» kitobida shunday yozadi: «Mehnatsiz shon-shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga mehnatsiz erishgan kishi farog‘at va rohat soyasida yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug‘lik libosidan mahrum, yalong‘ochdir». U insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko‘zlangan maqsadga erishish, yaxshilik orqali yaxshilik ko‘rishidir, deb qayd etadi.

Ijodiy faoliyat

Hind olimi Hamid Rizoning «Hindiston» filmi asosida taqdimot tayyorlang va muhokama qiling.

«Beruniy geologiya va mineralogiya fanlarining nazariyotchisi va asoschisidir».

H. Abdullayev, akademik

U arab adabiyoti okeanida yagona qoyadir. Hindshunoslikda Beruniyga teng keladigan kishini na ilgari va na so‘nggi vaqtlarda o‘tganini bilmaymiz.

Zaxau, XIX asr, nemis sharqshunosi

Xorazmdagi siyosiy ziddiyatlar va notinchlik sabab Beruniy 22 yoshida ona shahrini tark etib, Kaspiy dengizi janubidagi Jurjon va Ray shaharlarida nihoyatda faqirlikda kun kechirgan. Hatto ilmiy munozaralarda ham puldor olimlar uning muhtojligi ustidan kulishgan. Bu haqda Beruniyning o‘zi shunday yozadi: «Ray shahrida bir olim astronomiya sohasida men bilan bahsga kirishdi va ilmda mendan ancha past tursa-da, mendan o‘zini yuqori olib, hatto kaminani haqorat ham qildi. Vaholanki, faqat boylik ortiqchaligi oramizdagi farq edi».

Bilasizmi?

Beruniy o'zining birinchi astronomik tajribalarini 16 yoshda Kat shahrida boshlagan. Alloma, nafaqat astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullandi, balki tarix, xususan, din tarixi bilan ham qiziqdi. Olim muhim asarlaridan biri bo'lgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»ni 1000-yili tugallagan. Bu asar muallifning ko'p qirrali olim ekanini namoyish etgan.



Abu Rayhon Beruniy «Mineralogiya». XI asr. Suvga tushirilgan namuna asosida siqib chiqarilgan suyuqlikning hajmini aniqlash moslamasi chizmasi.

Beruniy tibbiyotga bag'ishlangan «Saydana» asarida mingdan ortiq dorivor moddalar nomini 30 tilda yozib chiqqan.

Beruniy G'aznada

Xorazm 1017-yil Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilgach, ko'pchilik olimlar qatori Beruniy ham G'aznaga olib ketiladi. Mahmud G'aznaviy Xorazm hukmdori Ma'munning sadoqatli odamlari sifatida qarab, Beruniy va ba'zi olimlarga dastlab yaxshi munosabatda bo'lmagan. Ammo keyinchalik vaziyat o'zgardi. Sulton Mahmud o'zining Hindistonga qilgan bir nechta yurishlarida hatto Beruniyni munajjim sifatida yonida olib yurgan. Bu yurishlar davrida to'plangan ma'lumotlar asosida olim o'zining mashhur «Hindiston» asarini yozgan.

Beruniyning ilmiy faoliyati Sulton Mahmudning o'g'li Mas'ud G'aznaviy (1030–1041) davrida yanada yuksaldi. U Mas'udning arab tilini o'rganishiga, astronomiyadan xabardor bo'lishiga ko'maklashdi. Sulton Mas'udning homiyligidan minnatdor bo'lgan Beruniy unga bag'ishlab «Qonuni Mas'udiy» asarini yaratgan.

Mulohaza uchun

2009-yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limiga to'rt mashhur olim: Ibn Sino, Beruniy, Zokiriy Roziy (Reyz) hamda Umar Xayyomni o'z ichiga olgan pavilyonni taqdim etiladi. Hozirda u Vena xalqaro markazi Memorial maydonidan joy olgan.

1957-yilda olim yashagan shahar Beruniy nomini oldi

Toshkentdagi metro bekatiga Beruniy nomi berildi

1973-yilda olim tavalludining 1000 yilligi O‘zbekistonda keng ko‘lamda nishonlandi

Toshkent hamda Xorazmda Beruniy haykallari bor

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga Abu Rayhon Beruniy nomi berildi

Oydagi vulqon hamda asteroid Beruniy sharafiga nomlangan

O‘rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Yuqorida berilgan rasmlarning har biriga izoh bering.
2. Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy haqida zamonamiz olimlarining fikrlarini to‘plang.
3. Beruniy ilmning qaysi sohalariga qiziqqan?
4. Tasavvur qiling, tarixda Beruniy bo‘lmaganida... Insoniyat bugungi kunda qaysi bilimlardan bebahra bo‘lgan bo‘lar edi?

55-56-mavzular: ABU ALI IBN SINO

Ma'lumot uchun

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali (980-yil, Afshona qishlog'i, O'zbekiston – 1037-yil, Hamadon shahri, Eron) – jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olim. Sharqda «Shayx ar-ra-is» (donishmandlar sardori, allomalar bosh-lig'i); «Sharaf al-mulk» (o'lka, mamlakatning obro'si, sharafi); «Hakim al-vazir» (vazirlar donishmandi) deb atalgan bo'lsa, G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur.

Uning tibbiyotga doir asarlarida kasallik-larning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning ko'pgina g'oyat mu-him masalalari yoritilgan.

Jahon fani tarixida ibn Sino qomusiy olim sifa-tida tan olingan. Chunki, o'z davridagi mavjud fanlar-ning qariyb barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Ibn Sinoning «Al-qonun fit-tib» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrga-cha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foy-dalanilgan. Uni «Avitsenna» sifatida G'arbda mashhur qilgan asar allomaning tibbiy merosi – «Tib qonunlari» bo'lsa-da, «Shayx ar-rais» nomi, eng avvalo, uning bu-yuk faylasufligiga ishoradir.

Aytishlariga qaraganda, hakimlar aslida 4 ta bo'l-gan, ular G'arbda Arastu va Iskandar, Sharqda esa Abu Nasr Forobiy bilan Abu Ali ibn Sinodir.

Abu Nasrning vafoti bilan Abu Alining tug'ilishi ora-sida o'ttiz yil farq bor. Ibn Sino Forobiy kitoblari orqali unga shogird sanalgan.

Tabiblar maslahati

Ijodiy faoliyat

Ushbu matnni o'qing. Matndagi «Dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazadi», degan jumlani qanday tushundingiz?

«Bu allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir o'tkazadi, deb aytishga asoslar bor».

Mulohaza uchun

Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari XIII asrga kelib jadal tus oldi. Natijada maxsus ilmiy yo'nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. «Tib qonunlari» lotincha tarjimasi to'liq holda 40 marta nashr qilindi.

XVIII asrda yashagan mashhur shved botanigi Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsenniya deb atadi. Buxoro shahri va Afshona qishlog'ida allomaga haykal o'rnatildi, Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga haykal qo'yilgan (2000). Afshonada buyuk allomaning muzeyi ochildi. O'zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi (1999), shuningdek, «Ibn Sino» va «Sino» nomli xalqaro jurnallar nashr qilinmoqda.

Ibn Sino tibbiyot tarixida birinchi bo'lib vabo bilan ofatni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlashni ta'kidlagan. Bemorlarni davolashda olim 3 narsaga: ovqatlanish tartibi (parhez), dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llash (qon olish, zuluk yoki banka qo'yish va boshqalar)ga ahamiyat berish kerakligini aytadi. U kasallikni davolashda shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtiradi.

Bilasizmi?

Abu Ali ibn Sino 10 yoshida Qur'oni Karimni to'liq yod olgan. 13 yoshidan boshlang'ich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shug'ullana boshlagan. U 16–17 yoshidayoq mashhur tabib – hakim bo'lib tanildi.

Bilasizmi?

Abu Ali ibn Sinoning tabobat sohasiga bag'ishlagan mashhur «Tib qonunlari» kitobini yozgan. Asarning hoshiyalarida ko'plab sharhlar keltirilgan. 1601-yilda nodir nusxasi ko'chirilgan.

Ijodiy faoliyat

Nima deb o'ylaysiz, Abu Ali ibn Sinoning qaysi xizmatlarini inobatga olib, dunyo olimlari Oydagi kraterlardan biriga uning nomini berishgan?



O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Abu Ali ibn Sino «Risolatun fi taqsim al-mavjudot» kitobida «Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim, chin bo'lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas», deb aytadi. Bu yerda alloma nimani nazarda tutgan? Aql tarozisi deganda nimani tushundingiz?
2. Siz o'zingiz biror-bir ishga qo'l urishingizdan oldin qanday yo'l tutasiz? Birovga biror xabar yetkazishingiz kerak bo'lib qolgandachi?
3. «Abu Ali ibn Sino – qomusiy olim» mavzusida esse yozing.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

1-mavzu. Ajdodlarimizning ma'naviy qadriyatlari – jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri 3

2-mavzu. IV–VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi 8

3-4-mavzular. IV–VII asrlarda Xorazm..... 10

5-mavzu. IV–V asrlarda xioniylar va kidariylar 15

6-7-mavzular. Eftaliylar 18

8-9-mavzular. Turk xoqonligi..... 24

10–11-mavzular. G'arbly Turk xoqonligi 32

12-13-mavzular. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi 39

14-15-mavzular. Turon xalqlarining harbiy san'ati 48

16-17-mavzular. VI–VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti 54

18-19-mavzular. VII–VIII asr boshlarida Turonda siyosiy vaziyat 62

20-21-mavzular. VIII asrda Xuroson va Movarounnahr 72

22-23-mavzular. Qarluqlar. O'g'uzlar. Tohiriylar 80

24-25-mavzular. Somoniylar 86

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

26-27-mavzular. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot 93

28-29-mavzular. G‘aznaviylar 100

30-31-mavzular. Qoraxoniylar 108

32-33-mavzular. Saljuqiylar 118

34-35-mavzular. Xorazmshohlar davlati va uning yuksalishi 125

36-37-mavzular. Xorazmshohlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot 130

38-mavzu. Etnik jarayonlar va o‘zbek xalqining shakllanishi 136

39-40-mavzular. Mintaqada Islom dinining yoyilishi 140

41-42-mavzular. Ta’lim..... 147

43-44-mavzular. Aql-zakovat bilan bunyod etilgan boy ma’naviyat 151

45-46-mavzular. IX-XII asrlarda ilm-fan va madaniyatning yuksalishi 161

47-48-mavzular. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 167

49-50-mavzular. Ahmad Farg‘oniy..... 172

51-52-mavzular. Abu Nasr Forobiy 176

53-54-mavzular. Abu Rayhon Beruniy 180

55-56-mavzular. Abu Ali ibn Sino..... 186

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Akbar Turg‘unovich Zamonov,
Nargiza Kamaritdinovna Ismatova,
Durbek Abidjanovich Rahimjonov,
Dilmurod Raxmatullayevich Normurodov,
Zokir Turg‘inovich Zamonov,
Sevara Akmalovna Po‘latova

O‘quv nashri

O‘ZBEKISTON TARIXI
(IV ASRDAN – XIII ASR BOSHLARIGACHA)

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik

Muharrir B. Azimov
Texnik muharrir M. Olimbekova
Musahhih T. Mahmudova

Bosishga ruxsat etildi: 24-iyun 2022-yil. Bichimi 60x84 1/8.
«Arial» garniturasi, ofset usulida chop etildi.
Bosma tabog‘i 8,0. Shartli bosma tabog‘i 22,32.
Adadi
Buyurtma

«Yangiyul Poligraph Service» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo‘l shahri,
Samarqand ko‘chasi, 44.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olinganda-gi holati	Sinf rah-barining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rah-barining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslik asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslik-ning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomoni-dan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlan-gan, ayrim betlari chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yan tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.